Izoh – Ochiq kalitlar infratuzilmasi raqamli sertifikatlarni tarqatish texnologiyalarini qo'llashi kerak: sertifikatlarni bериш va bekor qilish, sertifikatlar haqiqiyiligini tekshirish uchun zarur bo'lgan axborotni saqlash.

### **Инфраструктура электронного правительства**

**uz** - elektron hukumat  
infratuzilmasi

электрон ҳукумат  
инфратузилмаси

**en** - e-Government  
infrastructure

Совокупность размещенных государственных информационных систем, программно-аппаратных средств и сетей связи, обеспечивающих при оказании услуг и осуществлении функций в электронной форме взаимодействие органов государственной власти, органов местного самоуправления, граждан и юридических лиц.

Elektron shaklda funksiyalarni amalga oshirish va xizmatlar ko'rsatishda davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, fuqarolar va yuridik shaxslarning o'zaro hamkorligini ta'minlaydigan, joylashtirilgan davlat axborot tizimlari, dasturiy-apparat vositalari va aloqa tarmoqlari majmui.

Электрон шаклда функцияларни амалга ошириш ва хизматлар кўрсатишда давлат ҳокимияти органлари, маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари, фуқаролар ва юридик шахсларнинг ўзаро ҳамкорлигини таъминлайдиган, жойлаштирилган

## И

давлат ахборот тизимлари, дастурий-аппарат воситалари ва алоқа тармоқлари мажмуи.

## К

### **Карта пластиковая**

**uz** - plastik karta

пластик карта

**en** - plastic card

Персонализированный платежный инструмент, предоставляющий пользующемуся картой лицу возможность безналичной оплаты товаров и услуг, а также получения наличных средств в отделениях банков-участников платежной системы и банкоматах.

Kartadan foydalanadigan shaxsga tovarlar va xizmatlar haqini naqdsiz to'lash, shuningdek, to'lov tizimi qatnashchisi bo'lgan banklarning bo'limlarida va bankomatlarda naqd mablag'lar olish imkoniyatini beradigan, personallashtirilgan to'lov vositasi.

Картадан фойдаланадиган шахсга товарлар ва хизматлар ҳақини нақдсиз тўлаш, шунингдек, тўлов тизими қатнашчиси бўлган банкларнинг бўлимларида ва банкоматларда нақд маблағлар олиш имкониятини берадиган, персоналлаштирилган тўлов воситаси.

### **Карты с магнитной полосой**

**uz** - magnit chiziqli kartalar

магнит чизиқли карталар

**en** - card with magnetic strip

Простейшие карты, информация которых хранится на трехдорожечной магнитной полосе, располагающейся на обратной стороне карты.

Axborot kartaning orqa tomonida joylashgan uch yo'lkali magnit chiziqda saqlanadigan eng oddiy kartalar.

Ахборот картанинг орқа томонида жойлашган уч йўлкали магнит чизиқда сақланадиган энг оддий карталар.

### **Кластер**

**uz** - klaster

кластер

**en** – cluster

1. Многомашинная вычислительная система, представляющая совокупность относительно автономных систем с общей дисковой памятью (общей файловой системой), средствами межмашинного взаимодействия и поддержания целостности баз данных.

2. Вычислительная система, состоящая из нескольких компьютеров, соединенных скоростным каналом.

## И

Примечание – Для абонентов кластер выглядит как единое целое.

1. Umumiy diskli хотирага (umumiy fayl tizimiga), mashinalararo o‘zaro hamkorlik va ma’lumotlar bazalarining yaxlitligini ta’minlash vositalariga ega tegishli avtonom tizimlar yig‘indisini ifodalaydigan ko‘p mashinali hisoblash tizimi.

2. Yuqori tezlikli kanal bilan birlashtirilgan bir nechta kompyuterdan tashkil topgan hisoblash tizimi. Izoh – Abonentlar uchun klaster bir butun yaxlit sifatida ko‘rinadi.

1. Умумий дискли хотирага (умумий файл тизимига), машиналараро ўзаро ҳамкорлик ва маълумотлар базаларининг яхлитлигини таъминлаш воситаларига эга тегишли автоном тизимлар йиғиндисини ифодалайдиган кўп машинали ҳисоблаш тизими.

2. Юқори тезликли канал билан бирлаштирилган бир нечта компьютердан ташкил топган ҳисоблаш тизими.

Изоҳ – Абонентлар учун кластер бир бутун яхлит сифатида кўринади.

1. Пользователь, компьютер или программа, запрашивающий услуги, ресурсы, данные или обработку у другой программы или компьютера.

2. Программа, использующая определенные услуги другой программы, которая называется сервером.

3. Компьютер, на котором выполняется программа-клиент.

4. Система (или программа), делающая запросы другим системам (или программам), которые называются серверами, для выполнения определенных задач.

Примечание – Клиенты и серверы взаимодействуют через специальные протоколы и могут работать в различных узлах сети, которые могут быть компьютерами различного класса.

1. Dastur yoki kompyuterdan xizmatlar, resurslar, ma’lumotlar yoki qayta ishlashni so‘raydigan foydalanuvchi, kompyuter yoki boshqa dastur.

2. Server deb ataladigan boshqa bir dasturning muay-

### Клиент

uz - mijoz

мижоз

en - client

## И

yan xizmatlaridan foydalanadigan dastur.

3. Mijoz-dastur bajariladigan kompyuter.

4. Muayyan vazifalarni bajarish uchun serverlar deb ataladigan boshqa tizimlarga (yoki dasturlarga) so‘rov yuboradigan tizim (yoki dastur).

Izoh – Serverlar va mijozlar maxsus protokollar orqali birgalikda ishlaydi va turli klassdagi kompyuterlarni ifodalaydigan tarmoqning turli uzellarida ishlashlari mumkin.

1. Дастур ёки компьютердан хизматлар, ресурслар, маълумотлар ёки қайта ишлашни сўрайдиган фойдаланувчи, компьютер ёки бошқа дастур.

2. Сервер деб аталадиган бошқа бир дастурнинг муайян хизматларидан фойдаланадиган дастур.

3. Мижоз-дастур бажариладиган компьютер.

4. Муайян вазифаларни бажариш учун серверлар деб аталадиган бошқа тизимларга (ёки дастурларга) сўров юборадиган тизим (ёки дастур).

Изоҳ – Серверлар ва мижозлар махсус протоколлар орқали биргаликда ишлайди ва турли классдаги компьютерларни ифодайдиган тармоқнинг турли узелларида ишлашлари мумкин.

1. Общий способ описания услуг и модель пользовательских процессов (программ) для этих услуг.

Примечание – Выполнение задачи разделяется на две части: инициирование запросов системой конечного пользователя (клиентской частью) и ответ на них серверной частью (хранилищем ресурсов).

2. Совокупность клиентов, серверов и сети в целом.

1. Xizmatlarni tavsiflashning umumiy usuli va bu xizmatlar uchun foydalanuvchi jarayonlarining (dasturlarining) modeli.

Izoh – Vazifani bajarish ikki qismga ajratiladi: oxirgi foydalanuvchi tizim (mijoz qismi) tomonidan so‘rovlarning boshlab berilishi va server qismining (resurslar omborining) ularga javobi.

2. Mijozlar, serverlar va umuman, tarmoq yig‘indisi.

1. Хизматларни тавсифлашнинг умумий усули ва бу хизматлар учун фойдаланувчи жараёнларининг (дастурларининг) модели.

Изоҳ – Вазифани бажариш икки қисмга ажратилади: охириги фойдаланувчи тизим (мижоз қисми) томонидан

### Клиент-сервер

**uz** - mijoz-server

мижоз-сервер

**en** - client-server

## И

сўровларнинг бошлаб берилиши ва сервер қисмининг (ресурслар омборининг) уларга жавоби.

2. Мижозлар, серверлар ва умуман, тармоқ йиғиндиси.

### **Ключ электронно-цифровой подписи закрытый**

**uz** - yopiq elektron raqamli imzo kaliti

ёпиқ электрон рақамли имзо калити

**en** - private key of the electronic digital signature

1. Последовательность символов, полученная с использованием средств электронной цифровой подписи, соответствующая закрытому ключу электронной цифровой подписи, доступная любому пользователю информационной системы и предназначенная для подтверждения подлинности электронной цифровой подписи в электронном документе.

2. Последовательность символов, предназначенная для выработки электронно-цифровой подписи и известная только правомочному лицу.

1. Elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga mos keladigan, axborot tizimining istalgan foydalanuvchisi foydalana oladigan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tasdiqlash uchun mo'ljallangan simvollar ketma-ketligi.

2. Elektron raqamli imzoni ishlab chiqish uchun mo'ljallangan va faqat vakolatli shaxsga ma'lum bo'lgan simvollar ketma-ketligi.

1. Электрон рақамли имзонинг ёпиқ калитига мос келадиган, ахборот тизимининг исталган фойдаланувчиси фойдалана оладиган ва электрон хужжатда электрон рақамли имзонинг хақиқийлигини тасдиқлаш учун мўлжалланган символлар кетма-кетлиги.

2. Электрон рақамли имзони ишлаб чиқиш учун мўлжалланган ва фақат ваколатли шахсга маълум бўлган символлар кетма-кетлиги.

### **Ключ электронно-цифровой подписи открытый**

**uz** - ochiq elektron raqamli imzo kaliti

очиқ электрон рақамли имзо калити

**en** - public key of the electronic digital signature

Последовательность символов, однозначно связанная с соответствующим закрытым ключом электронной цифровой подписи, доступная любому пользователю информационной системы и предназначенная для подтверждения подлинности электронного документа.

Elektron raqamli imzoning tegishli yopiq kaliti bilan

## И

qat'iy bog'langan, axborot tizimining istalgan foydalanuvchisi foydalana oladigan va elektron hujjatning haqiqiylikini tasdiqlash uchun mo'ljallangan simvollar ketma-ketligi.

Электрон рақамли имзонинг тегишли ёпик калити билан қатъий боғланган, ахборот тизимининг исталган фойдаланувчиси фойдалана оладиган ва электрон хужжатнинг ҳақиқийлигини тасдиқлаш учун мўлжалланган символлар кетма-кетлиги.

### **Когнитивные вычисления**

**uz** - kognitiv hisoblashlar

когнитив ҳисоблашлар

**en** - cognitive computing

Общее название группы технологий, способных обрабатывать информацию, находящуюся в неструктурированном, чаще всего в текстовом виде (неструктурированные данные). Они не следуют заданному алгоритму, а способны учитывать множество сторонних факторов и самообучаться, используя результаты прошлых вычислений и внешние источники информации (например, Интернет). В настоящее время наиболее передовой когнитивной системой является IBM Watson.

Shakllantirilmagan, ko'pincha matn ko'rinishidagi axborot (shakllantirilmagan ma'lumotlar)ga ishlov berish imkoniga ega bo'lgan texnologiyalar guruhining umumiy nomi. Ular berilgan algoritmgaga rioya qilmasdan, balki avvalgi hisob-kitoblar natijalarini va tashqi axborot manbalarini (masalan, Internet) qo'llagan holda, ko'plab tashqi omillarni hisobga olish va mustaqil ravishda o'rganish imkoniga ega bo'ladi. Hozirgi kunda IBM Watson eng ilg'or kognitiv tizim bo'lib hisoblanadi.

Шакллантирилмаган, кўпинча матн кўринишидаги ахборот (шакллантирилмаган маълумотлар)ни қайта ишлаш оладиган технологиялар гуруҳининг умумий номи. Улар берилган алгоритмга риоя қилмасдан, балки аввалги ҳисоб-китоблар натижаларини ва ташқи ахборот манбалари (масалан, Интернет)ни қўллаган ҳолда, кўплаб ташқи омилларни ҳисобга олиш ва мустақил равишда ўрганиш имконига эга бўладилар.

## И

### **Когнитивные технологии**

**uz** - kognitiv texnologiyalar

когнитив технологиялар

**en** - cognitive technologies

Ҳозирги кунда IBM Watson энг илғор когнитив тизим бўлиб ҳисобланади.

Программные и аппаратные средства, которые имитируют работу человеческого мозга.

Inson miyasining ishlashini imitatsiya qiladigan dasturiy va apparat vositalari.

Инсон миясининг ишлашини имитация қиладиган дастурий ва аппарат воситалари.

### **Комиссия за транзакцию**

**uz** - tranzaksiya uchun

komissiya

транзакция учун комиссия

**en** - transaction fee

Плата, применяемая к некоторым транзакциям в сети Bitcoin. Комиссия за транзакцию взимается в пользу майнера, который нашел блок транзакций.

Bitcoin tarmog'ida ba'zi tranzaksiyalarga nisbatan qo'llaniladigan to'lov. Tranzaksiya uchun komissiya tranzaksiyalar blokini topgan mayner foydasiga undiriladi.

Bitcoin тармоғидаги баъзи транзакцияларга нисбатан қўлланиладиган тўлов. Транзакция учун комиссия транзакциялар блокини топган майнер фойдасига ундирилади.

### **Компакт-диск**

**uz** - kompakt-disk

компакт-диск

**en** - compact disc; CD

Переносной оптический диск для хранения информации (данных) в цифровом виде, то есть формата хранения данных.

Axborotni (ma'lumotlarni), ya'ni ma'lumotlarni saqlash formatini raqamli shaklda saqlash uchun mo'ljallangan ko'chma optik disk.

Ахборотни (маълумотларни), яъни маълумотларни сақлаш форматини рақамли шаклда сақлаш учун мўлжалланган кўчма оптик диск.

### **Компания виртуальная**

**uz** - virtual kompaniya

виртуал компания

**en** - virtual company

Физическое или юридическое лицо, специализирующиеся, как правило, в различных областях, осуществляющих совместную согласованную деятельность с использованием информационных технологий для достижения определенных целей.

Muayyan maqsadlarga erishish uchun, axborot



## И

texnologiyalaridan foydalangan holda, birgalikdagi kelishilgan faoliyatni amalga oshiradigan turli sohalarga ixtisoslashgan jismoniy va yuridik shaxs.

Муайян мақсадларга эришиш учун ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда, одатда, биргаликдаги келишилган фаолиятни амалга оширадиган турли соҳаларга иxtisoslashgan jismoniy va yuridik shaxs.

### **Компьютеризация**

**uz** - kompyuterlashtirish

компьютерлаштириш

**en** - computerisation

Процесс развития и внедрения компьютеров, обеспечивающих автоматизацию информационных процессов и технологий в различных сферах человеческой деятельности.

Inson faoliyatining turli sohalaridagi axborot jarayonlari va texnologiyalarining avtomatlashtirilishini ta'minlaydigan kompyuterlarni rivojlantirish va joriy etish jarayoni.

Инсон фаолиятининг турли соҳаларидаги ахборот жараёнлари ва технологияларининг автоматлаштирилишини таъминлайдиган компьютерларни ривожлантириш ва жорий этиш жараёни.

### **Корпоративные токены**

**uz** - korporativ tokenlar

корпоратив токенлар

**en** - corporate tokens

Токены, удостоверяющие право на долю в предприятии (уставном капитале) или инвестиционном фонде – корпоративные (инвестиционные) токены.

Korxonona (ustav kapitalida) yoki investitsiya fondidagi – korporativ (investitsion) ulushga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi tokenlar.

Корхона (устав капиталида) ёки инвестиция фондидаги – корпоратив (инвестицион) улушга бўлган ҳуқуқни тасдиқловчи токенлар.

### **Кошелек BitPay**

**uz** - BitPay karmoni

BitPay кармони

**en** - BitPay

Процессинговый центр, который позволяет торговцам организовать прием биткоинов.

Savdo bilan shug'ullanadiganlarga bitkoinlar qabulini tashkil qilish imkonini beradigan protsessing markazi.

## И

Савдо билан шуғулланадиганларга биткоинлар қабулини ташкил қилиш имконини берадиган процессинг маркази.

### Кошелек Coinbase

**uz** - Coinbase karmoni

Coinbase кармони

**en** - Coinbase

Другое название инвестиций в транзакции биткоинов. Когда биткоин добыт, он не поступает от другого пользователя сети Bitcoin, а генерируется как награда для майнера. Это вознаграждение записывается как транзакция, однако вместо биткоин-адреса другого пользователя в качестве вводных данных используется произвольная исходная величина. Coinbase также является наименованием сервиса биткоин-кошельков, который предлагает приём платежей для торговцев и выступает как посредник при покупке биткоинов в обменниках.

Bitkoinlar tranzaksiyasidagi investitsiyalarning boshqacha nomi. Bitkoin olinganda, u Bitcoin tarmog'ining boshqa foydalanuvchisidan kelib tushmaydi, balki mayner uchun yutuq sifatida generatsiya qilinadi. Bu yutuq tranzaksiya sifatida qayd etiladi, lekin boshqa foydalanuvchining bitkoin-adresi o'rniga kiritiladigan ma'lumotlar sifatida ixtiyoriy boshlang'ich kattalikdan foydalaniladi. Coinbase ham savdo bilan shug'ullanadiganlar uchun to'lovlarni qabul qilishni taklif qiladigan, bitkoin-karmonlar xizmatining nomi bo'lib, almashlagichlarda bitkoinlarni sotib olishda vositachi sifatida ishtirok etadi.

Биткоинлар транзакциясидаги инвестицияларнинг бошқача номи. Биткоин олинганда, у Bitcoin тармоғининг бошқа фойдаланувчисидан келиб тушмайди, балки майнер учун ютуқ сифатида генерация қилинади. Бу ютуқ транзакция сифатида қайд этилади, лекин бошқа фойдаланувчининг биткоин-адреси ўрнига киритиладиган маълумотлар сифатида ихтиёрий бошланғич катталиқдан фойдаланилади. Coinbase ҳам савдо билан шуғулланадиганлар учун тўловларни қабул қилишни таклиф қиладиган,

## И

биткоин-кармонлар хизматининг номи бўлиб, алмашлагичларда биткоинларни сотиб олишда воситачи сифатида иштирок этади.

### **Кошелек MyEtherWallet**

**uz** - MyEtherWallet karmoni

MyEtherWallet кармони

**en** - MyEtherWallet

1. Самый популярный веб-кошелек для эфириума. Он позволяет получить доступ к адресам ETH и токенам на базе эфира.

2. Адрес эфириума, который имеет определённый набор цифр и букв, обозначающих идентификатор владельца кошелька.

1. Efirium uchun mo'ljallangan eng mashhur veb-karmon. U efir negizida ETH adreslari va tokenlardan erkin foydalanishga ruxsat olish imkonini beradi.

2. Karmon egasining identifikatorini belgilaydigan raqam va harflarning muayyan to'plamiga ega bo'lgan efirium adresi.

1. Эфириум учун мўлжалланган энг машхур веб-кармон. У эфир негизиди ETH адреслари ва токенлардан эркин фойдаланишга рухсат олиш имконини беради.

2. Кармон эгасининг идентификаторини белгилайдиган рақам ва харфларнинг муайян тўпламига эга бўлган эфириум адреси.

### **Краудвестинговые площадки**

**uz** - kraudininvesting maydonlar

краудинвестинг

майдонлар

**en** - equity crowdfunding platforms

Краудинвестингом называют альтернативный способ привлечения средств от большого количества мелких инвесторов в компании малого бизнеса, а также стартующие в бизнес проекты (стартапы). Краудинвестинг можно считать видом краудфандинга, который имеет дело не с безвозмездной помощью, а с инвестициями, которые вернутся и подкрепятся процентами. Сначала человек дает какую-нибудь сумму денег на развитие бизнеса. Развившись и раскрутившись, этот бизнес способен будет отчислять требуемые проценты прибыли.

Kraudininvesting kichik biznes kompaniyalarida ko'plab kichik investorlarning mablag'larini jalb qi-

## И

lish, shuningdek, biznes loyihalarini boshlashning (startaplar) muqobil usuli. Kraudingvesting begʻaraz yordam bilan emas, balki qaytib keladigan va foizlar bilan qoʻllab-quvvatlanadigan investitsiyalar bilan shugʻullanadigan kraudfanding turi deb hisoblanishi mumkin. Avval bir kishi biznesni rivojlantirish uchun biror bir pul miqdorini beradi. Ushbu biznes rivojlanib va muvaffaqiyatli ishga tushirilib talab qilinadigan foyda foizlarini qaytarish imkoniga ega boʻladi.

Краудинвестинг кичик бизнес компанияларида кўплаб кичик инвесторларнинг маблағларини жалб қилиш, шунингдек, бизнес лойиҳаларини бошлашнинг (стартаплар) муқобил усули. Краудингвестинг беғараз ёрдам билан эмас, балки қайтиб келадиган ва фоизлар билан кўллаб-қувватланадиган инвестициялар билан шуғулланадиган краудфандинг тури деб ҳисобланиши мумкин. Аввал бир киши бизнесни ривожлантириш учун бирор бир пул миқдорини беради. Ушбу бизнес ривожланиб ва муваффақиятли ишга туширилиб талаб қилинадиган фойда фоизларини қайтариш имконига эга бўлади.

### **Краудлендинговые площадки**

**uz** - kraudlending maydonlar  
краудлендинг майдонлар

**en** - crowdlending platforms  
(P2P lending)

Новая альтернативная форма кредитования, осуществляемая на основе электронных платформ и использующая систему пиринговых сетей. Она базируется на принципах равноправия участников сделок и предполагает внедрение новой системы распределения и управления кредитными рисками. Использование платформы как основы проведения кредитования позволяет организаторам системы снизить инвестиционные затраты и облегчить контакт с потенциальными клиентами. Однако кредитование на основе платформ не лишено определенных недостатков и нуждается в серьезной доработке и модернизации, т.к. требуется уточнение определенных параметров стандартизации и цифровой идентификации клиентов, которые пока существенно различаются в правовых системах и сегментах кредитного рын-

## И

ка разных стран. В перспективе необходимо внести уточнения в механизм идентификации клиентов, а также уточнить права и обязанности всех участников подобных отношений.

Elektron platformalar asosida amalga oshiriladigan va piring tarmoqlari tizimidan foydalanadigan kreditlashning yangi muqobil shakli. Bitimlar ishtirokchilarining tengligi tamoyillariga asoslanadi hamda taqsimlash va kredit risklarini boshqarishning yangi tizimini joriy etishni koʻzda tutadi. Platformadan kreditlash uchun asos sifatida foydalanish tizim tashkilotchilariga investitsiya xarajatlarini kamaytirish va potensial mijozlar bilan aloqani osonlashtirish imkonini beradi. Biroq platformaga asoslangan kreditlash muayyan kamchiliklardan xoli emas va u jiddiy qayta ishlanishi va modernizatsiya qilinishi kerak, chunki turli davlatlar kredit bozorining huquqiy tizimlari va segmentlarida ancha farqlanadigan mijozlarni raqamli identifikatsiyalash va standartlashtirishning maʼlum parametrlarini aniqlashtirish talab etiladi. Kelgusida mijozlarni identifikatsiyalash mexanizmiga aniqliklar kiritish, shuningdek, bunday munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini aniqlashtirish lozim.

Электрон платформалар асосида амалга ошириладиган ва пиринг тармоқлари тизимидан фойдаланадиган кредитлашнинг янги муқобил шакли. Битимлар иштирокчиларининг тенглиги тамойилларига асосланади ҳамда тақсимлаш ва кредит рискларини бошқаришнинг янги тизimini жорий этишни кўзда тутди. Платформадан кредитлаш учун асос сифатида фойдаланиш тизим ташкilotчиларига инвестиция харажатларини камайтириш ва потенциал мижозлар билан алоқани оsonлаштириш имконини беради. Бироқ платформага асосланган кредитлаш муайян камчиликлардан холи эмас ва у жиддий қайта ишланиши ва модернизация қилиниши керак, чунки турли давлатлар кредит бозорининг ҳуқуқий тизимлари ва сегментларида

## И

анча фарқланадиган мижозларни рақамли идентификациялаш ва стандартлаштиришнинг маълум параметрларини аниқлаштириш талаб этилади. Келгусида мижозларни идентификациялаш механизмига аниқликлар киритиш, шунингдек, бундай муносабатлар барча иштирокчиларининг ҳуқуқ ва мажбуриятларини аниқлаштириш лозим.

### **Кредитные токены**

**uz** - kredit tokenlar

кредит токенлар

**en** - credit token

Токены, подтверждающие наличие права у владельца токена требовать возврат займа (или другого актива) в будущем, а также на получение дохода в форме начисляемых продуктовых токенов (процентов).

Token egasidan kelgusida qarzni (yoki boshqa aktivni) qaytarishni talab qilish, shuningdek, hisoblanadigan mahsulotli tokenlar (foizlar) shaklidagi daromadni olish huquqi mavjudligini tasdiqlaydigan tokenlar.

Токен эгасидан келгусида қарзни (ёки бошқа активни) қайтаришни талаб қилиш, шунингдек ҳисобланадиган маҳсулотли токенлар (фоизлар) шаклидаги даромадни олиш ҳуқуқи мавжудлигини тасдиқлайдиган токенлар.

### **Крипто-актив**

**uz** - kripto-aktiv

крипто-актив

**en** - cryptoactive

Совокупность записей в блокчейне, имеющая ценность и владельца.

Blokcheynda qiymati va egasi mavjud boʻlgan qaydlar yigʻindisi.

Блокчейнда қиймати ва эгаси мавжуд бўлган қайдлар йиғиндиси.

### **Криптовалюта**

**uz** - kriptoalyuta

криптовалюта

**en** - cryptocurrency

1. Вид цифрового финансового актива, создаваемый и учитываемый в распределенном реестре цифровых транзакций участниками этого реестра в соответствии с правилами ведения реестра цифровых транзакций.

2. Цифровые счётные единицы, учёт которых децентрализован.

Примечания

1. Функционирование данных систем происходит при помощи распределённой компьютерной сети. При этом ин-

## И

формация о транзакциях обычно не шифруется и доступна в открытом виде.

2. Для обеспечения неизменности базы цепочки блоков транзакций используются элементы криптографии (цифровая подпись на основе системы с открытым ключом, последовательное хеширование)

1. Raqamli tranzaksiyalar reyestrini yuritish qoidalariga muvofiq, ushbu reyestr ishtirokchilari tomonidan raqamli tranzaksiyalarning taqsimlangan reyestrda yaratilgan va hisobga olingan raqamli moliyaviy aktiv turi.

2. Hisobga olinishi markazlashtirilmagan, raqamli hisoblash birliklari.

Izohlar

1. Bunday tizimlarning ishlashi taqsimlangan kompyuter tarmog'i yordamida yuz beradi. Bunda tranzaksiyalar to'g'risidagi axborot shifrlanmaydi, undan ochiq ko'rinishda foydalanish mumkin.

2. Tranzaksiyalar bloklari zanjiri bazasining doimiyligini ta'minlash uchun, kriptografiya elementlari (ketma-ket xeshlash, ochiq kalitli tizim asosidagi raqamli imzo)dan foydalaniladi.

1. Raqamli tranzaksiyalar reyestrini yuritish qoidalariga muvofiq, ushbu reyestr ishtirokchilari tomonidan raqamli tranzaksiyalarning taqsimlangan reyestrda yaratilgan va hisobga olingan raqamli moliyaviy aktiv turi.

2. Hisobga olinishi markazlashtirilmagan, raqamli hisoblash birliklari.

Izohlar

1. Bunday tizimlarning ishlashi taqsimlangan kompyuter tarmog'i yordamida yuz beradi. Bunda tranzaksiyalar to'g'risidagi axborot, odatda, shifrlanmaydi va undan ochiq ko'rinishda foydalanish mumkin.

2. Tranzaksiyalar bloklari zanjiri bazasining doimiyligini ta'minlash uchun kriptografiya elementlari (ketma-ket xeshlash, ochiq kalitli tizim asosidagi raqamli imzo)dan foydalaniladi.

**Криптовалюта Bitcoin cash**  
**uz** - Bitcoin cash kriptovalyutasi  
Bitcoin cash  
криптовалютаси  
**en** - Bitcoin cash

Криптовалюта, которая родилась в результате разветвления биткоин-блокчейна 1 августа 2017 года из-за того, что сообщество не смогло договориться о методе увеличения пропускной способности сети основного биткоина. В Bitcoin

## И

Cash размер блока составляет 8 МВ, за счет чего транзакции здесь обрабатываются быстрее.

2017 yilning 1 avgustida, hamjamiyat asosiy bitkoin tarmog'ining o'tkazish qobiliyatini oshirish metodi to'g'risida kelisha olmaganligi tufayli, bitkoin-blokcheynning tarmoqlanib ketishi natijasida paydo bo'lgan kriptovalyuta. Bitcoin Cash da blok o'lchami 8 МВ ni tashkil etganligi hisobiga, bu yerda tranzaksiyalarga tezroq ishlov beriladi.

Ҳамжамият асосий биткоин тармоғининг ўтказиш қобилиятини ошириш методи тўғрисида келиша олмаганлиги тўғайли, 2017 йилнинг 1 августида биткоин-блокчейннинг тармоқланиб кетиши натижасида пайдо бўлган криптовалюта. Bitcoin Cash да блок ўлчами 8 МВ ни ташкил этганлиги ҳисобига, бу ерда транзакцияларга тезроқ ишлов берилади.

*Криптовалюта Dash*

**uz** - Dash kriptovalyutasi

Dash криптовалютаси

**en** - Dash

Открытая децентрализованная платёжная система в форме криптовалюты на базе блокчейна, использующая механизм моментальных и анонимных транзакций. С 28 января 2014 по 25 марта 2015 года криптовалюта носила имя Darkcoin. Примечание – Основные особенности криптовалюты Dash: транзакции анонимизированные благодаря механизму Darksend; используется комбинация из нескольких криптографических алгоритмов; майнинг Dash требует меньших, нежели у биткоина энергозатрат.

Blokcheyn asosidagi, oniy va anonim tranzaksiyalar mexanizmidan foydalanadigan, kriptovalyuta shaklidagi ochiq markazlashtirilmagan to'lov tizimi. Kriptovalyuta 2014 yilning 28 yanvaridan 2015 yilning 25 martiga qadar Darkcoin deb nomlangan.

Izoh – Dash kriptovalyutasining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: Darksend mexanizmi tufayli anonimlashtirilgan tranzaksiyalar; bir nechta kriptografik algoritmlarning kombinatsiyasi foydalaniladi; Dash mayning bitkoinga nisbatan kamroq energiya sarflaydi.

Блокчейн асосидаги, дарҳол ва аноним транзакциялар механизmidан фойдаланадиган, криптовалюта шаклидаги очик марказлаштирилмаган



## И

тўлов тизими. Криптовалюта 2014 йилнинг 28 январидан 2015 йилнинг 25 мартига қадар Darkcoin деб номланган.

Изоҳ – Dash криптовалютасининг асосий хусусиятлари қуйидагилардан иборат: Darksend механизми туфайли анонимлаштирилган транзакциялар; бир нечта криптографик алгоритмларнинг комбинациясидан фойдаланилади; Dash майнинг биткоинга нисбатан камроқ энергия сарфлайди.

### **Криптовалюта Decred**

**uz** - Decred kriptovalyutasi

Decred криптовалютаси

**en** - Decred

Автономная цифровая валюта, основанная на гибридной консенсусной системе. Она задумана как децентрализованная, стабильная и самоуправляющаяся валюта, работающая по правилам, которые устанавливают сами пользователи.

Gibrid konsensus tizimiga asoslangan mustaqil raqamli valyuta. Foydalanuvchilarning o‘zlari belgilagan qoidalarga muvofiq ishlaydigan markazlashtirilmagan, barqaror va o‘z-o‘zini boshqaradigan valyuta sifatida ishlab chiqilgan.

Гибрид консенсус тизимига асосланган мустақил рақамли валюта. Фойдаланувчиларнинг ўзлари белгилаган қоидаларга мувофиқ ишлайдиган марказлаштирилмаган, барқарор ва ўзини-ўзи бошқарадиган валюта сифатида ишлаб чиқилган.

### **Криптовалюта Dogecoin**

**uz** - Dogecoin kriptovalyutasi

Dogecoin криптовалютаси

**en** - Dogecoin

Криптовалюта, основанная на Litecoin и придуманная как шутка, тем не менее получила популярность для раздачи «чаевых» и мелких пожертвований. Названа в честь Интернет-мема Doge. Была представлена 8 декабря 2013 года. В отличие от других криптовалют Dogecoin имеет достаточно быстрый период изначального майнинга.

Litecoin ga asoslangan va hazil sifatida o‘ylab topilgan kriptovalyuta, shunga qaramay, «choychaqalar» va kichik xayr-ehsonlarni tarqatish uchun omma-viydashdi. Doge Internet-memi sharafiga nomlangan. 2013 yilning 8 dekabrda taqdim etilgan. Boshqa kriptovalyutalardan farqli o‘laroq, Dogecoin nisbatan yetarlicha tez boshlang‘ich ma‘ning davriga ega.

## И

Litecoin га асосланган ва ҳазил сифатида ўйлаб топилган криптовалюта, шунга қарамай, «чойчақалар» ва кичик хайр-эҳсонларни тарқатиш учун оммавийлашди. Doge Интернет-меми шарафига номланган. 2013 йилнинг 8 декабрида тақдим этилган. Бошқа крипто-валюталардан фарқли ўлароқ, Dogecoin нисбатан етарлича тез бошланғич майнинг даврига эга.

### Криптовалюта Ecoin

**uz** - Ecoin kriptoalyutasi

Ecoin криптовалютаси

**en** - Ecoin

Целостная платежная система, объединяющая большое количество пользователей, не имеющая привязки к единому владельцу или организатору.

Ко'п сонли фойдаланувчиларни бirlashtiradigan, yagona egasi yoki tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan yaxlit to'lov tizimi.

Кўп сонли фойдаланувчиларни бирлаштирадиган, ягона эгаси ёки ташкилотчига боғлиқ бўлмаган яхлит тўлов тизими.

### Криптовалюта Ether

**uz** - Ether kriptoalyutasi

Ether криптовалютаси

**en** - Ether

Минимальная единица Ethereum, второй по капитализации криптовалюты в мире после биткойна.

Dunyoda kriptoalyuta kapitalizatsiyasi bo'yicha bitkoinidan keyin ikkinchi o'rinda turadigan Ethereum eng kichik birligi.

Дунёда криптовалюта капитализацияси бўйича биткойндан кейин иккинчи ўринда турадиган Ethereum энг кичик бирлиги.

### Криптовалюта Ethereum

**uz** - Ethereum kriptoalyutasi

Ethereum криптовалютаси

**en** - Ethereum

Платформа для создания децентрализованных онлайн-сервисов на базе блокчейна (децентрализованных приложений), работающих на базе умных контрактов. Реализована как единая децентрализованная виртуальная машина. Был предложен основателем журнала Bitcoin Magazine Виталиком Бутериным в конце 2013 года, сеть была запущена 30 июля 2015 года

Aqlli shartnomalar asosida ishlaydigan blokcheyn (markazlashtirilmagan ilovalar) bazasida markaz-

## И

lashtirilmagan onlayn-xizmatlarni yaratish uchun mo'ljallangan platforma. Yagona markazlashtirilmagan virtual mashina sifatida amalga oshirilgan. 2013 yil oxirida Bitcoin Magazine jurnali asoschisi Vitalik Buterin tomonidan taklif etilgan, tarmoq 2015 yilning 30 iyulida ishga tushirilgan.

Ақли шартномалар асосида ишлайдиган блокчейн (марказлаштирилмаган иловалар) базасида марказлаштирилмаган онлайн-хизматларни яратиш учун мўлжалланган платформа. Ягона марказлаштирилмаган виртуал машина сифатида амалга оширилган. 2013 йил охирида Bitcoin Magazine журнали асосчиси Виталик Бутерин томонидан таклиф этилган, тармоқ 2015 йилнинг 30 июлида ишга туширилган.

### **Криптовалюта Ethereum classic**

**uz** - Ethereum classic  
kriptovalyutasi

Ethereum classic  
криптовалютаси

**en** - Ethereum classic

Блокчейн-криптоплатформа разработки децентрализованных приложений на базе смарт-контрактов с открытым исходным кодом. Представляет из себя децентрализованную Тьюринг-полную виртуальную машину, Виртуальную Машину Эфириума, которая может исполнять программы на публичных узлах сети.

Ochiq boshlang'ich kodli smart-shartnomalar asosida markazlashtirilmagan ilovalarni ishlab chiquvchi blok-cheyn-kriptoplatforma. Markazlashtirilmagan Tyuring-to'liq virtual mashinasi, tarmoq ochiq uzellaridagi dasturlarni bajaradigan Efirium Virtual Mashinasidan iborat.

Очиқ бошланғич кодли смарт-шартномалар асосида марказлаштирилмаган иловаларни ишлаб чиқувчи блокчейн-криптоплатформа. Марказлаштирилмаган Тьюринг-тўлиқ виртуал машинаси, тармоқнинг очиқ узелларидаги дастурларни бажара оладиган Эфириум Виртуал Машинасидан ташкил топган.

### **Криптовалюта Gatecoin**

**uz** - Gatecoin kriptovalyutasi  
Gatecoin криптовалютаси

Биржа криптовалют, которая зарегистрирована в Гонконге.

Примечание – Она была основана в июле 2013 года бывшим инвестиционным банкиром, Аурелиеном Менантом.

## И

**en - Gatecoin**

Gatecoin стала первой биржей, которая начала торговать токеном Эфириума в августе 2015 года.

Gonkongda ro‘yxatdan o‘tgan kriptovalyutalar birjasi.

Izoh – Unga 2013 yil iyul oyida sobiq investitsiya bankiri Aureliyen Menant tomonidan asos solingan. Gatecoin 2015 yilning avgust oyida Efirium tokeni bilan savdo qilishni boshlagan birinchi birjadir.

Гонконгда рўйхатдан ўтган криптовалюталар биржаси.

Изоҳ – Унга 2013 йил июль ойида собиқ инвестиция банкири Аурелиен Менант томонидан асос солинган. Gatecoin 2015 йилнинг август ойида Эфириум токени билан савдо қилишни бошлаган биринчи биржадир.

**Криптовалюта Litecoin**

**uz - Litecoin kriptovalyutasi**

Litecoin криптовалютаси

**en - Litecoin**

Одноранговая Интернет-валюта, которая включает в себя почти нулевые по стоимости платежи в любую точку мира.

Примечание – Эту криптовалюту также называют «цифровым серебром». Создал Чарли Ли. Одно из преимуществ этой криптовалюты заключается в легкости майнинга и обработке большего количества транзакций.

Dunyoning har qanday burchagida nolga teng qiymatdagi to‘lovlarni o‘z ichiga olgan bir rangdagi Internet-valyuta.

Izoh – Ushbu kriptovalyuta «raqamli kumush» deb ataladi. Charli Li tomonidan yaratilgan. Ushbu kriptovalyutaning afzalliklaridan biri, mayning yengilligida va ko‘p sonli tranzaksiyalarni qayta ishlash qulayligidadir.

Дунёнинг ҳар қандай бурчагида нолга тенг қийматдаги тўловларни ўз ичига олган бир рангдаги Интернет-валюта.

Изоҳ – Ушбу криптовалюта «рақамли кумуш» деб аталади. Чарли Ли томонидан яратилган. Ушбу криптовалюта-нинг афзалликларидан бири, майнинг енгиллигида ва кўп сонли транзакцияларни қайта ишлаш қулайлигидадир.

**Криптовалюта MinexCoin**

**uz - MinexCoin kriptovalyutasi**

MinexCoin

криптовалютаси

**en - MinexCoin; MNX**

Глобальная система для совершения платежей. Криптовалюта MNX имеет открытый исходный код, а главной особенностью криптовалюты MinexCoin является низкая волатильность. MinexCoin входит в одну из главных составных частей в экосистеме Minex.

## И

To'lovlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan global tizim. MNX kriptovalyutasi ochiq boshlang'ich kodga ega, MinexCoin kriptovalyutasining eng muhim xususiyati past o'zgaruvchanligi (volatilligi) hisoblanadi. Minexcoin Minex ekotizimining asosiy tarkibiy qismidan biriga kiradi.

Тўловларни амалга ошириш учун мўлжалланган глобал тизим. MNX кriptovalyutasi ochiq boshlang'ich kodga ega, MinexCoin kriptovalyutasining eng muhim xususiyati past o'zgaruvchanligi (volatilligi) hisoblanadi. Minexcoin Minex ekotizimining asosiy tarkibiy qismidan biriga kiradi.

### **Криптовалюта Monero**

**uz** - Monero kriptovalyutasi

Monero kriptovalyutasi

**en** - Monero

Созданная в 2014 году криптовалюта, которая использует протокол Crypto Note (он скрывает отправителя) для повышения анонимности транзакций.

Tranzaksiyalar anonimligini oshirish uchun Crypto Note protokolidan foydalanadigan (u jo'natuvchini yashiradi), 2014 yilda yaratilgan kriptovalyuta.

Транзакциялар анонимлигини ошириш учун Crypto Note протоколидан фойдаланадиган (у жўнатувчини яширади), 2014 йилда яратилган кriptovalyuta.

### **Криптовалюта OmiseGO**

**uz** - OmiseGO kriptovalyutasi

OmiseGO kriptovalyutasi

**en** - OmiseGO

Общедоступная финансовая технология, основанная на Ethereum и предназначенная для использования в обычных цифровых кошельках. Она позволяет объединить обмен валют и платежные услуги в режиме реального времени, которые находятся в разных юрисдикциях и организационных хранилищах как на фиатные, так и на децентрализованные криптовалюты. Технология разработана с целью ее легкого подключения к уже существующим действующим технологиям, использующихся разными организациями.

Ethereum ga asoslangan hamda oddiy raqamli kar-

## И

monlarda foydalanish uchun mo'ljallangan umum-foydalanadigan moliyaviy texnologiya. Bu texnologiya turli yurisdiksiyalarda va tashkiliy saqlash joylarida joylashgan fiat pullarni ham, markazlashtirilmagan kriptovalyutalarni ham real vaqt rejimida ayirboshlash va to'lov xizmatlarini birlashtirish imkonini beradi. Texnologiya turli tashkilotlar tomonidan qo'llanilayotgan mavjud amaldagi texnologiyalarga oson ulanish maqsadida ishlab chiqilgan.

Ethereum ga asoslangan hamda oddiy raqamli karmonlarda foydalaniш uchun m'ljallangan umumfoydalanadigan moliyaviy texnologiya. Bu texnologiya turli yurisdiksiyalarda va tashkiliy saqlash joylarida joylashgan fiat pullarni ham, markazlashtirilmagan kriptovalyutalarni ham real vaqt rejimida ayirboshlash va to'lov xizmatlarini birlashtirish imkonini beradi. Texnologiya turli tashkilotlar tomonidan qo'llanilayotgan mavjud amaldagi texnologiyalarga oson ulanish maqsadida ishlab chiqilgan.

### **Криптовалюта Peercoin**

**uz** - Peercoin kriptovalyutasi

Peercoin kriptovalyutasi

**en** - Peercoin

Третья по популярности валюта после биткойна и лайткойна. Использует алгоритм proof of stake (доказательства владения долей) наряду с proof of work (доказательства выполнения работы). Создана Сэном Кингом и Скоттом Надалем в 2012 году.

Mashhurligi bo'yicha bitkoin va laytkoindan keyin uchinchi o'rindagi valyuta. Proof of work (ishning bajarilishini isbotlash) algoritmi bilan bir qatorda proof of stake (aksiyalarga egalik qilish dalillari) algoritmidan foydalanadi. Sanni King va Skott Nadal tomonidan 2012 yilda yaratilgan.

Машхурлиги бўйича биткоин ва лайткоиндан кейин учинчи ўриндаги валюта. Proof of work (ишнинг бажарилишини исботлаш) алгоритми билан бир қаторда proof of stake (акцияларга эгаллик қилиш далиллари) алгоритмидан фойдаланади. Сэмм Кинг ва Скотт Надал томонидан 2012 йилда яратилган.

## И

**Криптовалюта Primecoin**  
**uz** - Primecoin kriptovalyutasi  
Primecoin  
криптовалютаси  
**en** - Primecoin

Одна из криптовалют (в переводе с английского означает «простая монета»), созданная Санны Кингом. Использует алгоритм доказательства выполнения работы при расчёте простых чисел. Появилась в 2013 году.

Sanni King tomonidan yaratilgan (ingliz tilidan tarjima qilinganda «oddiy tanga» degan ma’noni anglatadi) kriptovalyutalardan biri. Oddiy sonlarni hisoblashda ishning bajarilishini isbotlash algoritmidan foydalanadi. 2013 yilda paydo bo’lgan.

Санни Кинг томонидан яратилган (инглиз тилидан таржима қилинганда «оддий танга» деган маънони англатади) криптовалюталардан бири. Оддий сонларни ҳисоблашда ишнинг бажарилишини исботлаш алгоритмидан фойдаланади. 2013 йилда пайдо бўлган.

**Криптовалюта Stellar Lumens**  
**uz** - Stellar Lumens kriptovalyutasi  
Stellar Lumens  
криптовалютаси  
**en** - Stellar Lumens; XLM

Платформа, объединяющая банки, платежные системы и частных лиц.

Примечание – Интеграция платформы поможет быстро, дешево и безопасно переводить деньги даже за границу. Она была основана в начале 2014 года Джедом МакКалемом и Джойс Ким.

Banklar, to’lov tizimlari va jismoniy shaxslarni birlashtiruvchi platforma.

Izoh – Platformani integratsiyalash pullarni xatto chet ellarga ham tez, arzon va xavfsiz o’tkazishga yordam beradi. Unga 2014 yilning boshida Jed Mak Kaleb va Joys Kim tomonidan asos solingan.

Банклар, тўлов тизимлари ва жисмоний шахсларни бирлаштирувчи платформа.

Изоҳ – Платформани интеграциялаш пулларни хатто чет элларга ҳам тез, арзон ва хавфсиз ўтказишга ёрдам беради. Унга 2014 йилнинг бошида Жед МакКалев ва Жойс Ким томонидан асос солинган.

**Криптовалюта Storiqa**  
**uz** - Storiqa kriptovalyutasi  
Storiqa криптовалютаси  
**en** - Storiqa; STQ

Маркетплейс на блокчейн-технологии, который позволит мелкосерийным производителям начать онлайн-торговлю по всему миру в течение 1 часа. В январе 2018 года компания собрала 25 миллионов долларов на ICO. С помощью Storiqa Wallet пользователи смогут оплачивать товары не толь-

## И

ко фиатом (рубль, доллар и евро), криптовалютой (BTC, ETH) и собственным токеном STQ.

Mayda seriyali ishlab chiqaruvchilarga butun dunyo bo'yicha 1 soat ichida onlayn-savdoni boshlash imkonini beradigan blokcheyn-texnologiyalarga mo'ljallangan marketpleys. 2018 yilning yanvarida kompaniya ICO da 25 million dollar to'pladi. Foydalanuvchilar Storiqa Wallet yordamida tovarlar haqini faqat fiat (rubl, dollar va yevro) va kriptoalyuta (BTC, ETH) bilan emas, balki shaxsiy token STQ bilan ham to'lashlari mumkin bo'ladi.

Майда серияли ишлаб чиқарувчиларга бутун дунё бўйича 1 соат ичида онлайн-савдони бошлаш имконини берадиган блокчейн-технологиялар учун мўлжалланган маркетплейс. 2018 йилнинг январида компания ICO да 25 миллион доллар тўплади. Фойдаланувчилар Storiqa Wallet ёрдамида товарлар ҳақини фақат фиат (рубль, доллар ва евро) ва криптовалюта (BTC, ETH) билан эмас, балки шахсий токен STQ билан ҳам тўлашлари мумкин бўлади.

### Криптовалютная биржа

**uz** - kriptoalyuta birjasi

криптовалюта биржаси

**en** - poloniex

1. Организация, предоставляющая электронную площадку для обмена, покупки и продажи крипто-активов.

2. Биржа, основанная в США в 2014 году. Это специальная платформа, которая используется пользователями для торговли, обмена одних цифровых монет на другие, а также их обмена на фиатные деньги.

3. Интернет-ресурс, позволяющий покупать/продавать электронные деньги в режиме онлайн.

1. Kripto-aktivlarni ayirboshlash, sotib olish va sotish uchun elektron maydoncha taqdim etadigan tashkilot.

2. 2014 yilda AQShda tashkil qilingan birja. Bu foydalanuvchilar tomonidan savdo-sotiq ishlarida biror raqamli tangalarni boshqasiga, shuningdek, ularni fiat pullarga almashish uchun foydalaniladigan maxsus platforma.



## И

3. Elektron pullarni onlayn rejimida sotib olish/sotish imkonini beradigan Internet-resurs.

1. Кripto-активларни айирбошлаш, сотиб олиш ва сотиш учун электрон майдончани тақдим этадиган ташкилот.

2. 2014 йилда АҚШда ташкил қилинган биржа. Бу фойдаланувчилар томонидан савдо-сотик ишла-рида бирор рақамли тангаларни бошқасига, шу-нингдек, уларни фиат пулларга алмашиш учун фойдаланиладиган махсус платформа.

3. Электрон пулларни онлайн режимида сотиб олиш/сотиш имконини берадиган Интернет-ресурс.

### **Криптовалютный**

**кошелек**

**uz** - kriptoalyutali karmon

криптовалютали кармон

**en** - cryptocurrency wallet

Специальная программа, позволяющая ее владельцу получать доступ к средствам, записанным в блокчейне.

Egasiga blokcheynda yozilgan mablag'lardan erkin foydalana olish imkonini beradigan maxsus dastur.

Эгасига блокчейнда ёзилган маблағлардан эркин фойдалана олиш имконини берадиган махсус дастур.

### **Криптография**

**uz** - kriptografiya

криптография

**en** - cryptography

1. Дисциплина, охватывающая принципы, средства и методы преобразования данных для сокрытия их семантического содержания, предотвращения их несанкционированного использования или необнаруживаемой модификации.

2. Наука о методах обеспечения секретности и/или подлинности данных при их передаче по каналам телекоммуникаций или хранения.

3. Принципы, средства и методы преобразования информации к непонятному виду, а также восстановления информации к виду, пригодному для восприятия.

1. Ma'lumotlarning semantik mazmunini yashirish, ulardan ruxsat etilmagan tarzda foydalanish yoki ularning aniqlab bo'lmaydigan o'zgartirilishini oldini olish maqsadida, ma'lumotlarni o'zgartirish prin-

## И

siplari, vositalari va metodlarini, qamrab oluvchi fan.

2. Ma'lumotlarni telekommunikatsiyalar kanallari orqali uzatishda yoki saqlashda, ularning maxfiyligi va/yoki haqiqiyiligini ta'minlash metodlari haqidagi fan.

3. Axborotni tushunarsiz ko'rinishga keltirish prinsiplari, vositalari va metodlari, shuningdek, uni qabul qilish uchun yaroqli ko'rinishga qayta tiklash.

1. Ma'lumotlarнинг семантик мазмунини яшириш, улардан рухсат этилмаган тарзда фойдаланиш ёки уларнинг аниқлаб бўлмайдиган ўзгартирилишини олдини олиш мақсадида, ма'lумотларни ўзгартириш принциплари, воситалари ва методларини, қамраб олувчи фан.

2. Ma'lumotларни телекоммуникациялар каналлари орқали узатишда ёки сақлашда, уларнинг махфийлиги ва/ёки ҳақиқийлигини таъминлаш методлари ҳақидаги фан.

3. Аxbоротни тушунарсиз кўринишга келтириш принциплари, воситалари ва методлари, шунингдек, уни қабул қилиш учун яроқли кўринишга қайта тиклаш.

**Криптоэкономика**  
**uz** - kriptoiqtisodiyot  
криптоиқтисодиёт  
**en** - cryptoeconomics

Интегральная схема, созданная для решения конкретной задачи, например «добычи» (майнинга) биткоинов. Потребляет значительно меньше энергии, чем видеокарты, и имеет более высокую эффективность (добывает монеты быстрее). В основном используется для майнинга в промышленных масштабах.

Муайян вазифани ечиш, масалан биткойнлар (майнинг)ни «олиш» учун тuzилган интеграл схема. Videokartаларга nisbatan energiyani kam sarflab, nisbatan yuqori samaradorlikka ega bo'ladi (pullarni tezroq topadi). Asosan sanoat miqyosidagi mayning uchun foydalaniladi.

Муайян вазифани ечиш, масалан биткойнлар (майнинг)ни «олиш» учун тuzилган интеграл схема. Videokartаларга nisbatan energiyani kam sarflab, nisbatan yuqori samaradorlikka ega bo'ladi.

## И

бўлади (пулларни тезроқ топади). Асосан sanoat миқёсидаги майнинг учун фойдаланилади.

## Л

### Лицензионные токены

**uz** - litsenzion tokenlar

лицензион токенлар

**en** - license tokens

Токены, предоставляющие право на получение части дохода от использования объекта интеллектуальной собственности, программного обеспечения.

*Пример – токен Bloquid [BQT] предоставляет право на получение части дохода от использования программных продуктов Bloquid.*

Dasturiy ta'minot, intellektual mulk obyektlaridan foydalanishdan keladigan daromadning bir qismini olish huquqini taqdim etuvchi tokenlar.

*Misol – Bloquid [BQT] tokeni Bloquid dasturiy ta'minotini foydalanishdan tushadigan daromadning bir qismini olish huquqini taqdim etadi.*

Дастурий таъминот, интеллектуал мулк объектларидан фойдаланишдан келадиган даромаднинг бир қисмини олиш ҳуқуқини тақдим этувчи токенлар.

*Мисол – Bloquid [BQT] токени Bloquid дастурий таъминотини фойдаланишдан тушадиган даромаднинг бир қисмини олиш ҳуқуқини тақдим этади.*

## М

### Майнинг

**uz** - mayning

майнинг

**en** - mining

1. Предпринимательская деятельность, направленная на создание криптовалюты и/или валидацию с целью получения вознаграждения в виде криптовалюты.

2. Деятельность по поддержанию распределенной платформы и созданию новых блоков с возможностью получить вознаграждение в форме новых единиц и комиссионных сборов в различных криптовалютах, в частности в биткоинах.

1. Kriptovalyuta ko'rinishida mukofot olish maqsadida kriptovalyutani yaratish va/yoki validatsiyalashga yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyati.

2. Turli kriptovalyutalarda, xususan bitkoinda komis-

## М

sion yigʻimlar va yangi birliklar shaklida mukofot olish imkoniyati bilan taqsimlangan platformani qoʻllab-quvvatlash va yangi bloklarni yaratish boʻyicha faoliyat.

1. Криптовалюта кўринишида мукофот олиш мақсадида криптовалюта яратиш ва/ёки валидациялашга йўналтирилган тадбиркорлик фаолияти.

2. Турли криптовалюталарда, хусусан биткоинда комиссия йиғимлар ва янги birliklar shaklida мукофот олиш имконияти билан тақсимланган платформани қўллаб-қувватлаш ва янги блокларни яратиш бўйича фаолият.

### Материальный носитель

**uz** - moddiy tashuvchi

моддий ташувчи

**en** - material carrier

Магнитный, оптический, лазерный или другой носитель электронной информации, посредством которого осуществляется создание, фиксирование, передача, получение, хранение или использование иным образом цифровых продуктов.

Raqamli mahsulotlarni yaratish, qayd etish, uzatish, qabul qilish, saqlash yoki boshqa tarzda ishlatish uchun qoʻllaniladigan magnit, optik, lazerli yoki boshqa elektron axborot tashuvchi.

Рақамли маҳсулотларни яратиш, қайд этиш, узатиш, қабул қилиш, сақлаш ёки бошқа тарзда ишлатиш учун қўлланиладиган магнит, оптик, лазерли ёки бошқа электрон ахборот ташувчи.

### Машинно-ориентированная связь

**uz** - mashinaga moʻljallangan aloqa

машинага мўлжалланган

алоқа

**en** - machine-oriented communication

Форма передачи данных между двумя или более объектами, при которой как минимум одному объекту не требуется в обязательном порядке вмешательство человека в процесс связи.

Ikki yoki undan koʻp obyekt oʻrtasida maʼlumotlar uzatish shakli, bunda kamida bitta obyektga odamning aloqa jarayoniga majburiy tartibda aralashishi talab etilmaydi.

Икки ёки undan кўп объект ўртасида маълумотлар узатиш шакли, бунда камида битта объектга одамнинг алоқа жараёнига мажбурий тартибда

## М

### **Межмашинная коммуникация**

**uz** - mashinalararo  
kommunikatsiya

машиналараро  
коммуникация  
**en** - machine-to-machine  
communication; M2M

аралашиши талаб этилмайди.

Общее название технологий, которые позволяют машинам обмениваться информацией друг с другом, или же передавать её в одностороннем порядке. Это могут быть проводные и беспроводные системы мониторинга датчиков или каких-либо параметров устройств (температура, уровень запасов, местоположение и т.д.).

Mashinalarga biri-biri bilan axborot almashish yoki uni bir tomonlama tartibda uzatish imkonini beradigan texnologiyalarning umumiy nomi. Bu, qurilmalar qandaydir parametrlarini (temperatura, zaxiralar darajasi, joylashgan yer) yoki datchiklarini simli va simsiz monitoring qilish tizimlari bo'lishi mumkin.

Машиналарга бири-бири билан ахборот алмашиш ёки уни бир томонлама тартибда узатиш имконини берадиган технологияларнинг умумий номи. Бу қурилмалар қандайдир параметрларини (температура, захиралар даражаси, жойлашган ер) ёки датчикларини симли ва симсиз мониторинг қилиш тизимлари бўлиши мумкин.

### **Мобильные технологии**

**uz** - mobil texnologiyalar  
мобил технологиялар  
**en** - mobile technology

Комплекс методов и решений (приложений, устройств), позволяющих достигать независимости пользователя от стационарных вычислительных устройств при решении поставленных задач.

Foydalanuvchining, qo'yilgan vazifalarni hal etishda, statsionar hisoblash qurilmalaridan mustaqillikka erishish imkonini beradigan metodlar va qarorlar (ilovalar, qurilmalar) kompleksi.

Фойдаланувчининг, қўйилган вазифаларни ҳал этишда, стационар ҳисоблаш қурилмаларидан мустақилликка эришиш имконини берадиган методлар ва қарорлар (иловалар, қурилмалар) комплекси.

### **Мэйнфрейм**

Вычислительные машины большого размера, об-

## М

**uz** - meynfreym  
мэйнфрейм  
**en** - mainframe

ладающие памятью очень большой ёмкости, обеспечивающие сверхбыструю обработку данных. Используются для очень крупных коммерческих и научных приложений.

Ma'lumotlar juda katta tezlikda qayta ishlanishini ta'minlaydigan, juda katta hajmdagi хотирага эга бо'лган, катта о'лчамдаги hisoblash mashinalari. Juda yirik tijorat va ilmiy ilovalar uchun foydalaniladi.

Маълумотлар жуда катта тезликда қайта ишланишини таъминлайдиган, жуда катта ҳажмдаги хотирага эга бўлган, катта ўлчамдаги ҳисоблаш машиналари. Жуда йирик тижорат ва илмий иловалар учун фойдаланилади.

## Н

**Наличные электронные**  
**uz** - elektron naqd pullar  
электрон нақд пуллар  
**en** - electronic money (cash)

Денежные обязательства на предъявителя, эмитированные банковской или иной структурой в форме электронных (цифровых) сертификатов, которые могут быть использованы для расчетов, в том числе расчетов, осуществляемых с использованием сети Интернет.

Примечание – Банковские гарантии электронных наличных состоят в их обеспечении обычными денежными средствами в момент предъявления обязательства его эмитенту.

Hisob-kitoblar uchun, shu jumladan Internet tarmog'idan foydalanib amalga oshiriladigan tarmoq hisob-kitoblari uchun foydalaniladigan, bank yoki boshqa tuzilma tomonidan elektron (raqamli) sertifikatlar shaklida emissiya qilingan, ko'rsatuvchiga to'lanadigan pul majburiyatlari.

Izoh – Elektron naqd pullarning bank kafolatlari, majburiyatni uning emitentiga taqdim etish paytida oddiy pul mablag'lari bilan taminlashdan iborat.

Ҳисоб-китоблар учун, шу жумладан Интернет тармоғидан фойдаланиб амалга ошириладиган ҳисоб-китоблар учун фойдаланиладиган, банк ёки бошқа тuzилма томонидан электрон

## Н

(рақамли) сертификатлар шаклида эмиссия қилинган, кўрсатувчига тўланадиган пул мажбуриятлари.

Изоҳ – Электрон нақд пулларнинг банк кафолатлари, мажбуриятни унинг эмитентига тақдим этиш пайтида оддий пул маблағлари билан таъминлашдан иборат.

### Неймкойн

**uz** - neumkoin

неймкойн

**en** - namecoin

Система хранения произвольных комбинаций вида «имя-значение», основанная на технологии Bitcoin, наиболее известным применением которой является система альтернативных корневых серверов системы доменных имен.

Bitcoin texnologiyasiga asoslangan, «nom-qiyamat» turidagi ixtiyoriy kombinatsiyalarni saqlash tizimi, uning eng ma'lum qo'llanilishi domen nomlari tizimini alternativ tub serverlar tizimi hisoblanadi.

Bitcoin texnologiyasiga asoslangan, «nom-qiyamat» turidagi ixtiyoriy kombinatsiyalarni saqlash tizimi, uning eng ma'lum qo'llanilishi domen nomlari tizimini alternativ tub serverlar tizimi hisoblanadi.

### Необанки

**uz** - neobanklar

необанклар

**en** - neobanks

Стартапы, предоставляющие некоторые банковские услуги исключительно через мобильные приложения и веб-сайты.

Примечание – Обычно это банки без отделений, они активно используют в своей работе возможности удаленной идентификации личности, онлайн-платежей и других инструментов из области финтех. Помимо традиционных услуг – открытия счетов и депозитов, выдачи кредитов – необанки предлагают своим клиентам услуги по обороту криптовалют, P2P-кредитования, сервисы роботизированного управления активами и другие формы обслуживания.

Ba'zi bank xizmatlarini faqat mobil ilovalar va veb-saytlar orqali taqdim etadigan startaplar.

Izoh – Odatda, bu banklar bo'linmalarsiz bo'lib, o'z faoliyatlari shaxsni uzoqdan identifikatsiya qilish, onlayn-to'lovlar va fintex sohasidagi boshqa vositalar imkoniyatlaridan keng foydalanadilar. Hisob-kitoblar va depozitlarni ochish, kreditlar berish kabi an'anaviy xizmatlardan tashqari, neobanklar o'z mijozlariga kriptovalyutalar aylanmasi, P2P-kreditlash, aktivlarni robotlashtirilgan boshqarish va boshqa xizmat

## Н

ko'rsatish shakllarini taqdim etadilar.

Баъзи банк хизматларини фақат мобил иловалар ва веб-сайтлар орқали тақдим этадиган стартаплар.

Изоҳ – Одатда, бу банклар бўлинмаларсиз бўлиб, ўз фаолиятларида шахсни узоқдан идентификация қилиш, онлайн-тўловлар ва финтех соҳасидаги бошқа воситалар имкониятларидан кенг фойдаланадилар. Ҳисоб-китоблар ва депозитларни очиш, кредитлар бериш каби анъанавий хизматлардан ташқари, необанклар ўз мижозларига криптовалюталар айланмаси, P2P-кредитлаш, активларни роботлаштирилган бошқариш ва бошқа хизмат кўрсатиш шакллари тақдим этадилар.

### Необеспеченные криптовалюты

**uz** - ta'minlanmagan kriptovalyutalar

таъминланмаган

криптовалюталар

**en** - unsecured crypto currency

Криптовалюты, не обеспеченные реальными активами их эмитента.

*Пример – Bitcoin [BTC] – первая и получившая широкую известность криптовалюта, не обеспеченная материальными активами или обязательствами.*

О'z emitentlarining real aktivlari bilan ta'minlanmagan kriptovalyutalar.

*Misol – Bitcoin [BTC] – moddiy aktivlar yoki majburiyatlar bilan ta'minlanmagan, birinchi va keng ommalashgan kriptovalyuta.*

Ўз эмитентларининг реал активлари билан таъминланмаган криптовалюталар.

*Мисол – Bitcoin [BTC] – моддий активлар ёки мажбуриятлар билан таъминланмаган, биринчи ва кенг оммалашган криптовалюта.*

### Необеспеченные токены

**uz** - ta'minlanmagan tokenlar

таъминланмаган токенлар

**en** - unsecured tokens

Токены, не обеспеченные реальными активами их эмитента и/или удостоверяющие право исключительно на цифровые объекты, представляющие ценность.

О'z emitentlarining real aktivlari bilan ta'minlanmagan va/yoki faqat qimmatga ega raqamli obyektlarga bo'lgan huquqini tasdiqlaydigan tokenlar.

Ўз эмитентларининг реал активлари билан таъминланмаган ва/ёки фақат қимматга эга рақамли объектларга бўлган ҳуқуқини тасдиқлайдиган токенлар.



## Н

**Новая экономика;  
неоэко-номика**  
**uz** - yangi iqtisodiyot;  
neoiqtisodiyot  
янги иқтисодиёт;  
неоиктисодиёт  
**en** - new economy

Экономическая инфраструктура, характеризующаяся преобладанием неосязаемых активов (услуг и технологий), и снижением роли осязаемых активов.

Sezilmas aktivlar (xizmatlar va texnologiyalar) ustun-ligi va sezilarli aktivlar rolining pasayishi bilan tavsiflanadigan iqtisodiy infratuzilma.

Сезилмас активлар (хизматлар ва технологиялар) устунлиги ва сезиларли активлар ролининг пасайиши билан тавсифланадиган иқтисодий инфратузилма.

**Нода**  
**uz** - noda  
нода  
**en** - node

Компьютер, который был подключен к сети блокчейн. С его помощью клиент проверяет и проводит транзакции. Ему также достается копия блокчейн, которая автоматически загружается и становится частью сети. Вместе они образуют крупную сеть второго уровня.

Blokcheyn tarmog'iga ulangan kompyuter. Uning yordami bilan mijoz tranzaksiyalarni tekshiradi va o'tkazadi. Bundan tashqari, u avtomatik ravishda yuklab olinadigan va tarmoqning bir qismi bo'lgan blokcheynning nusxasini oladi. Birgalikda, ular ikkinchi darajali yirik tarmoqni tashkil qiladi.

Блокчейн тармоғига уланган компьютер. Унинг ёрдами билан мижоз транзакцияларни текширади ва ўтказди. Бундан ташқари, у автоматик равишда юклаб олинадиган ва тармоқнинг бир қисми бўлган блокчейннинг нусхасини олади. Биргаликда, улар иккинчи даражали йирик тармоқни ташкил қилади.

## О

**Обеспеченные  
криптовалюты**  
**uz** - ta'minlangan  
kriptoalyutalar  
таъминланган

Государственные или частные криптовалюты, обеспеченные активами эмитента и обязательные к приему эмитентом.

Emitent aktivlari bilan ta'minlangan va emitent

## О

криптовалюталар  
**en** - secured cryptocurrency

tomonidan qabul qilinishi majburiy bo'lgan davlat yoki xususiy kriptovalyutalari.

Эмитент активлари билан таъминланган ва эмитент томонидан қабул қилиниши мажбурий бўлган давлат ёки хусусий криптовалюталари.

**Облачные вычисления**  
**uz** - bulutli hisoblashlar  
булутли ҳисоблашлар  
**en** - cloud computing

1. Информационно-технологическая концепция, подразумевающая обеспечение повсеместного и удобного сетевого доступа потребованию к общему объему конфигурируемых вычислительных ресурсов, которые могут быть оперативно предоставлены и освобождены с минимальными эксплуатационными затратами или обращениями к провайдеру. Примерами ресурсов могут являться сети передачи данных, серверы, устройства хранения данных, приложения сервисы – как вместе, так и по отдельности. Иначе говоря, облачные технологии – это технологии обработки данных, в которых компьютерные ресурсы предоставляются Интернет-пользователю по запросу как онлайн-сервис.

2. Метод, который дает возможность бизнесу и частным пользователям запускать приложения, хранить данные и пользоваться сервисами без необходимости покупать собственные сервера, системы хранения и прочее оборудование. Все что нужно – это устройство с экраном, подключенное к Интернету, и браузер. Даже самые мощные программы и бизнес-приложения могут исполняться на простых устройствах – они выполняются на серверах в облаке, а пользователю передаются результаты их работы.

Примечание – Облака дают целый ряд преимуществ, как эластичность, экономичность, доступность и т.д.

1. Talabga ko'ra, minimal ekspluatatsion xarajatlar yoki provayderga murojaatlar bilan operativ tarzda taqdim etiladigan va qaytarib olinadigan shakllantiriladigan hisoblash resurslarining umumiy hajmidan hamma joydan va qulay tarmoq orqali foydalana olishlarini nazarda tutuvchi axborot-texnologik konsepsiya. Resurslarga ma'lumotlar uzatish tarmoqlari, serverlar, ma'lumotlarni saqlash qurilmalari,

## O

ilovalar va servislar ham birgalikda, ham alohida-alohida misol bo‘lishi mumkin. Boshqacha aytganda, bulutli texnologiyalar – bu Internet-foydalanuvchiga, uning so‘roviga ko‘ra, kompyuter resurslari onlayn-servis sifatida taqdim etiladigan ma’lumotlarga ishlov berish texnologiyalaridir.

2. Biznesga va xususiy foydalanuvchilarga xususiy serverlar, saqlash tizimlari boshqa qurilmalarni sotib olmasdan, ilovalarni ishga tushirish, ma’lumotlarni saqlash va servislardan foydalanish imkonini beradigan metod. Kerak bo‘ladigan narsalar – bu Internetga ulangan ekranli qurilma va brauzer, xolos. Eng kuchli dasturlar va biznes ilovalardan ham oddiy qurilmalarda foydalanish mumkin – ular bulutli serverlarda bajariladi, foydalanuvchiga esa ishlarning natijasi topshiriladi.

Izoh – Bulutlar elastiklik, tejamkorlik, qulaylik va sh.k. bir qator ustunliklarga ega.

1. Талабга кўра минимал эксплуатацион харажатлар ёки провайдерга мурожаатлар билан оператив тарзда тақдим этиладиган ва қайтариб олинadиган шакллантириладиган ҳисоблаш ресурсларининг умумий ҳажмидан ҳамма жойдан ва қулай тармоқ орқали фойдалана олишларини назарда тутувчи ахборот-технологик концепция.

Ресурсларга маълумотлар узатиш тармоқлари, серверлар, маълумотларни сақлаш қурилмалари, иловалар ва сервислар биргаликда ҳамда алоҳида-алоҳида мисол бўлиши мумкин. Бошқача айтганда, булутли технологиялар – бу Интернет-foydalanuvchiga унинг сўровига кўра компьютер ресурслари онлайн-сервис сифатида тақдим этиладиган маълумотларга ишлов бериш технологияларидир.

2. Бизнесга ва хусусий фойдаланувчиларга ўз серверлари, сақлаш тизимлари бошқа қурилмаларни сотиб олмасдан, иловаларни ишга тушириш, маълумотларни сақлаш ва сервислардан фойдаланиш имконини берадиган метод. Керак бўладиган нарсалар – бу Интернетга уланган экранли қурилма ва браузер, холос. Энг кучли дастурлар ва бизнес иловалардан ҳам оддий

## О

қурилмаларда фойдаланиш мумкин – улар булутли серверларда бажарилади, фойдаланувчига эса ишларнинг натижаси топширилади.

Изоҳ – Булутлар эластиклик, тежамкорлик, қулайлик, ва ш.к. бир қатор устунликларга эга.

### **Облачные сервисы**

**uz** - bulutli xizmatlar

булутли хизматлар

**en** - cloud services

Технологии распределенной обработки данных, в которых компьютерные ресурсы и мощности предоставляются пользователю как Интернет-сервис.

Kompyuter resurslari va quvvatlari foydalanuvchiga Internet xizmatlari kabi taqdim etiladigan ma'lumotlarga taqsimlangan ishlov berish texnologiyalari.

Компьютер ресурслари ва қувватлари фойдаланувчига Интернет хизматлари каби тақдим этиладиган маълумотларга тақсимланган ишлов бериш технологиялари.

### **Обмен документами**

**электронный**

**uz** - elektron hujjat almashish

электрон ҳужжат

алмашиш

**en** - electronic document

interchange

Обмен данными и документами в электронном виде между компьютерными системами в соответствии с типовыми правилами.

Namunaviy qoidalarga muvofiq, kompyuter tizimlari o'rtasida ma'lumotlar va hujjatlarni elektron ko'rinishda almashish.

Намунавий қоидаларга мувофиқ, компьютер тизимлари ўртасида маълумотлар ва ҳужжатларни электрон кўринишда алмашиш.

### **Обработка электронного платежного документа**

**uz** - elektron to'lov hujjatini qayta ishlash

электрон тўлов

ҳужжати қайта ишлаш

**en** - processing of the electronic

payment document

Вся совокупность операций – сбор, ввод, запись, преобразование, считывание, хранение, уничтожение, регистрация электронного платежного документа.

Elektron to'lov hujjatini to'plash, kiritish, yozish, o'zgartirish, o'qish, saqlash, yo'q qilish, qayd etish kabi operatsiyalar majmui.

Электрон тўлов ҳужжати тўплаш, киритиш, ёзиш, ўзгартириш, ўқиш, сақлаш, йўқ қилиш,

## О

**Односторонняя  
аутентификация**  
**uz** - bir tomonlama  
autentifikatsiya  
бир томонлама  
аутентификация  
**en** - unilateral authentication

қайд этиш каби операциялар мажмуи.

Аутентификация сторон, при которой одна из сторон проверяет, что взаимодействующая с ней сторона – именно та, за которую себя выдает. Односторонняя аутентификация реализуется протоколом идентификации с двумя участниками: доказывающим и проверяющим.

Tomonlarni autentifikatsiya qilish, bunda tomonlardan biri u bilan hamkorlik qiladigan tomon aynan o'sha ekanligini tekshiradi. Bir tomonlama autentifikatsiya ikki qatnashchi: isbotlovchi va tekshiruvchidan iborat bo'lgan identifikatsiyalash protokoli orqali amalga oshiriladi.

Томонларни аутентификация қилиш, бунда томонлардан бири, у билан ҳамкорлик қиладиган томон айнан ўша эканлигини текширади. Бир томонлама аутентификация икки қатнашчи: исботловчи ва текширувчидан иборат бўлган идентификациялаш протоколи орқали амалга оширилади.

**Оmnиканальность**  
**uz** - omnikanallik  
омниканаллик  
**en** - omnichannel

Розничная модель, которая объединяет различные способы платежей для клиентов – онлайн, мобайл, физические магазины. Омниканальный банкинг, например, означает продажу банковских услуг с помощью всех трех способов.

Mijozlar uchun onlayn, mobayl, jismoniy do'kon kabi turli to'lov usullarini umumlashtiradigan chakana model. Misol uchun, omnikanalli banking bank xizmatlarini yuqoridagi uch usul yordamida sotishni anglatadi.

Мижозлар учун онлайн, мобайл, жисмоний дўкон каби турли тўлов усулларини умумлаштирадиган чакана модель. Мисол учун, омниканалли банкинг банк хизматларини юқоридаги уч усул ёрдамида сотишни англатади.

**Онлайн-закупки (продажи)  
товаров, работ, услуг орга-**

Закупки (продажи) товаров, работ, услуг по заказам, переданным (полученным) посредством спе-

## О

### **низациями**

**uz** - tashkilotlar tomonidan tovarlar, ishlar, xizmatlarni onlayn xarid qilish (sotish)

ташкilotлар томонидан товарлар, ишлар, хизматларни онлайн харид қилиш (сотиш)

**en** - online purchases (sales) of goods, works, services by organizations

циальных форм, размещенных на веб-сайте или в экстранете, с использованием систем автоматизированного обмена сообщениями между организациями (EDI-систем). Не учитываются закупки (продажи) по заказам, переданным по телефону, факсу, электронной почте.

Tashkilotlar o'rtasida avtomatlashtirilgan xabarlar almashish tizimlaridan (EDI-tizimlar) foydalangan holda veb-saytda yoki ekstranetda joylashgan maxsus shakllar orqali yuborilgan (olingan) buyurtma bo'yicha tovarlar, ishlar, xizmatlarni xarid qilish (sotish). Telefon, faks, elektron pochta orqali yuborilgan buyurtmalar bo'yicha xaridlar (sotish) hisobga olinmaydi.

Ташкilotлар ўртасида автоматлаштирилган хабарлар алмашиш тизимларидан (EDI-тизимлар) фойдаланган ҳолда веб-сайтда ёки экстранетда жойлашган махсус шакллар орқали юборилган (олинган) буюртма бўйича товарлар, ишлар, хизматларни харид қилиш (сотиш). Телефон, факс, электрон почта орқали юборилган буюртмалар бўйича харидлар (сотишлар) ҳисобга олинмайди.

### **Оператор обмена цифровых финансовых активов**

**uz** - raqamli moliyaviy aktivlarni almashish operatori

рақамли молиявий активларни алмашиш оператори

**en** - digital financial asset operator

Юридическое лицо, осуществляющее сделки по обмену цифровых финансовых активов одного вида на цифровые финансовые активы другого вида и/или обмену цифровых финансовых активов на сум или иностранную валюту.

Bir turdagi raqamli moliyaviy aktivlarni boshqa turdagi raqamli moliyaviy aktivlarga almashish yoki raqamli moliyaviy aktivlarni so'mga yoki chet el valyutasiga almashish bo'yicha bitimlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

Бир турдаги рақамли молиявий активларни бошқа турдаги рақамли молиявий активларга алмашиш ёки рақамли молиявий активларни сўмга ёки чет эл валютасига алмашиш бўйича битимларни амалга оширувчи юридик шахс.

## О

### **Оператор телекоммуникаций**

**uz** - telekommunikatsiyalar operatori

телекоммуникациялар оператори

**en** - telecommunications operator

Юридическое лицо, владеющее сетью телекоммуникаций на праве собственности или других вещных правах, обеспечивающее ее функционирование, развитие и оказывающее услуги телекоммуникаций.

Mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar asosida telekommunikatsiyalar tarmog'iga ega bo'lgan, uning ishlashi, rivojlanishini ta'minlovchi va telekommuni-katsiyalar xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

### **Операции без присутствия карты**

**uz** - kartalar ishtirokisiz

bajariladigan operatsiyalar

карталар иштирокисиз бажариладиган операциялар

**en** - cardholder not present; CNP

Мулк ҳуқуқи ёки бошқа ашёвий ҳуқуқлар асосида телекоммуникациялар тармоғига эга бўлган, унинг ишлаши, ривожланишини таъминловчи ва телекоммуникациялар хизматларини кўрсатувчи юридик шахс.

Обозначение транзакции по пластиковой карте, во время совершения которой держатель карты не присутствует лично в торговом предприятии, а сообщает реквизиты пластиковой карты заочно (письмом, по телефону, компьютерной сети и т.п.).

Plastik karta tranzaksiyasining belgilanishi, uni amal-ga oshirishda karta egasi savdo korxonasida shaxsan ishtirok etmaydi, lekin plastik karta rekvizitlarini sirtdan turib (xat, telefon, kompyuter tarmog'i va h.k.lar orqali) aytadi.

Пластик карта транзакциясининг белгиланиши, уни амалга оширишда карта эгаси савдо корхонасида шахсан иштирок этмайди, лекин пластик кар-та реkvизитларини сирtdан туриб (хат, телефон, компьютер тармоғи ва х.к.лар орқали) айтади.

### **Оптический привод**

**uz** - optik uzatma

оптик узатма

**en** - optical drive

Устройство для чтения/записи информации хранящейся на оптических дисках. Делятся на следующие типы: CD-ROM, CD-RW, DVD-ROM, COMBO, DVD-RW, DVD-RW (Dual), Multi (SMulti), Blu-Ray, HD DVD.

## О

Optik disklarda saqlanadigan axborotni o‘qish/yoziq uchun mo‘ljallangan qurilma. Quyidagi turlarga bo‘linadi: CD-ROM, CD-RW, DVD-ROM, COMBO, DVD-RW, DVD-RW (Dual), Multi (SMulti), Blu-Ray, HD DVD.

Оптик дискларда сақланадиган ахборотни ўқиш/ёзиш учун мўлжалланган қурилма. Қуйидаги турларга бўлинади: CD-ROM, CD-RW, DVD-ROM, COMBO, DVD-RW, DVD-RW (Dual), Multi (SMulti), Blu-Ray, HD DVD.

### **Отказ от обслуживания**

**uz** - xizmat ko‘rsatishni rad etish

хизмат кўрсатишни

рад этиш

**en** - denial of service; DoS

Вид киберпреступления, направленный на удаленное выведение серверов и сетей из строя. DoS-атака может быть осуществлена при помощи отсылки большого числа пакетов (определенным образом организованных блоков информации) на атакуемый сервер («затопления сервера»).

Kiberjinoyatning serverlar va tarmoqlarni masofadan turib safdan chiqarishga yo‘naltirilgan turi. DoS-hujum hujum qilinayotgan serverga ko‘p sonli paketlarni (muayyan tarzda tashkil qilingan axborot bloklarini) yuborish yordamida amalga oshirilishi mumkin («serverni yoqqilish uchun»).

Кибержиноятнинг серверлар ва тармоқларни масофадан туриб сафдан чиқаришга йўналтирилган тури. DoS-хужум хужум қилинаётган серверга кўп сонли пакетларни (муайян тарзда ташкил қилинган ахборот блокларини) юбориш ёрдамида амалга оширилиши мумкин («серверни йўқ қилиш учун»).

### **Открытый Банкинг**

**uz** - ochiq Banking

очиқ Банкинг

**en** - open Banking

Термин, относящийся к зарождающемуся явлению в сфере финансовых технологий – банковской системы, основанной на использовании открытых данных и Open API. Например, с использованием банковского API стартап может разработать мобильное приложение, осуществляющее денежные переводы с/на счета клиентов, открытые в этом банке, или же просто дать им проверить остатки на своих счетах.



## O

Ochiq ma'lumotlar va Open API dan foydalanishga asoslangan moliyaviy texnologiyalar sohasi – bank tizimidagi yuzaga kelayotgan hodisaga taalluqli atama. Masalan, bank API sidan foydalangan holda startap shu bankda ochilgan mijozlar hisobiga/hisobidan pul jo'natmalarini amalga oshiradigan yoki shunchaki o'z hisoblaridagi qoldiqlarni tekshirish imkonini beradigan mobil ilovani ishlab chiqishi mumkin.

Очиқ маълумотлар ва Open API дан фойдаланишга асосланган молиявий технологиялар соҳаси – банк тизимидаги юзага келаётган ходисага тааллуқли атама. Масалан, банк API сидан фойдаланган ҳолда стартап шу банкда очилган миждозлар ҳисобига/ҳисобидан пул жўнатмаларини амалга оширадиган ёки шунчаки ўз ҳисобларидаги қолдиқларни текшириш имконини берадиган мобил иловани ишлаб чиқиши мумкин.

### **Открытый интерфейс или открытый API**

**uz** - ochiq interfeys yoki ochiq API

очик интерфейс ёки очик API

**en** - open application programming interface (Open API)

Бесплатный, общедоступный прикладной программный интерфейс, который обеспечивает доступ к проприетарному программному приложению. Сегодня это одно из важнейших направлений цифровой трансформации, преобразующее банки и формирующее новую экосистему игроков на финансовых рынках.

Proprietary dasturiy ilovadan erkin foydalanishni ta'minlaydigan bepul, umumfoydalanadigan amaliy dasturiy interfeys. Bugungi kunda bu raqamli transformatsiyaning banklarni tubdan o'zgartiruvchi va moliya bozorlaridagi ishtirokchilarning yangi ekotizimini shakllantiruvchi muhim yo'nalishlaridan biridir.

Проприетар дастурий иловадан эркин фойдаланишни таъминлайдиган бепул, умумфойдаландиган амалий дастурий интерфейс. Бугунги кунда бу рақамли трансформациянинг банкларни тубдан ўзгартирувчи ва молия бозорларидаги ишти-

## О

рокчиларнинг янги экотизимини шакллантирувчи муҳим йўналишларидан биридир.

### **Отправитель электронного документа**

**uz** - elektron hujjatni

joʻnatuvchi

электрон хужжатни

жўнатувчи

**en** - sender of the electronic document

Юридическое или физическое лицо, указанное в реквизитах электронного документа и отправляющее электронный документ получателю электронного документа.

Elektron hujjat rekvizitlarida nomi koʻrsatilgan hamda elektron hujjat oluvchisiga elektron hujjatni joʻnatayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Электрон хужжат реkvизитларида номи кўрсатилган ҳамда электрон хужжат олувчисига электрон хужжатни жўнатаётган юридик ёки жисмоний шахс.

## П

### **Памп**

**uz** - ramp

памп

**en** - pump

Ситуация, которая ведет к очень быстрому и необоснованному экономическому росту курса криптовалюты. Обычно возникает в результате целенаправленных действий опытных трейдеров.

Kriptoalyuta kursining juda tez va iqtisodiy jihatdan asoslanmagan tarzda oʻsishiga olib keladigan vaziyat. Odatda tajribali treyderlarning maqsadli harakatlari natijasida yuzaga keladi.

Криптовалюта курсининг жуда тез ва иқтисодий жиҳатдан асосланмаган тарзда ўсишига олиб келадиган вазият. Одатда тажрибали трейдерларнинг мақсадли ҳаракатлари натижасида юзага келади.

### **Память виртуальная**

**uz** - virtual хотира

виртуал хотира

**en** - virtual storage

Пространство памяти, которое может считаться как основная память, заадресованная потребителем вычислительной системы, в которой виртуальные адреса преобразованы в действительные адреса.

Примечание – Размер виртуальной памяти ограничен адресующей схемой вычислительной системы и количеством доступной дополнительной памяти, но не действительным числом ячеек основной памяти.

## II

Virtual adreslar haqiqiy adreslarga o'zgartirilgan hisoblash tizimi iste'molchisi tomonidan yo'llangan asosiy xotira bo'lib hisoblanadigan xotira makoni.

Izoh – Virtual xotira o'lchami hisoblash tizimining adreslovchi sxemasi va asosiy xotira yachevkalarining haqiqiy soni bilan emas, balki foydalanish mumkin bo'lgan qo'shimcha xotira miqdori bilan cheklangan.

Виртуал адреслар ҳақиқий адресларга ўзгартирилган ҳисоблаш тизими истеъмолчиси томонидан йўлланган асосий хотира бўлиб ҳисобланадиган хотира макони.

Изоҳ – Виртуал хотира ўлчами ҳисоблаш тизимининг адресловчи схемаси ва асосий хотира ячейкаларининг ҳақиқий сони билан эмас, балки фойдаланиш мумкин бўлган қўшимча хотира миқдори билан чекланган.

### **Первичное предложение монет**

**uz** - tangalarning birlamchi taklif qilinishi

тангаларнинг бирламчи таклиф қилиниши

**en** - initial coin offering, ICO

Форма привлечения инвестиций в новые технологические проекты и стартапы в виде эмиссии и продажи инвесторам новых криптовалют.

Примечание – Употребляется также в виде «первичное предложение токенов».

Investitsiyalarni yangi kriptovalyutalarni investorlarga sotish va emissiya ko'rinishida yangi texnologik loyihalarga va startaplarga jalb qilish shakli.

Izoh – Shuningdek, «tokenlarning birlamchi taklif qilinishi» ko'rinishida ham qo'llaniladi.

Инвестицияларни янги криптовалюталарни инвесторларга сотиш ва эмиссия кўринишида янги технологик лойиҳаларга ва стартапларга жалб қилиш шакли.

Изоҳ – Шунингдек, «токенларнинг бирламчи таклиф қилиниши» кўринишида ҳам қўлланилади.

### **Первый публичный биткоин-фонд**

**uz** - birinchi ommaviy bitkoin-fond

биринчи оммавий биткоин-фонд

**en** - bitcoin investment trust

Биткоин-фонд, который инвестирует исключительно в биткоины и использует ультра-современный протокол для хранения биткоинов от имени и по поручению своих вкладчиков. Предоставляет возможности для людей, желающих инвестировать в биткоины, без необходимости самому покупать и безопасно хранить цифровые валюты.

## II

Faqat bitkoinlarga investitsiya kiritadigan va o'z omonatchilarining nomidan va ularning topshiriqlariga muvofiq, bitkoinlarni saqlash uchun o'ta zamonaviy protokoldan foydalanadigan bitkoin-jamg'arma. Bitkoinlarga investitsiya kiritish istagida bo'lgan kishilar uchun, raqamli valyutalarni o'zi sotib olishi uchun zarurat tug'dirmaydigan hamda xavfsiz saqlash imkoniyatini taqdim etadi.

Фақат биткоинларга инвестиция киритадиган ва ўз омонатчиларининг номидан ва уларнинг топшириқларига мувофиқ, биткоинларни сақлаш учун ўта замонавий протоколдан фойдаланадиган биткоин-жамғарма. Биткоинларга инвестиция киритиш истагида бўлган кишилар учун, рақамли валюталарни ўзи сотиб олиши учун зарурат туғдирмайдиган ҳамда хавфсиз сақлаш имкониятини тақдим этади.

### Персонализация

**uz** - personallashtirish

персоналлаштириш

**en** - personalization

Процесс занесения на пластиковую карту данных, которые позволяют идентифицировать карту и ее держателя, а также осуществить проверку платежеспособности карты при приеме ее к оплате или выдаче наличных денег.

Plastik kartaga bu kartani va uning egasini identifikatsiyalash, shuningdek, to'lovga qabul qilish yoki naqd pullar berishda kartaning to'lov qobiliyatini tekshirish imkonini beradigan ma'lumotlarni kiritish jarayoni.

Пластик картага бу картани ва унинг эгасини идентификациялаш, шунингдек, тўловга қабул қилиш ёки нақд пуллар беришда картанинг тўлов қобилиятини текшириш имконини берадиган маълумотларни киритиш жараёни.

### Пир

**uz** - pir

пир

**en** - peer

Равноправный участник (пользователь) сети, предоставляющий сервисы другим участникам одноранговой сети и сам пользующийся их сервисами.

Примечания:

1. Пиром часто называется клиент, участвующий в раздаче в файлообменных сетях.
2. Пир является противоположностью клиента или сервера в архитектуре клиент-сервер, поскольку и предостав-

## II

ляет сервисы, и пользуется ими.

Xizmatlarni bir darajali tarmoqning boshqa ishtirokchilariga taqdim etadigan va o'zi ham ularning xizmatlaridan foydalanadigan tarmoqning teng huquqli ishtirokchisi (foydalanuvchisi).

Izohlar

1. Ko'pincha fayl almashadigan tarmoqlarda tarqatishda ishtirok etadigan mijoz pir deb ataladi.
2. Pir mijoz-server arxitekturasida ham xizmatlarni taqdim etgani, ham undan foydalangani sababli, mijoz yoki serverning aksi bo'lib hisoblanadi.

Хизматларни бир даражали тармоқнинг бошқа иштирокчиларига тақдим этадиган ва ўзи ҳам уларнинг хизматларидан фойдаланадиган тармоқнинг тенг ҳуқуқли иштирокчиси (фойдаланувчиси).

Изоҳлар:

1. Кўпинча файл алмашадиган тармоқларда тарқатишда иштирок этадиган мижоз пир деб аталади.
2. Пир мижоз-сервер архитектурасида ҳам хизматларни тақдим этгани, ҳам ундан фойдалангани сабабли, мижоз ёки сервернинг акси бўлиб ҳисобланади.

### **Платежная система**

**uz** - to'lov tizimi

тўлов тизими

**en** - payment service provider

Система, которая предоставляет услуги оплаты для участников экономики, желающих принимать платежи онлайн. Платёжные системы являются одной из ключевых частей современных монетарных систем.

To'lovlarni onlayn tarzda qabul qilishni xohlovchi iqdisosdiyot ishtirokchilari uchun to'lov xizmatlarini taqdim etadigan tizim. To'lov tizimlari zamonaviy monetar tizimlarning asosiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Tўловларни онлайн тарзда қабул қилишни хоҳловчи иқдисодиёт иштирокчилари учун тўлов хизматларини тақдим этадиган тизим. Тўлов тизимлари замонавий монетар тизимларнинг асосий қисмларидан бири бўлиб ҳисобланади.

### **Платформа**

**uz** - platforma

Тип операционной системы, установленной в мобильном телефоне (смартфоне) или обычном

## II

платформа  
**en** - platform

компьютере. Для современных смартфонов существует 4 основных типа платформ: Palm OS, Symbian, Linux и Pocket PC/Windows Mobile.

Oddiy kompyuterlarda yoki mobil telefonlarga oʻrnatilgan operatsion tizim turi. Zamonaviy smartfonlar uchun 4 ta asosiy turdagi platforma mavjud: *Palm OS, Symbian, Linux va Pocket PC/Windows Mobile.*

Оддий компьютерларда ёки мобил телефонларга ўрнатилган операцион тизим тури. Замонавий smartfonlar uchun 4 ta asosiy turdagi platforma mavjud: *Palm OS, Symbian, Linux va Pocket PC/Windows Mobile.*

**Платформа как услуга**  
**uz** - xizmat sifatidagi platforma  
хизмат сифатидаги  
платформа  
**en** - platform as a service, PaaS

Облачная сервисная платформа, которая предоставляет веб-разработчикам всю необходимую инфраструктуру для разработки и запуска приложения. Предоставление облачной платформы для развертывания программного обеспечения, созданного на базе языков программирования и инструментов, поддерживаемых облачным провайдером. Заказчик не имеет возможности управлять облачной инфраструктурой (сетевое и серверное оборудование, система хранения данных операционными системами), но имеет контроль над развернутыми приложениями.

Veb-ishlab chiquvchilarga ilovani ishlab chiqish va ishga tushirish uchun barcha kerak boʻlgan infratuzilmalarni taqdim qiladigan bulutli servis platformasi. Bulutli provayder tomonidan qoʻllab-quvvatlanadigan dasturlash tillari va vositalari asosida yaratilgan dasturiy taʼminotni oʻrnatish uchun bulutli platformani taqdim etish. Buyurtmachi bulutli infratuzilma (tarmoq va server uskunalari, maʼlumotlarni saqlash tizimining operatsion tizimlari)ni boshqarish imkoniyatiga ega boʻlmaydi, lekin oʻrnatilgan ilovalarni nazorat qiladi.

Веб-ишлаб чиқувчиларга иловани ишлаб чиқиш

## II

ва ишга тушириш учун барча керак бўлган инфратузилмаларни тақдим қиладиган булутли сервис платформаси. Булутли провайдер томонидан қўллаб-қувватланадиган дастурлаш тиллари ва воситалари асосида яратилган дастурий таъминотни ўрнатиш учун булутли платформани тақдим этиш. Буюртмачи булутли инфратузилма (тармоқ ва сервер ускуналари, маълумотларни сақлаш тизимининг операцион тизимлари)ни бошқариш имкониятига эга бўлмайди, лекин ўрнатилган иловаларни назорат қилади.

### **Платформа цифровой экономики**

**uz** - raqamli iqtisodiyot platformasi

рақамли иқтисодиёт платформаси

**en** - digital economy platform

Цифровая среда (программно-аппаратный комплекс) с набором функций и сервисов, обеспечивающая потребности потребителей и производителей, а также реализующая возможности прямого взаимодействия между ними.

Iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar ehtiyojlarini ta'minlaydigan, shuningdek, ular o'rtasida bevosita o'zaro hamkorlik imkoniyatlarini amalga oshiradigan funksiyalar va xizmatlar to'plamidan iborat raqamli muhit (dasturiy-apparat kompleksi).

Истеъмолчилар ва ишлаб чиқарувчилар эҳтиёжларини таъминлайдиган, шунингдек, улар ўртасида бевосита ўзаро ҳамкорлик имкониятларини амалга оширадиган функциялар ва хизматлар тўпламидан иборат рақамли муҳит (дастурий-аппарат комплекси).

### **Повышение компетентности**

**uz** - kompetentlikni oshirish

компетентликни ошириш

**en** - empowerment

Результат мероприятий, направленных на обретение таких знаний и навыков у отдельных граждан, социальных групп, организаций, предприятий и органов власти, которые позволят им войти в глобальное Общество Знания и экономику, основанную на знаниях, а также принимать обоснованные решения, адекватные их нуждам.

Ayrim fuqarolar, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, korxonalar va hokimiyat organlarida ularni Gglobal Bilimlar jamiyatiga va bilimlarga asoslangan iqtisodiyotga kirish, shuningdek, ularning

## II

ehtiyojlariga muqobil bo'lgan asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradigan bilim va ko'nikmalarni paydo qilishga yo'naltirilgan tadbirlar natijasi.

Айрим фуқаролар, ижтимоий гуруҳлар, ташкилотлар, корхоналар ва ҳокимият органларида уларни глобал Билимлар Жамиятига ва билимларга асосланган иқтисодиётга кириш, шунингдек, уларнинг эҳтиёжларига муқобил бўлган асосли қарорлар қабул қилиш имконини берадиган билим ва кўникмаларни пайдо қилишга йўналтирилган тadbирлар натижаси.

### Подтверждение

**uz** - tasdiqlash

тасдиқлаш

**en** - acknowledge

Код, посылаемый банком-эмитентом в подтверждение того, что пластиковая карта покупателя существует, пригодна к использованию и запрашиваемая сумма находится в пределах допустимого лимита.

Примечание – Подтверждение запрашивается в процессе авторизации.

Qabul qiluvchining plastik kartasi mavjudligi, foydalanish uchun yaroqliligi va talab qilingan miqdor ruxsat etilgan limit doirasida ekanligini tasdiqlash uchun emitent-bank tomonidan yuboriladigan kod.

Izoh – Tasdiqlash avtorizatsiya jarayonida talab qilinadi.

Қабул қилувчининг пластик картаси мавжудлиги, фойдаланиш учун яроқлилиги ва талаб қилинган миқдор рухсат этилган лимит доирасида эканлигини тасдиқлаш учун эмитент-банк томонидан юбориладиган код.

Изоҳ – Тасдиқлаш авторизация жараёнида талаб қилинади.

### Подтверждение

**подлинности электронного документа**

**uz** - elektron hujjat haqiqiyligini tasdiqlash

электрон ҳужжат

ҳақиқийлигини тасдиқлаш

**en** - verification of electronic document

1. Положительный результат проверки принадлежности электронной цифровой подписи владельцу закрытого ключа электронной цифровой подписи и отсутствия искажений информации в электронном документе.

2. Электронное удостоверение, которое связывает данные для проверки электронной цифровой подписи с определенным лицом и подтверждает идентичность этого лица.



## II

1. Elektron raqamli imzo elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga tegishlilikini va elektron hujjatda axborotni buzib ko'rsatishlar yo'qligini tekshirishning ijobiy natijasi.

2. Elektron raqamli imzoni tekshirish ma'lumotlarini muayyan shaxs bilan bog'laydigan va bu shaxsning aynan bir xilligini tasdiqlaydigan elektron guvohnoma.

1. Электрон рақамли имзо электрон рақамли имзо ёпиқ калитининг эгасига тегишлилигини ва электрон ҳужжатда ахборотни бузиб кўрсатишлар йўқлигини текширишнинг ижобий натижаси.

2. Электрон рақамли имзони текшириш маълумотларини муайян шахс билан боғлайдиган ва бу шахснинг айнан ўхшашлигини тасдиқлайдиган электрон гувоҳнома.

### **Подтверждение подлинности электронной цифровой подписи**

**uz** - elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash

электрон рақамли  
имзонинг ҳақиқийлигини  
тасдиқлаш

**en** - digital signature authentication

Положительный результат проверки принадлежности электронной цифровой подписи владельцу закрытого ключа электронной цифровой подписи и отсутствия искажений информации в электронном документе.

Elektron raqamli imzo elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasiga tegishlilikini va elektron hujjatdagi axborot buzib ko'rsatilmaganligini tekshirishning ijobiy natijasi.

Электрон рақамли имзо электрон рақамли имзо ёпиқ калитининг эгасига тегишлилиги ва электрон ҳужжатдаги ахборот бузиб кўрсатилмаганлигини текширишнинг ижобий натижаси.

### **Показатель эффективности Интернет-рекламы**

**uz** - Internet-reklamanning samaradorlik ko'rsatkichi

Интернет-рекламанинг  
самарадорлик кўрсаткичи

**en** - click to interest; CТИ

Показатель эффективности Интернет-рекламы, измеряемый как отношение числа посетителей коммерческого веб-ресурса, привлеченных рекламой и заинтересовавшихся сервером (посетивших несколько его страниц), к общему числу привлеченных рекламой посетителей.

Reklama orqali jalb qilingan va serverga qiziqib qolgan (uning bir nechta sahifasini ko'rgan) va

## II

tijoriy veb-resursga tashrif buyuruvchilar sonining reklama orqali jalb qilingan tashrif buyuruvchilar umumiy soniga nisbati sifatida o'lchanadigan Internet-reklamanning samaradorlik ko'rsatkichi.

Реклама орқали жалб қилинган ва серверга қизиқиб қолган (унинг бир нечта саҳифасини кўрган) тижорий веб-ресурсга ташриф буюрувчилар сонининг реклама орқали жалб қилинган ташриф буюрувчиларнинг умумий сонига нисбати сифатида ўлчанадиган Интернет-рекламанинг самарадорлик кўрсаткичи.

### Получатель информации

**uz** - axborotni oluvchi

ахборотни олувчи

**en** – recipient of information

Материальный объект или субъект, воспринимающий информацию во всех формах ее проявления с целью дальнейшей ее обработки и использования.

Примечание – Источниками и получателями информации могут быть как люди, так и технические средства, которые накапливают, хранят, преобразуют, передают или принимают информацию.

Axborotni kelgusida qayta ishlash va foydalanish maqsadida axborotni uning ko'rinishining barcha shakllarida qabul qiladigan moddiy obyekt yoki subyekt.

Izoh – Axborot manbalari va oluvchilari axborotni to'playdigan, saqlaydigan, o'zgartiradigan, uzatadigan yoki qabul qiladigan odamlar ham, texnik vositalar ham bo'lishi mumkin.

Ахборотни келгусида қайта ишлаш ва фойдаланиш мақсадида, уни кўринишининг барча шаклларида қабул қиладиган моддий объект ёки субъект.

Изоҳ – Ахборот манбалари ва олувчилари ахборотни тўплайдиган, сақлайдиган, ўзгартирадиган, узатадиган ёки қабул қиладиган одамлар ҳамда техник воситалар бўлиши мумкин.

### Получатель услуг

**uz** - xizmatlarni oluvchi

хизматларни олувчи

**en** - service recipient

Физическое или юридическое лицо, которое для профессиональных или иных нужд использует информационные услуги, в особенности с целью поиска информации или доступа к ней.

Примечание – Получатель услуги является потребителем, если он/она – физическое лицо, действующее в целях, не

## II

связанных с торговлей, бизнесом или профессией данного лица.

Professional ehtiyojlar yoki boshqa ehtiyojlar uchun, ayniqsa, axborotni izlash yoki undan foydalanish maqsadida axborot xizmatlaridan foydalanadigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Izoh – Xizmatlarni oluvchi iste'molchi hisoblanadi, agar u ushbu shaxsning savdosi, biznesi yoki kasbi bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda ish ko'rayotgan jismoniy shaxs bo'lsa.

Профессионал эhtiёжлар ёки бошқа эhtiёжлар учун, айниқса, ахборотни излаш ёки undan фойдаланиш мақсадида ахборот хизматларидан фойдаланадиган жисмоний ёки юридик шахс.

Изоҳ – Хизматларни олувчи истеъмолчи ҳисобланади, агар у ушбу шахснинг савдоси, бизнеси ёки касби билан боғлиқ бўлмаган мақсадларда иш кўраётган жисмоний шахс бўлса.

### **Получатель электронных данных**

**uz** - elektron ma'lumotlarni oluvchi

электрон маълумотларни олувчи

**en** - receiver of electronic data

Физическое или юридическое лицо, которому электронные данные отправляются отправителем или от имени отправителя за исключением лиц, действующих в качестве информационных посредников в отношении этих данных.

Elektron ma'lumotlarga nisbatan axborot vositachilari sifatida ish ko'radigan shaxslardan tashqari, jo'natuvchi tomonidan yoki jo'natuvchi nomidan ushbu elektron ma'lumotlar yuborilayotgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Электрон маълумотларга нисбатан ахборот воситачилари сифатида иш кўрадиган шахслардан ташқари, жўнатувчи томонидан ёки жўнатувчи номидан ушбу электрон маълумотлар юборилаётган жисмоний ёки юридик шахс.

### **Пользователь (потребитель) информации**

**uz** - axborotdan foydalanuvchi (axborot iste'molchisi)

ахборотдан фойдаланувчи (ахборот истеъмолчиси)

1. Субъект, обращающийся к информационным ресурсам за получением необходимой ему информации и пользующийся ею.

2. Юридическое или физическое лицо, обладающее полномочиями доступа к информации.

3. Субъект, пользующийся информацией, полу-

## II

**en** - information user

ченной от ее собственника, владельца или посредника в соответствии с установленными правами и правилами доступа к информации либо с их нарушением.

1. Axborot resurslariga zarur axborotni olish va undan foydalanish uchun murojaat qiluvchi subyekt.
2. Axborotdan foydalana olish vakolatiga ega yuridik yoki jismoniy shaxs.
3. Axborotdan erkin foydalanishning belgilangan huquq va qoidalariga muvofiq yoki ularni buzgan holda, axborot egasi yoki vositachisidan olingan axborotdan foydalanuvchi subyekt.

1. Ахборот ресурсларига зарур ахборотни олиш ва ундан фойдаланиш учун мурожаат қилувчи субъект.
2. Ахборотдан фойдалана олиш ваколатига эга юридик ёки жисмоний шахс.
3. Ахборотдан эркин фойдаланишнинг белгиланган ҳуқуқ ва қоидаларига мувофиқ ёки уларни бузган ҳолда, ахборот эгаси ёки воситачисидан олинган ахборотдан фойдаланувчи субъект.

**Пользователь информационных ресурсов (систем)**

**uz** - axborot resurslaridan (tizimlaridan) foydalanuvchi  
ахборот ресурсларидан

(tizimlaridan) foydalanuvchi

**en** - user of information resources (systems)

Физическое или юридическое лицо, обращающееся к информационным ресурсам в информационных системах в порядке, установленном законодательством или соглашением сторон.

Qonun hujjatlari yoki tomonlarning kelishuvi bilan oʻrnatilgan tartibda, axborot tizimlaridagi axborot resurslariga murojaat qiladigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Қонун ҳужжатлари ёки томонларнинг келишуви билан ўрнатилган тартибда ахборот тизимларидаги ахборот ресурсларига мурожаат қиладиган жисмоний ёки юридик шахс.

**Пользователь открытого ключа**

**uz** - ochiq kalitdan foydalanuvchi

очиқ калитдан

Физическое или юридическое лицо, использующее открытый ключ электронной цифровой подписи для подтверждения подлинности электронной цифровой подписи.

## II

фойдаланувчи  
**en** - public key recipient

Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash uchun elektron raqamli imzo ochiq kalitidan foydalanadigan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Электрон рақамли имзонинг ҳақиқийлигини тасдиқлаш учун электрон рақамли имзо очик калитидан фойдаланадиган юридик ёки жисмоний шахс.

**Пользователь-пользователю**  
**uz** - foydalanuvchi-foydalanuvchiga  
фойдаланувчи-фойдаланувчига  
**en** - peer-to-peer; P2P

Технология построения распределенной сети, где каждый узел может одновременно выступать как в роли клиента (пользователя информации), так и в роли сервера (поставщика информации).

Taqsimlangan tarmoqni qurish texnologiyasi, bunda har bir uzel bir vaqtning o'zida ham mijoz (axborotdan foydalanuvchi) rolida, ham server (axborotni yetkazib beruvchi) rolida ishtirok etishi mumkin.

Тақсимланган тармокни қуриш технологияси, бунда ҳар бир узел бир вақтнинг ўзида ҳам мижоз (ахборотдан фойдаланувчи) ролида, ҳам сервер (ахборотни етказиб берувчи) ролида иштирок этиши мумкин.

**Пользователь IoT**  
**uz** - IoT фойдаланувчиси  
IoT фойдаланувчиси  
**en** - IoT user

Физическое или юридическое лицо, являющееся потребителем услуг IoT.

IoT xizmatlarining iste'molchisi bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

IoT хизматларининг истеъмолчиси бўлган жисмоний ёки юридик шахс.

**Портал корпоративный**  
**uz** - korporativ portal  
корпоратив портал  
**en** - corporate portal

Основная точка входа корпоративной сети.  
Примечание – Назначением корпоративного портала является предоставление доступа сотрудникам к широкому набору внешней и внутрикорпоративной информации с учетом их прав доступа и предпочтений. Корпоративный портал обеспечивает избирательную доставку пользователю важной для него информации, осуществляя ее фильтрацию в соответствии с функциями пользователя в организации.

## II

### Korporativ tarmoqning asosiy kirish nuqtasi.

Izoh – Korporativ portalning vazifasi xodimlarga, ularning foydalanish huquqlari va afzalliklari hisobga olingan holda, tashqi va ichki korporativ axborotning keng to‘plamidan foydalanish imkoniyatini berish hisoblanadi. Korporativ portal foydalanuvchi uchun muhim bo‘lgan axborotni, foydalanuvchining tashkilotdagi vazifalariga muvofiq saralangan holda, tanlab yetkazilishini ta’minlaydi.

### Корпоратив тармоқнинг асосий кириш нуқтаси.

Изоҳ – Корпоратив порталнинг вазифаси ходимларга, уларнинг фойдаланиш ҳуқуқлари ва афзалликлари ҳисобга олинган ҳолда, ташқи ва ички корпоратив ахборотнинг кенг тўпламидан фойдаланиш имкониятини бериш ҳисобланади. Корпоратив портал фойдаланувчи учун муҳим бўлган ахборотни, фойдаланувчининг ташкilotдаги вазифаларига мувофиқ сараланган ҳолда, танлаб етказилишини таъминлайди.

### Посредник

#### информационный

uz - axborot vositachi

ахборот воситачи

en - information intermediary

1. Лицо, которое от имени другого лица отправляет, получает или хранит электронные документы или предоставляет услуги в отношении данных документов.

2. Юридическое или физическое лицо, которое на договорной основе оказывает услуги, связанные с оборотом электронных документов.

1. Boshqa bir shaxs nomidan elektron hujjatlarni jo‘natadigan, oladigan yoki saqlaydigan yoki hujjatlarga taalluqli xizmatlarni taqdim etadigan shaxs.

2. Elektron hujjat aylanishi bilan bog‘liq xizmatlarni shartnoma asosida ko‘rsatadigan yuridik yoki jismoniy shaxs.

1. Бошқа бир шахс номидан электрон ҳужжатларни жўнатадиган, оладиган ёки сақлайдиган ёки ҳужжатларга тааллуқли хизматларни тақдим этадиган шахс.

2. Электрон ҳужжат айланиши билан боғлиқ хизматларни шартнома асосида кўрсатадиган юридик ёки жисмоний шахс.

### Потребитель для бизнеса

uz - iste'molchi biznesga

истеъмолчи бизнесга

Сектор рынка электронной коммерции, в котором коммерческое взаимодействие осуществляется между физическими лицами и юридическими ли-

## II

**en** - customer to business; C2B

цами (предприятиями, организациями). В данном секторе в качестве продавца или оказывающего услуги субъекта выступают физические лица, а покупателя – юридические лица. Пример систем электронной коммерции сектора C2B – партнерские программы.

Tijoratga oid hamkorlik jismoniy va yuridik shaxslar (korxonalar, tashkilotlar) oʻrtasida amalga oshiriladigan elektron tijorat bozorining sektori. Ushbu sektorda sotuvchi yoki xizmatlarni koʻrsatuvchi subyekt sifatida jismoniy shaxslar, xaridor sifatida esa, yuridik shaxslar ishtirok etadilar. C2B sektorining elektron tijorat tizimlariga hamkorlik dasturlari misol boʻladi.

Тижоратга оид ҳамкорлик жисмоний ва юридик шахслар (корхоналар, ташкилотлар) ўртасида амалга ошириладиган электрон тижорат бозорининг сектори. Ушбу секторда сотувчи ёки хизматларни кўрсатувчи субъект сифатида жисмоний шахслар, харидор сифатида эса, юридик шахслар иштирок этадилар. C2B секторининг электрон тижорат тизимларига ҳамкорлик дастурлари мисол бўлади.

**Потребитель государству**

**uz** - iste'molchi davlatga

истеъмолчи давлатга

**en** - customer to government;

C2G

Сектор рынка электронной коммерции, в котором коммерческое взаимодействие осуществляется между физическими лицами и государственными учреждениями. В данном секторе, в качестве продавца или оказывающего услуги субъекта выступает физическое лицо, а покупателя – государственное учреждение. Примером взаимодействия в секторе C2G – участие граждан в научно-практических разработках по заказу государственных учреждений посредством технологий электронного правительства.

Tijoratga oid hamkorlik jismoniy shaxslar va davlat muassasalari oʻrtasida amalga oshiriladigan elektron tijorat bozorining sektori. Ushbu sektorda sotuvchi yoki xizmat koʻrsatuvchi subyekt sifatida jismoniy shaxslar, xaridor sifatida esa, davlat muassasalari

## II

ishtirok etadilar. C2G sektoridagi hamkorliklarga davlat muassasalarining buyurtmasiga muvofiq, elektron hukumat texnologiyalari vositasida, fuqarolarning ilmiy-amaliy ishlanmalardagi ishtiroki misol bo'ladi.

Тижоратга оид ҳамкорлик жисмоний шахслар ва давлат муассасалари ўртасида амалга ошириладиган электрон тижорат бозорининг сектори. Ушбу секторда сотувчи ёки хизматларни кўрсатувчи субъект сифатида жисмоний шахс, харидор сифатида эса давлат муассасалари иштирок этадилар. C2G секторидаги ҳамкорликларга давлат муассасаларининг буюртмасига мувофиқ, электрон ҳукумат технологиялари воситасида, фуқароларнинг илмий-амалий ишланмалардаги иштироки мисол бўлади.

### **Потребитель потребителю**

**uz** - iste'molchi iste'molchiga

истеъмолчи истеъмолчига

**en** - customer to customer; C2C

Сектор рынка электронной коммерции, в котором в качестве субъектов коммерции выступают физические лица. Примеры систем электронной коммерции сектора C2C – Интернет-аукционы и системы P2P.

Tijorat subyektlari sifatida jismoniy shaxslar ishtirok etadigan elektron tijorat bozorining sektori. C2C sektorining elektron tijorat tizimlariga Internet-auksionlar va P2P tizimlari misol bo'ladi.

Тижорат субъектлари сифатида жисмоний шахслар иштирок этадиган электрон тижорат бозорининг сектори. C2C секторининг электрон тижорат тизимларига Интернет-аукционлар ва P2P тизимлари мисол бўлади.

### **Почта электронная**

**uz** - elektron pochta

электрон почта

**en** - electronic mail; e-mail

1. Комплекс программно-технических средств, позволяющий отправлять или получать сообщения из одного электронного почтового ящика другому.

2. Обмен электронными почтовыми сообщениями с любым абонентом сети Интернет.

3. Система сервисных программ, обеспечивающая пересылку сообщений по сетям от пользователя к пользователю, а также чтение и хранение



## II

ние этих сообщений.

1. Bir elektron pochta qutisidan boshqa bir elektron pochta qutisiga xabarlarini joʻnatish yoki olish imkonini beradigan dasturiy-texnik vositalar kompleksi.

2. Internet tarmogʻining istalgan abonentini bilan elektron pochta xabarlarini almashish.

3. Tarmoqlar orqali xabarlarining foydalanuvchidan foydalanuvchiga yuborilishini, shuningdek, bu xabarlarini oʻqish va saqlash imkonini beradigan servis dasturlar tizimi.

1. Бир электрон почта кутисидан бошқа бир электрон почта кутисига хабарларни жўнатиш ёки олиш имконини берадиган дастурий-техник воситалар комплекси.

2. Интернет тармоғининг исталган абоненти билан электрон почта хабарларини алмашиш.

3. Тармоқлар орқали хабарларнинг фойдаланувчидан фойдаланувчига юборилишини, шунингдек, бу хабарларни ўқиш ва сақлаш имконини берадиган сервис дастурлар тизими.

**Представление Государственных и муниципальных услуг в электронной форме**  
**uz** - Davlat va munitsipal xizmatlarni elektron shaklda taqdim etish

Давлат ва муниципал хизматларни электрон шаклда тақдим этиш

**en** - federal and municipal electronic services

Услуги, предоставляемые с использованием ИКТ, в том числе через единый и/или региональные порталы государственных и муниципальных услуг.

АКТдан фойдаланган ҳолда, шу жумладан, давлат ва муниципал хизматларнинг ягона ва/ёки ҳудудий порталлари орқали тақдим этиладиган хизматлар.

АКТдан фойдаланган ҳолда, шу жумладан, давлат ва муниципал хизматларнинг ягона ва/ёки ҳудудий порталлари орқали тақдим этиладиган хизматлар.

**Приватный блокчейн**  
**uz** - rasmiy boʻlmagan blokcheyn

расмий бўлмаган блокчейн

**en** - private blockchain

Блокчейн, в котором доступ к обработке транзакций имеет только ограниченный список участников. Находит применение на уровне государственных организаций, банков и др. Примерами платформ для создания частных блокчейнов являются R3 Corda, IBM Fabric, Exonum и др.

## II

Tranzaksiyalarga ishlov berish uchun ruxsatga faqat cheklangan ro'yxatdagi ishtirokchilargina ega bo'lgan blokcheyn. Davlat tashkilotlari, banklari va h.k.lar darajasida qo'llaniladi. R3 Corda, IBM Fabric, Exonum va b.lar rasmiy bo'lmagan bloykcheynlarni yaratish uchun mo'ljallangan platformalarga misol bo'ladi.

Транзакцияларга ишлов бериш учун рухсатга фақат чекланган рўйхатдаги иштирокчиларгина эга бўлган блокчейн. Давлат ташкилотлари, банклари ва ҳ.к.лар даражасида қўлланилади. R3 Corda, IBM Fabric, Exonum ва б.лар расмий бўлмаган блойкчейнларни яратиш учун мўлжалланган платформаларга мисол бўлади.

### Приложения ИКТ

**uz** - AKT ilovalari

AKT иловалари

**en** - Applications of ICT

Услуги телематики в профессиональной или частной сфере, такие как телеработа, телемедицина, телеобразование и переподготовка, телеуправление дорожным движением.

Professional yoki xususiy doiradagi, telefaoliyat, teletibbiyot, teleo'qitish va qayta tayyorlash, yo'l harakatini teleboshqarish kabi telematika xizmatlari.

Профессионал ёки хусусий доирадаги, масалан, телефаолият, телетиббиёт, телеўқитиш ва қайта тайёрлаш, йўл ҳаракатини телебошқариш каби телематика хизматлари.

### Провайдер услуг телекоммуникаций

**uz** - telekommunikatsiyalar xizmatlari provayderi

телекоммуникациялар хизматлари провайдери

**en** - telecommunications service provider

Юридическое лицо, оказывающее на коммерческой основе услуги телекоммуникаций пользователям через сети операторов.

Operatorlar tarmoqlari orqali foydalanuvchilarga tijorat asosida telekommunikatsiyalar xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

Операторлар тармоқлари орқали фойдаланувчиларга тижорат асосида телекоммуникациялар хизматларини кўрсатувчи юридик шахс.

### Провайдер услуг IoT

Юридическое лицо, оказывающее на коммерче-

## II

**uz** - IoT xizmatlari provayderi  
IoT хизматлари  
провайдери  
**en** - service provider IoT

ской основе услуги IoT пользователям через сети операторов.

Operatorlar tarmoqlari orqali foydalanuvchilarga IoT xizmatlarini tijorat asosida ko'rsatuvchi yuridik shaxs.

Операторлар тармоқлари орқали фойдаланувчиларга IoT хизматларини тижорат асосида кўрсатувчи юридик шахс.

### **Проверка (правильности) данных**

**uz** - ma'lumotlarni  
(to'g'riligini) tekshirish  
маълумотларни  
(тўғрилигини) текшириш  
**en** - data validation

Предварительная обработка входных данных для проверки их соответствия, предъявляемым программой, требованиям (диапазон значений, формат представления).

Kirish ma'lumotlarining dastur ko'rsatadigan talablarga (qiymatlar diapazoni, taqdim etish formati) mos kelishini tekshirish uchun ularni oldindan qayta ishlash.

Кириш маълумотларининг дастур кўрсатадиган талабларга (қийматлар диапазони, тақдим этиш формати) мос келишини текшириш учун уларни олдиндан қайта ишлаш.

### **Программно-аппаратный комплекс**

**uz** - dasturiy-apparat kompleks  
дастурий-аппарат  
комплекс  
**en** - hardware and software  
system

Набор технических и программных средств, работающих совместно для выполнения одной или нескольких сходных задач.

Bitta yoki bir nechta o'xshash vazifani bajarish uchun birgalikda ishlaydigan texnik va dasturiy vositalar to'plami.

Битта ёки бир нечта ўхшаш вазифани бажариш учун биргаликда ишлайдиган техник ва дастурий воситалар тўплами.

### **Программное обеспечение как услуга; программное обеспечение по требованию**

**uz** - xizmat sifatidagi dasturiy ta'minot; talab bo'yicha dasturiy ta'minot

Одна из форм облачных вычислений, модель обслуживания, при которой подписчикам предоставляется готовое прикладное программное обеспечение, полностью обслуживаемое провайдером. Поставщик в этой модели самостоятельно управляет приложением, предоставляя заказчи-

## II

хизмат сифатидаги  
дастурий таъминот; талаб  
бўйича дастурий таъминот  
**en** - software as a service

кам доступ к функциям с клиентских устройств, как правило через мобильное приложение или веб-браузер.

Bulutli hisoblashlarning bir turi, xizmat ko'rsatish modeli, bunda obunachilarga provayder tomonidan to'liq xizmat ko'rsatiladigan tayyor amaliy dasturiy ta'minot taqdim etiladi. Yetkazib beruvchi bu modelda buyurtmachilarga mijoz qurilmalaridan, odatda mobil ilova yoki veb-brauzer orqali, funksiyalardan erkin foydalanish imkonini taqdim qilgan holda ilovani mustaqil boshqaradi.

Булутли ҳисоблашларнинг бир тури, хизмат кўрсатиш модели, бунда обуначиларга провайдер томонидан тўлиқ хизмат кўрсатиладиган тайёр амалий дастурий таъминот тақдим этилади. Етказиб берувчи бу моделда буюртмачиларга mijoz қурилмаларидан, одатда мобил илова ёки веб-браузер орқали функциялардан эркин фойдаланиш имконини тақдим қилган ҳолда иловани мустақил бошқаради.

**Прорывные цифровые технологии**  
**uz** - oldinga intiluvchi raqamli texnologiyalar

олдинга интилувчи  
рақамли технологиялар  
**en** - breakthrough digital technologies

Технологии, которые позволят заблаговременно предпринять действия, нужные для предотвращения неавторизованного использования, отказа в обслуживании, преобразования, рассекречивания, потери прибыли, или повреждения критических систем или информационных объектов, т.е. сформировать меру (ы) защиты («действие, устройство, процедуру или стратегию, которые ослабляют угрозу, уязвимость или противодействуют атаке путем ее отражения или предотвращения, или минимизации ущерба, который она способна нанести, или путем ее обнаружения и сообщения о ней, чтобы могло быть предпринято корректирующее действие»).

Kritik tizimlar yoki axborot obyektlaridan mualliflashtirilmagan holda foydalanish, xizmat ko'rsatishni rad etish, o'zgartirish, oshkor qilish, daromadni yo'qotish yoki ular shikastlanishining oldini olish uchun kerak bo'lgan xatti-harakatlarni

## II

oldindan bajarish imkonini beradigan texnologiyalar, ya'ni himoya chora (lari)ni shakllantirish («tahdid, xavfni yoki uni aks ettirish yoki oldini olish orqali hujumga qarshi turadigan yoki u yetkazishi mumkin bo'lgan zararni kamaytirish yoxud uni aniqlash va tuzatish xatti-harakatini amalga oshirish uchun u haqda xabar qilish orqali tahdid, xavfni susaytiradigan xatti-harakat, qurilma, protsedura yoki strategiya»).

Критик тизимлар ёки ахборот объектларидан муаллифлаштирилмаган ҳолда фойдаланиш, хизмат кўрсатишни рад этиш, ўзгартириш, ошкор қилиш, даромадни йўқотиш ёки улар шикастланишининг олдини олиш учун керак бўлган хатти-ҳаракатларни олдиндан бажариш имконини берадиган технологиялар, яъни ҳимоя чора (лари)ни шакллантириш («тахдид, хавфни ёки уни акс эттириш ёки олдини олиш орқали ҳужумга қарши турадиган ёки у етказиши мумкин бўлган зарарни камайтириш ёхуд уни аниқлаш ва тузатиш хатти-ҳаракатини амалга ошириш учун у ҳақда хабар қилиш орқали тахдид, хавфни сусайтирадиган хатти-ҳаракат, қурилма, процедура ёки стратегия»).

### **Протокол Ripple**

**uz** - Ripple protokoli

Ripple протоколи

**en** - Ripple

Криптовалюта, используемая в системе валовых расчетов в реальном времени, а также для обмена валют денежных переводов. Протокол Ripple запущен в 2012 году. Его целью является обеспечение «безопасных, мгновенных и почти бесплатных глобальных финансовых операций любого размера без возвратных платежей».

Real vaqt mobaynida umumiy hisob-kitoblar tizimida, shuningdek, pul o'tkazmalari valyutalarini almashish uchun foydalaniladigan kriptovalyuta. Ripple protokoli 2012 yildan ishga tushirilgan. Uning maqsadi «xavfsiz, bir lahzali va qaytarilmaydigan to'lovlarsiz deyarli beg'araz har qanday miqdordagi global moliyaviy operatsiyalarni» ta'minlash hisoblanadi.

## II

Реал вақт мобайнида умумий ҳисоб-китоблар тизимида, шунингдек, пул ўтказмалари валюталарини алмашиш учун фойдаланиладиган криптовалюта. Ripple протоколи 2012 йилда ишга туширилган. Унинг мақсади «хавфсиз, бир лаҳзали ва қайтариладиган тўловларсиз деярли беғараз ҳар қандай миқдордаги глобал молиявий операцияларни» таъминлаш ҳисобланади.

### **Протокол TRON**

**uz** - TRON protokoli

TRON протоколи

**en** - TRON (TRX)

Децентрализованный протокол, основанный на блочной цепочке с целью создания развлекательной системы по всему миру со свободным контентом благодаря распределенной технологии хранения и блочной цепи. Используя протокол TRON, пользователи могут публиковать и хранить данные. Используя автономную децентрализованную форму, они могут выбирать, как распределять данные.

Taqsimlangan saqlash tizimi va blok zanjiri hisobiga butun dunyo bo'yicha erkin kontentli ko'ngilochar tizimni yaratish maqsadida blok zanjiriga asoslangan markazlashtirilmagan protokol. TRON protokolidan foydalangan holda, foydalanuvchilar ma'lumotlarni e'lon qilishlari va saqlashlari mumkin bo'ladi. Avtonom markazlashtirilmagan shakldan foydalangan holda ular ma'lumotlarni qanday taqsimlashni tanlashlari mumkin bo'ladi.

Тақсимланган сақлаш тизими ва блок занжири ҳисобига бутун дунё бўйича эркин контентли кўнгилочар тизимни яратиш мақсадида блок занжирига асосланган марказлаштирилмаган протокол. TRON протоколидан фойдаланган ҳолда, фойдаланувчилар маълумотларни эълон қилишлари ва сақлашлари мумкин бўлади. Автоном марказлаштирилмаган шаклдан фойдаланган ҳолда улар маълумотларни қандай тақсимлашни танлашлари мумкин бўлади.

### **Протокол открытой торговли в Интернете**

**uz** - Internetdagi ochiq savdo protokoli

Протокол, который обеспечивает возможность проведения электронных торговых операций, в которых участвуют, с одной стороны, продавец (он подразумевает определенный состав участни-

## II

Интернетдаги очик савдо протоколи  
**en** - Internet open trading protocol

ков торговой сделки: электронный магазин, платежная система, поставщик товаров и услуг) и, с другой стороны, покупатель, в ходе одной или нескольких торговых сессий. Описывает содержимое, формат и последовательность сообщений, которыми обмениваются между собой участники электронной торговли (покупатели, продавцы и банки или другие финансовые учреждения) и «третейские судьи».

Bitta yoki bir nechta savdo sessiyasi davomida bir tomondan sotuvchi (u savdo kelishuvi ishtirokchilarining muayyan tarkibini nazarda tutadi: elektron do‘kon, to‘lov tizimi, tovar va xizmatlarni yetkazib beruvchi) va boshqa tomondan esa xaridor ishtirok etadigan elektron savdo operatsiyalarini o‘tkazish imkoniyatini ta’minlaydigan protokol. Elektron savdo (xaridorlar, sotuvchilar va banklar yoki boshqa moliyaviy muassasalar) va «hakamlik sudlari» ishtirokchilari o‘zaro almashadigan xabarlarning mazmuni, shakli va ketma-ketligini tavsiflaydi.

Битта ёки бир нечта савдо сессияси давомида бир томондан сотувчи (у савдо келишуви иштирокчиларининг муайян таркибини назарда тутди: электрон дўкон, тўлов тизими, товар ва хизматларни етказиб берувчи) ва бошқа томондан эса харидор иштирок этадиган электрон савдо операцияларини ўтказиш имкониятини таъминлайдиган протокол. Электрон савдо (харидорлар, сотувчилар ва банклар ёки бошқа молиявий муассасалар) ва «ҳакамлик судлари» иштирокчилари ўзаро алмашадиган хабарларнинг мазмуни, шакли ва кетма-кетлигини тавсифлайди.

**Процесс информационный**  
**uz** - axborot jarayoni  
ахборот жараёни  
**en** - information processes

Процесс создания, сбора, обработки, накопления, хранения, поиска, распространения и потребления информации.

Axborotni yaratish, to‘plash, qayta ishlash, saqlash, izlash, tarqatish va undan foydalanish jarayoni.

## II

Ахборотни яратиш, тўплаш, қайта ишлаш, сақлаш, излаш, тарқатиш ва ундан фойдаланиш жараёни.

### **Прямое дебетование**

**uz** - bevosita debetlash  
бевосита дебетлаш  
**en** - direct debit

Метод платежа, который позволяет организациям (кредиторам) списывать денежные средства со счетов клиентов банка при условии, что клиент банка (плательщик) сформировал банку платёжное поручение о проведении таких операций, оговаривающее условия и сроки проведения подобных операций.

Tashkilotlarga (kreditorlarga) bank mijozlarining hisob raqamidan, Bank mijozi (to'lovchi) tomonidan bankka o'tkazilish shartlari va muddatlari kelishib olingan shu kabi operatsiyalarning o'tkazilishi to'g'risidagi to'lov topshiriqnomasi shakllantirilgan sharoitdagina pul mablag'larini hisobdan chiqarish imkonini beradigan to'lov usuli.

Ташкилотларга (кредиторларга) банк мижозларининг ҳисоб рақамидан, банк мижози (тўловчи) томонидан банкка ўтказилиш шартлари ва муддатлари келишиб олинган шу каби операцияларнинг ўтказилиши тўғрисидаги тўлов топшириқномаси тузилган шароитдагина пул маблағларини ҳисобдан чиқариш имконини берадиган тўлов усули.

### **Публичное облако**

**uz** - ommaviy bulut  
оммавий булут  
**en** – public cloud

Облачная инфраструктура, предназначенная для свободного использования широким кругом клиентов. Публичное облако физически располагается и находится в собственности, управлении эксплуатации провайдера-поставщика облачных услуг. Публичное облако позволяет организациям быстро получать доступ к приложениям, сокращать затраты на поддержку инфраструктуры и высвободить ИТ-персонал для более важных задач. Кроме того, ИТ – службы могут быстро развертывать приложения и масштабировать среды приложений в периоды пиковой нагрузки. Кроме того, заказчики могут использовать публичные облачные сервисы для упрощения работы



## II

– с ПО, хранения совместного использования и защиты содержания, а также для предоставления доступа к системе с любых устройств, подключенных к сети.

Mijozlarning keng doirasi tomonidan erkin foydalanish uchun mo'ljallangan bulutli infrastruktura. Ommaviy bulut fizik jihatdan bulutli xizmatlarni yetkazib beruvchi provayderning ixtiyorida, boshqaruvida bo'ladi va u tomonidan ekspluatatsiya qilinadi. Ommaviy bulut tashkilotlarga ilovalarga tezda kirish, infratuzilmani qo'llab-quvvatlash xarajatlarini kamaytirish va AT xodimlarini yanada muhim vazifalarni bajarish uchun ozod qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, AT xizmatlari yuqori darajadagi yuklanish davrida ilovalarni tez kengaytirishi va ilovalar muhitini ko'paytirishi mumkin. Bundan tashqari, buyurtmachilar dasturiy ta'minot bilan ishlashni soddalashtirish, undan birgalikda foydalanishni saqlash va tarkibini himoya qilish, shuningdek, tarmoqqa ulangan har qanday qurilmadan tizimga kirishni taqdim etish ishlarini soddalashtirish uchun ommaviy bulut xizmatlaridan foydalanishlari mumkin.

Мижозларнинг кенг доираси томонидан эркин фойдаланиш учун мўлжалланган булутли инфратузилма. Оммавий булут физик жиҳатдан булутли хизматларни етказиб берувчи провайдернинг иштиёрида, бошқарувида бўлади ва у томонидан эксплуатация қилинади. Оммавий булут ташкилотларга иловаларга тезда кириш, инфратузилмани қўллаб-қувватлаш харажатларини камайтириш ва АТ ходимларини янада муҳим вазифаларни бажариш учун озод қилиш имконини беради. Бундан ташқари, АТ хизматлари юқори даражадаги юкланиш даврида иловаларни тез кенгайтириши ва иловалар муҳитини кўпайтириши мумкин. Бундан ташқари, буюртмачилар дастурий таъминот билан ишлашни соддалаштириш, ундан биргаликда фойдаланишни сақлаш ва таркибини ҳимоя қилиш, шунингдек, тармоққа уланган хар

## II

қандай қурилмадан тизимга киришни тақдим этиш ишларини соддалаштириш учун оммавий булут хизматларидан фойдаланишлари мумкин.

### Публичный блокчейн

**uz** - ommaviy blokcheyn

оммавий блокчейн

**en** - public blockchain

Блокчейн с неограниченным числом участников, каждый из которых может заниматься майнингом. К публичным блокчейнам относятся все существующие криптовалюты – Bitcoin, Ethereum и др.

Har biri ma'ning bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan ishtirokchilarning cheklanmagan soniga ega bo'lgan blokcheyn. Bitcoin, Ethereum va shu kabi barcha mavjud kriptovalyutalar ommaviy blokcheynlarga taalluqlidir.

Ҳар бири майнинг билан шуғулланиши мумкин бўлган иштирокчиларнинг чекланмаган сонига эга бўлган блокчейн. Bitcoin, Ethereum ва шу каби барча мавжуд криптовалюталар оммавий блокчейнларга тааллуқлидир.

### Публичный ключ

**uz** - ommaviy kalit

оммавий калит

**en** - public key

Буквенно-цифровая строка, известная обществу. Используется наряду с держащимся в секрете приватным ключом для подписи транзакций. В случае с биткоином публичный ключ – это адрес вашего кошелька.

Jamoatchilikka ma'lum bo'lgan harf-raqamli qator. Tranzaksiyalarni imzolash uchun mo'ljallangan maxfiy saqlanadigan xususiy kalit bilan bir qatorda foydalaniladi. Bitkoinli holatda ommaviy kalit – bu sizning karmoningiz adresidir.

Жамоатчиликка маълум бўлган ҳарф-рақамли қатор. Транзакцияларни имзолаш учун мўлжалланган махфий сақланадиган хусусий калит билан бир қаторда фойдаланилади. Биткоинли ҳолатда оммавий калит – бу сизнинг кармонингиз адресидир.

### Пункт общественного доступа к Интернету

**uz** - Internetdan ommaviy

foydalanish punkti

Место оказания пользователям платных или бесплатных услуг доступа к Интернету.

Foydalanuvchilarga Internetdan foydalanish bo'yicha

## П

Интернетдан оммавий  
фойдаланиш пункти  
**en** - point of public access to  
the Internet

pulli yoki bepul xizmatlar ko'rsatish joyi.

Фойдаланувчиларга Интернетдан фойдаланиш  
бўйича пулли ёки бепул хизматлар кўрсатиш  
жойи.

## Р

**Развитие с использованием  
ИКТ**

**uz** - AKTdan foydalangan  
holda rivojlanish

AKTдан фойдаланган  
холда ривожланиш

**en** - e-development

Социально-экономическое развитие, основанное  
на массовом использовании ИКТ.

AKTdan ommaviy foydalanishga asoslangan  
ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

AKTдан оммавий фойдаланишга асосланган  
ижтимоий-иқтисодий ривожланиш.

**Распределённый реестр  
данных**

**uz** - ma'lumotlarning  
taqsimlangan reyestri

маълумотларнинг  
таксимланган реестри

**en** - distributed data registry

Информационная система, включающая в себя  
базу данных распределенного типа, в которой со-  
держатся сведения об определенных фактах  
и/или записи о праве на определенное иму-  
щество, подтверждение действительности кото-  
рых осуществляется посредством заранее опре-  
деленных алгоритмов.

Taqsimlangan turdagi ma'lumotlar bazasini o'z  
ichiga olgan muayyan omillar to'g'risidagi  
ma'lumotlar saqlanadigan va/yoki axborot tizimi  
haqiqatga to'g'riligini tasdiqlash, oldindan  
aniqlangan algoritmlar vositasida amalga  
oshiriladigan axborot tizimi.

Таксимланган турдаги маълумотлар базасини ўз  
ичига олган муайян омиллар тўғрисидаги  
маълумотлар сақланадиган ва/ёки ахборот  
tizimi haqiqatga tўғрилигини тасдиқлаш,  
олдиндан аниқланган алгоритмлар воситасида  
амалга ошириладиган ахборот tizimi.

**Распределенный реестр  
цифровых транзакций**

**uz** - raqamli tranzaksiyalarning  
taqsimlangan reyestri

Систематизированная база цифровых транзакций,  
которые хранятся, одновременно создаются и об-  
новляются на всех носителях у всех участников  
реестра на основе заданных алгоритмов, обеспе-

## Р

рақамли транзакцияларнинг тақсимланган реестри  
**en** - distributed registry  
digital transactions

чивающих ее тождественность у всех пользователей реестра.

Barcha reyestr foydalanuvchilarida, uning o'xshashligini ta'minlaydigan ma'lum algoritmlar asosida barcha tashuvchilarda saqlanadigan, bir vaqtning o'zida yaratiladigan va yangilanadigan raqamli tranzaksiyalarning tizimlashtirilgan bazasi.

Барча реестр фойдаланувчиларида, унинг ўхшашлигини таъминлайдиган маълум алгоритмлар асосида барча ташувчиларда сақланадиган, бир вақтнинг ўзида яратиладиган ва янгиланадиган рақамли транзакцияларнинг тизимлаштирилган базаси.

**Распределенный цифровой финансовый актив**

**uz** - taqsimlangan raqamli moliyaviy aktiv

тақсимланган рақамли молиявий актив

**en** - distributed digital financial asset

Цифровой финансовый актив, не имеющий конкретного эмитента, появляющийся на разных этапах существования автономных проектов, реализуемый на технологиях распределенного реестра.

Muayyan emitentga ega bo'lmagan, taqsimlangan reyestr texnologiyalari asosida amalga oshiriladigan avtonom loyihalar mavjudligining turli bosqichlarida yuzaga keladigan raqamli moliyaviy aktiv.

Муайян эмитентга эга бўлмаган, тақсимланган реестр технологиялари асосида амалга ошириладиган автоном лойиҳалар мавжудлигининг турли босқичларида юзага келади рақамли молиявий актив.

**Расширенная реальность**

**uz** - kengaytirilgan reallik

кенгайтирилган реаллик  
**en** - augmented reality AR

1. Результат введения в поле восприятия любых сенсорных данных с целью дополнения сведений об окружении и улучшения восприятия информации.

2. Воспринимаемая смешанная реальность, создаваемая с использованием «дополненных» с помощью компьютера элементов воспринимаемой реальности (когда реальные объекты монтируются в поле восприятия).

1. Idrok etish maydoniga, muhit to'g'risidagi ma'lu-

## Р

motlar bilan to'ldirish va axborot o'zlashtirilishini yaxshilash maqsadida, har qanday sensorli ma'lumotlarni kiritish natijasi.

2. Kompyuter yordamida «to'ldirilgan» qabul qilinadigan haqiqiylik elementlaridan foydalangan holda (real obyektlar idrok etish maydoniga montaj qilinganda) yaratiladigan qabul qilinadigan aralash reallik.

1. Идрок этиш майдонига мухит тўғрисидаги маъ-лумотлар билан тўлдириш ва ахборот ўзлаштирилишини яхшилаш мақсадида ҳар қандай сенсорли маълумотларни киритиш натижаси.

2. Компьютер ёрдамида «тўлдирилган» қабул қилинадиган ҳақиқийлик элементларидан фойдаланган ҳолда (реал объектлар идрок этиш майдонига монтаж қилинганда) яратиладиган қабул қилинадиган аралаш реаллик.

### **Регламент электронной государственной услуги**

**uz** - elektron davlat xizmatining reglamenti

электрон давлат хизматининг регламенти  
**en** - regulations of electronic state services

Нормативно-правовой акт, определяющий порядок и требования к оказанию электронной государственной услуги.

Elektron davlat xizmatini ko'rsatish tartibini va qo'yiladigan talablarni belgilaydigan normativ-huquqiy hujjat.

Электрон давлат хизматини кўрсатиш тартибини ва қўйиладиган талабларни белгилайдиган норматив-ҳуқуқий ҳужжат.

### **Регулятор технологий**

**uz** - texnologiyalarni rostlagich  
технологияларни ростлагич  
**en** - regulatory technology

Одно из многих современных понятий на финансовом рынке, включающее слово «технологии». Это технология, призванная обеспечить «стреми-тельные, перестраиваемые, простые в интеграции, надежные, безопасные и экономичные» решения, соответствующие стандартам регулятора.

Moliya bozoridagi, «texnologiyalar» so'zini o'z ichiga olgan ko'plab zamonaviy tushunchalardan biri. Bu, rostlagich standartlariga muvofiq keladigan «integratsiyalashuvda jadal, o'zgartiriladigan, oddiy, ishonchli, xavfsiz va tejankor» qarorlarni

## Р

ta'minlashga mo'ljallangan texnologiya.

Молия бозоридаги «технологиялар» сўзини ўз ичига олган кўплаб замонавий тушунчалардан бири. Бу ростлагич стандартларига мувофиқ келадиган «интеграциялашувда жадал, ўзгартириладиган, оддий, ишончли, хавфсиз ва тежамкор» қарорларни таъминлашга мўлжалланган технология.

### **Реестр цифровых транзакций**

**uz** - raqamli tranzaksiyalar reyestri

рақамли транзакциялар реестри

**en** - digital transaction registry

Систематизированная база цифровых записей, формируемая на определенный момент времени.

Muayyan vaqtga shakllantiriladigan raqamli yozuvlarning tizimlashtirilgan bazasi.

Муайян вақтга шакллантириладиган рақамли ёзувларнинг тизимлаштирилган базаси.

### **Режим интерактивный**

**uz** - interaktiv rejim

интерактив режим

**en** - interactive mode

Режим взаимодействия процесса обработки информации системы обработки информации с человеком, выражающийся в разного рода воздействиях на этот процесс, предусмотренных механизмом управления конкретной системы и вызывающих ответную реакцию процесса.

Axborotni qayta ishlash tizimi axborotni qayta ishlash jarayonining odam bilan hamkorlik rejimi. U, jarayonga ma'lum bir tizimning boshqaruv mexanizmi bilan ko'zda tutilgan va jarayonning javob reaksiyasini keltirib chiqaradigan, turli xil ta'sirlarda ifodalanadi.

Ахборотни қайта ишлаш тизими ахборотни қайта ишлаш жараёнининг одам билан ҳамкорлик режими. У, жараёнга маълум бир тизимнинг бошқарув механизми билан кўзда тутилган ва жараённинг жавоб реакциясини келтириб чиқарадиган, турли хил таъсирларда ифодаланadi.

### **Реквизиты электронного документа**

**uz** - elektron hujjat rekvizitlari

электрон ҳужжат реkvизитлари

Обязательные сведения (электронная цифровая подпись или другие её виды, дата составления, имя и адрес отправителя), которые должны содержаться в электронном документе для признания его действительным.

## Р

**en** - electronic document attributes

Elektron hujjat haqiqiy deb tan olinishi uchun, uning ichida bo'lishi kerak bo'lgan majburiy ma'lumotlar (elektron raqamli imzo yoki uning boshqa turlari, tuzilgan sana, jo'natuvchining ismi va adresi).

Электрон ҳужжат ҳақиқий деб тан олинishi учун, унинг ичида бўлиши керак бўлган мажбурий маълумотлар (электрон рақамли имзо ёки унинг бошқа турлари, тuzилган сана, жўнатувчининг иси ва адреси).

**Рекламная экспозиция**  
**uz** - reklama ekspozitsiyasi  
реклама экспозицияси  
**en** - AD Exposure

Первичный показатель эффективности Интернет-рекламы, определяющий фактическое число контактов аудитории с рекламой за определенный период времени.

Muayyan vaqt ichida auditoriyaning reklama yuzasidan amaldagi bog'lanishlari sonini aniqlaydigan Internet-reklama samaradorligining birlamchi ko'rsatkichi.

Muayyan vaqt ichida auditoriyaning reklama yuzasidan amaldagi bog'lanishlari sonini aniqlaydigan Internet-reklama samaradorligining birlamchi ko'rsatkichi.

**Рекламный охват**  
**uz** - reklama qamrovi  
реклама қамрови  
**en** - AD Reach

Первичный показатель эффективности Интернет-рекламы, определяющий число уникальных пользователей, которым был показан баннер (исключаются его повторные показы) за определенное время.

Muayyan vaqt ichida (takroran namoyish qilish hisobga olinmaydi) banner namoyish qilingan noyob foydalanuvchilar sonini aniqlaydigan Internet-reklama samaradorligining birlamchi ko'rsatkichi.

Muayyan vaqt ichida (takroran namoyish qilish hisobga olinmaydi) banner namoyish qilingan noyob foydalanuvchilar sonini aniqlaydigan Internet-reklama samaradorligining birlamchi ko'rsatkichi.

## Р

### Ресурс

**uz** - resurs

ресурс

**en** - resource

1. Логическая или физическая часть системы, которая может быть выделена пользователю или процессу.

2. Любой из компонентов вычислительной системы и предоставляемые ею возможности.

1. Tizimning, foydalanuvchiga yoki jarayonga ajratilishi mumkin bo'lgan, mantiqiy yoki fizik qismi.

2. Hisoblash tizimi komponentlaridan istalgani va u taqdim etadigan imkoniyatlar.

1. Tizimning foydalanuvchiga e'ki jara'onga ajratilishi mumkin bo'lgan mantiqiy e'ki fizik qismi.

2. Hisoblash tizimi komponentlaridan istalgani va u taqdim etadigan imkoniyatlar.

### Ресурс информационный

**uz** - axborot resursi

ахборот ресурси

**en** - information resources

1. Отдельные документы, отдельные массивы документов, документы и массивы документов в информационных системах (библиотеках, архивах, фондах, банках данных и других).

2. Совокупность хранимых (используемых для обеспечения процессов функционирования), обрабатываемых и передаваемых данных, содержащих информацию пользователей или системы управления сети связи общего пользования.

3. Совокупность информации как продукт интеллектуальной деятельности общества.

4. Информация, банк данных, база данных в электронной форме в составе информационной системы.

1. Axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi.

2. Umumiy foydalanishdagi aloqa tarmog'i boshqaruv tizimini yoki foydalanuvchilarning axborotini o'z ichiga oluvchi, saqlanadigan (faoliyat yuritish jarayonlarini ta'minlash uchun foydalaniladigan), qayta ishlanadigan va uzatiladigan ma'lumotlar majmui.

3. Jamiyat intellektual faoliyatining mahsuloti sifatidagi axborot majmui.



## Р

4. Axborot tizimi tarkibidagi elektron shaklda boʻlgan axborot, maʼlumotlar banki, maʼlumotlar bazasi.

1. Axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, maʼlumotlar banki, maʼlumotlar bazasi.

2. Умумий фойдаланишдаги алоқа тармоғи бошқарув тизимини ёки фойдаланувчиларнинг ахборотини ўз ичига олувчи, сақланадиган (фаолият юритиш жараёнларини таъминлаш учун фойдаланиладиган), қайта ишланадиган ва узатиладиган маълумотлар мажмуи.

3. Жамият интеллектуал фаолиятининг маҳсулоти сифатидаги ахборот мажмуи.

4. Axborot tizimi tarkibidagi elektron shaklda boʻlgan axborot, maʼlumotlar banki, maʼlumotlar bazasi.

### Ресурс онлайн

uz - onlayn resurs

онлайн ресурс

en - on-line resource

Ресурс, доступ к которому осуществляется в режиме реального времени посредством компьютера, подключенного к сети передачи данных.

Примечание – В виде онлайн-ресурсов может предоставляться оперативная информация или возможность работы в режиме диалога с программой или другим пользователем.

Erkin foydalanish maʼlumotlar uzatish tarmogʻiga ulangan kompyuter vositasida, real vaqt rejimida amalga oshiriladigan resurs.

Izoh – Dastur yoki boshqa foydalanuvchi bilan operativ axborot yoki dialog rejimida ishlash imkoniyati onlayn resurslar koʻrinishida taqdim etilishi mumkin.

Эркин фойдаланиш маълумотлар узатиш тармоғига уланган компьютер воситасида, реал вақт режимида амалга ошириладиган ресурс.

Изоҳ – Дастур ёки бошқа фойдаланувчи билан оператив ахборот ёки диалог режимида ишлаш имконияти онлайн ресурслар кўринишида тақдим этилиши мумкин.

### Робо-эдвайзер

uz - robo-edvayzer

робо-эдвайзер

en - robo-advisor

Автоматизированная платформа, которая предоставляет финансовые консультации и сервис по созданию и управлению инвестиционным портфелем с минимальным вмешательством человека.

## Р

Робо-эдвайзер также называют «автоматизированным советником по инвестициям», «автоматизированным управлением инвестициями», «онлайн советником по инвестициям» и «робо-советником».

Insonning minimal aralashuvi bilan investitsiya portfelini yaratish va boshqarish uchun moliyaviy maslahat va xizmatlarni taqdim etadigan avtomatlashtirilgan platforma. Robo-edvayzer, shuningdek, «avtomatlashtirilgan investitsion maslahatchi», «investitsiyalarni avtomatlashtirilgan boshqarish», «investitsiyalar bo'yicha onlayn maslahatchi» va «robo-maslahatchi» deb ham ataladi.

Инсоннинг минимал аралашуви билан инвестиция портфелини яратиш ва бошқариш учун молиявий маслаҳат ва хизматларни тақдим этадиган автоматлаштирилган платформа. Робо-эдвайзер, шунингдек, «автоматлаштирилган инвестицион маслаҳатчи», «инвестицияларни автоматлаштирилган бошқариш», «инвестициялар бўйича онлайн маслаҳатчи» ва «робо-маслаҳатчи» деб ҳам аталади.

### **Робот как сервис**

**uz** - servis sifatidagi robot

сервис сифатидаги робот

**en** - RaaS (robots-as-a-service)

Предоставление робота (роботов, робототехнических средств) как услуга (как сервис).

Robotni (robotlar, robototexnika vositalarini) xizmat sifatida (servis sifatida) taqdim etish.

Роботни (роботлар, робототехника воситаларини) хизмат сифатида (сервис сифатида) тақдим этиш.

### **Роботизация**

**uz** - robotlashtirish

роботлаштириш

**en** - robotization

Использование интеллектуальных робототехнических комплексов, функциональные особенности которых состоят в достаточно гибком реагировании на изменения в рабочей зоне.

Funksional xususiyatlari ish joyidagi o'zgarishlarga yetarlicha moslashuvchan javob beradigan aqlli robot texnikasi komplekslaridan foydalanish.

Функционал хусусиятлари иш жойидаги

## Р

Ўзгаришларга етарлича мослашувчан жавоб берадиган ақлли робот техникаси комплексларидан фойдаланиш.

### **Рынок электронный**

**uz** - elektron bozor

электрон бозор

**en** - electronic market place

Группа поставщиков и покупателей, осуществляющих взаимодействие в единой информационно-технологической инфраструктуре.

Yagona axborot-texnologik infratuzilmada o'zaro hamkorlikni amalga oshiruvchi yetkazib beruvchilar va xaridorlar guruhi.

Ягона ахборот-технологик инфратузилмада ўзаро ҳамкорликни амалга оширувчи етказиб берувчилар ва харидорлар гурухи.

## С

### **Сайт в сети Интернет**

**uz** - Internet tarmog'ida gi sayt

Интернет тармоғидаги

сайт

**en** - website on the Internet

Структурированный набор информации, имеющий IP-адрес и дополнительно доменное имя.

IP-adresga va qo'shimcha ravishda domen nomiga ega strukturalangan axborot to'plami.

IP-адресга ва қўшимча равишда домен номига эга структураланган ахборот тўплами.

### **Семантический сервис**

**uz** - semantik servis

семантик сервис

**en** - semantic service

Сервис, который представляет собой серверную систему клиент-сервер для M2M через WWW.

WWW orqali M2M uchun mijoz-serverning server tizimidan iborat servis.

WWW орқали M2M учун mijoz-serverning server tizimidan iborat servis.

### **Сервис композиция**

**uz** - servis kompozitsiya

сервис композиция

**en** - service composition

Набор услуг, где многие более мелкие услуги объединяются вместе для более широкого обслуживания.

Ko'plab mayda xizmatlar yanada kengroq xizmat ko'rsatish uchun birlashadigan xizmatlar to'plami.

## С

Кўплаб майда хизматлар янада кенгроқ хизмат кўрсатиш учун бирлашадиган хизматлар тўплами.

### **Сервисные модели**

**uz** - xizmat ko'rsatish modellari

хизмат кўрсатиш

моделлари

**en** - service models

Модели, основанные на использовании ресурсов взамен владения. Сервисные модели способствуют персонализации товаров и услуг, позволяя клиенту потреблять необходимый продукт в требуемых ему объемах для достижения желаемого результата (среди них Software-as-a-Service (SaaS), Infrastructure-as-a-Service (IaaS), Robots-as-a-Service, City-as-a-Service и др).

Egalik qilish evaziga resurslardan foydalanishga asoslangan modellar. Xizmat ko'rsatish modellari ko'zlangan natijaga erishish uchun mijozga kerakli hajmda zarur mahsulotdan foydalanish imkonini beradigan tovarlar va xizmatlarni shaxsiylashtirishga yordam beradi (ular Software-as-a-Service (SaaS), Infrastructure-as-a-Service (IaaS), Robots-as-a-Service, City-as-a-Service va b.lar).

Эгалик қилиш эвазига ресурслардан фойдаланишга асосланган моделлар. Хизмат кўрсатиш моделлари кўзланган натижага эришиш учун миқозга керакли ҳажмда зарур маҳсулотдан фойдаланиш имконини берадиган товарлар ва хизматларни шахсийлаштиришга ёрдам беради (улар Software-as-a-Service (SaaS), Infrastructure-as-a-Service (IaaS), Robots-as-a-Service, City-as-a-Service ва б.лар).

### **Сертификат ключа электронно-цифровой подписи**

подписи

**uz** - elektron raqamli imzo

kaliti sertifikati

электрон рақамли имзо

калити сертификати

**en** - certificate key of electronic digital signature

1. Документ, выданный и заверенный центром регистрации, подтверждающий принадлежность открытого ключа электронной цифровой подписи определенному юридическому или физическому лицу.

Примечание – Сертификат может содержать дополнительную информацию, необходимую для обеспечения безопасности использования открытого ключа электронной цифровой подписи. В случае, когда сертификат выдается в форме электронного документа, он подписывается электронной-цифровой подписью этого центра.

2. Документ, подтверждающий принадлежность

## С

открытого ключа электронной цифровой подписи владельцу сертификата ключа подписи, выданный и заверенный центром регистрации.

1. Ro‘yxatga olish markazi tomonidan berilgan va tasdiqlangan, elektron raqamli imzo ochiq kaliti muayyan yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishliligini tasdiqlaydigan hujjat.

Izoh – Sertifikat elektron raqamli imzo ochiq kalitidan foydalanish xavfsizligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha axborotni ichiga olishi mumkin. Sertifikat elektron hujjat shaklida berilganda, ushbu Markazning elektron raqamli imzosi bilan imzolanadi.

2. Ro‘yxatga olish markazi tomonidan berilgan va tasdiqlangan, elektron raqamli imzo ochiq kaliti imzo kaliti sertifikatining egasiga tegishliligini tasdiqlaydigan hujjat.

1. Рўйхатга олиш маркази томонидан берилган ва тасдиқланган, электрон рақамли имзо очик калитининг муайян юридик ёки жисмоний шахсга тегишлилигини тасдиқлайдиган хужжат.

Изоҳ – Сertifikat электрон рақамли имзо очик калитидан фойдаланиш хавфсизлигини таъминлаш учун зарур бўлган қўшимча ахборотни ичига олиши мумкин. Сertifikat электрон хужжат шаклида берилганда, ушбу марказнинг электрон рақамли имзоси билан имзоланади.

2. Рўйхатга олиш маркази томонидан берилган ва тасдиқланган, электрон рақамли имзо очик калити имзо калити сертификатининг эгасига тегишлилигини тасдиқлайдиган хужжат.

### **Сетевая организация**

**uz** - tarmoqli tashkilot

тармоқли ташкилот

**en** - network organisation

1. Организация, использующая в управлении производством и бизнесом сетевые связи, отношения и технологии.

2. Юридическое лицо Республики Узбекистан, осуществляющее торговлю на территории Республики Узбекистан самостоятельно либо через сбытовых агентов, путем сетевого маркетинга.

1. Ishlab chiqarish va biznesni boshqarishda tarmoq aloqalari, munosabatlari va texnologiyalaridan foydalanadigan tashkilot.

2. O‘zbekiston Respublikasi hududida mustaqil

## С

ravishda yoxud tarmoq marketingi yoʻli bilan sotuvchi agentlar orqali savdoni amalga oshiruvchi Oʻzbekiston Respublikasining yuridik shaxsi.

1. Ишлаб чиқариш ва бизнесни бошқаришда тармоқ алоқалари, муносабатлари ва технологияларидан фойдаланадиган ташкилот.

2. Ўзбекистон Республикаси ҳудудида мустақил равишда ёхуд тармоқ маркетинги йўли билан сотувчи агентлар орқали савдони амалга оширувчи Ўзбекистон Республикасининг юридик шахси.

### Сетевая экономика

**uz** - tarmoq iqtisodiyoti

тармоқ иқтисодиёти

**en** - network economy

1. Экономика, осуществляемая с помощью электронных сетей. Основа сетевой экономики – сетевые организации.

2. Среда, в которой любая компания или индивид, находящиеся в любой точке экономической системы, могут контактировать легко и с минимальными затратами с любой другой компанией или индивидом по поводу совместной работы, торговли, обмена идеями или ноу-хау.

1. Elektron tarmoqlar yordamida amalga oshiriladigan iqtisodiyot. Tarmoqli tashkilotlar tarmoq iqtisodiyotining asosi boʻlib hisoblanadi.

2. Iqtisodiyot tizimining istalgan nuqtasida joylashgan har qanday kompaniya yoki shaxs har qanday boshqa kompaniya yoki shaxs bilan birgalikdagi faoliyat, savdo, fikr almashish yoki nou-xau yuzasidan oson va kam xarajatlar bilan munosabat oʻrnatishi mumkin boʻlgan muhit.

1. Электрон тармоқлар ёрдамида амалга ошириладиган иқтисодиёт. Тармоқли ташкилотлар тармоқ иқтисодиётининг асоси бўлиб ҳисобланади.

2. Иқтисодиёт тизимининг исталган нуқтасида жойлашган ҳар қандай компания ёки шахс ҳар қандай бошқа компания ёки шахс билан биргаликдаги фаолият, савдо, фикр алмашиш ёки ноу-хау юзасидан осон ва кам харажатлар билан муносабат ўрнатиши мумкин бўлган муҳит.

## С

### **Сетевое общество**

**uz** - tarmoq jamiyati

тармоқ жамияти

**en** - network society

Общество, в котором значительная часть информационных взаимодействий производится с помощью электронных сетей.

Axborot hamkorligining katta qismi elektron tarmoqlar yordamida amalga oshiriladigan jamiyat.

Ахборот ҳамкорлигининг катта қисми электрон тармоқлар ёрдамида амалга ошириладиган жамият.

### **Сетевой маркетинг**

**uz** - tarmoqli marketing

тармоқли маркетинг

**en** - network marketing

Разновидность розничной реализации товаров, основанной на создании сетевой организации сети сбытовых агентов, распространяющих товары самостоятельно.

Tarmoqli tashkilot tomonidan tovarlarni mustaqil tarqatadigan sotuvchi agentlar tarmogʻi tashkil etilishiga asoslangan tovarlarni chakana sotish turi.

Тармоқли ташкилот томонидан товарларни мустақил тарқатадиган сотувчи агентлар тармоғи ташкил этилишига асосланган товарларни чакана сотиш тури.

### **Сетевые технологии**

**uz** - tarmoq texnologiyalari

тармоқ технологиялари

**en** - network technologies

Определённым образом оформленный блок данных, передаваемый по сети в пакетном режиме. Компьютерные линии связи, которые не поддерживают пакетный режим, как, например, традиционная телекоммуникационная связь точка-точка, передают данные просто в виде последовательности байтов, символов или битов поодиночке.

Tarmoq orqali paketli rejimda uzatiladigan, muayyan tarzda rasmiylashtirilgan ma'lumotlar bloki. Paketli rejimni qo'llab-quvvatlamaydigan, masalan nuqta-nuqta turidagi an'anaviy telekommunikatsiya aloqasi kabi kompyuter aloqa liniyalari, ma'lumotlarni bittalab, faqat baytlar, simvollar yoki bitlar ketma-ketligi ko'rinishida uzatadi.

Тармоқ орқали пакетли режимда узатиладиган,

## С

муайян тарзда расмийлаштирилган маълумотлар блоки. Пакетли режимни қўллаб-қувватламайдиган, масалан нуқта-нуқта туридаги анъанавий телекоммуникация алоқаси каби компьютер алоқа линиялари, маълумотларни битталаб, фақат байтлар, символлар ёки битлар кетма-кетлиги кўринишида узатади.

### Сетеобразование

**uz** - tarmoq shakllanishi

тармоқ шаклланиши

**en** -networking

Процесс образования электронных сообществ, основанный на добровольном и иногда бесплатном обмене информацией по интересам.

Manfaatlariga ko'ra, axborotni ixtiyoriy tartibda va ba'zida bepul almashishga asoslangan elektron hamjamiyatlarni tashkil qilish jarayoni.

Манфаатларига кўра, ахборотни ихтиёрий тартибда ва баъзида бепул алмашишга асосланган электрон ҳамжамиятларни ташкил қилиш жараёни.

### Сети электронных коммуникаций

**uz** - elektron kommunikasiyalar tarmoqlari

электрон коммуникациялар тармоқлари

**en** - electronic communications network

Электронная система осуществления сделок купли-продажи биржевых товаров, которая пытается устранить роль посредников.

Vositachilar rolini bartaraf qilishga urinuvchi, birja tovarlarining oldi-sotti bitimlarini amalga oshiradigan elektron tizim.

Воситачилар ролини бартараф қилишга уринувчи, биржа товарларининг олди-сотти битимларини амалга оширадиган электрон тизим.

### Сеть всемирная

**uz** - butunjahon tarmog'i

бутунжаҳон тармоғи

**en** - World Wide Web; WWW

1. Гипертекстовая система поиска ресурсов в Интернете и доступа к ним.

Примечание – World Wide Web предоставляет набор услуг Интернета, позволяющий просмотреть любые данные, хранящиеся в компьютерах этой сети через систему связывающих их гиперссылок.

2. Множество веб-узлов, к которым осуществляется доступ по Интернету.

1. Internetda resurslarni izlashning va ulardan foydalanishning gipermatnli tizimi.

Izoh – World Wide Web bu tarmoq kompyuterlarida saqla-



## С

nadigan har qanday ma'lumotni, ularni bog'laydigan giperhavolalar tizimi orqali ko'rib chiqish imkonini beradigan Internet xizmatlari to'plamini taqdim etadi.

2. Internet orqali foydalana olish amalga oshiriladigan veb-uzellar ko'pligi.

1. Интернетда ресурсларни излашнинг ва улардан фойдаланишнинг гиперматнли тизими.

Изоҳ – World Wide Web бу тармоқ компьютерларида сақланадиган ҳар қандай маълумотни, уларни боғлайдиган гиперҳаволалар тизими орқали кўриб чиқиш имконини берадиган Интернет хизматлари тўпламини тақдим этади.

2. Интернет орқали фойдалана олиш амалга ошириладиган веб-узеллар кўплиги.

### **Сеть Интернет**

**uz** - Internet tarmog'i

Интернет тармоғи

**en** - Internet network

Глобальная международная сеть (управляемое сообщество сетей), состоящая из многих сетей, которые работают согласно единому протоколу TCP/IP, объединены с помощью шлюзов и используют единое адресное пространство и пространство имен.

Yagona adres va nomlar makonidan foydalani-ladigan, shlyuzlar yordamida birlashtirilgan, yagona TSR/IP protokoliga muvofiq ishlaydigan ko'plab tarmoqlardan iborat global xalqaro tarmoq (boshqariladigan tarmoqlar birlashmasi).

Ягона адрес ва номлар маконидан фойдаланила-диган, шлюзлар ёрдамида бирлаштирилган, ягона TCP/IP протоколига мувофиқ ишлайдиган кўплаб тармоқлардан иборат глобал халқаро тармоқ (бошқариладиган тармоқлар бирлашмаси).

### **Сеть Экстранет**

**uz** - Ekstranet tarmog'i

Экстранет тармоғи

**en** - Extranet

Расширение закрытой корпоративной интрасети, связывающее между собой клиентов, поставщи-ков, субподрядчиков, деловых партнеров и дру-гие внешние по отношению к организации сто-роны, которым для более эффективного ведения бизнеса необходим выборочный доступ к инфор-мационной системе организации.

Yopiq korporativ intratarmoqni kengaytirish. Mijoz-lar, yetkazib beruvchilar, subpudratchilar, amaliy

## С

hamkorlarni va tashkilotga nisbatan tashqi biznesni yanada samaraliroq yuritish uchun tashkilotning axborot tizimidan tanlab foydalanish zarur bo'lgan tarmoqlarni o'zaro bog'laydi.

Ёпиқ корпоратив интратармоқни кенгайтириш. Мижозлар, етказиб берувчилар, субпудратчилар, амалий ҳамкорларни ва ташкilotга нисбатан ташқи бизнесни янада самаралироқ юритиш учун ташкilotнинг ахборот тизимидан танлаб фойдаланиш зарур бўлган тармоқларни ўзаро боғлайди.

### Сеть IOTA

**uz** - IOTA tarmog'i

IOTA тармоғи

**en** - IOTA

Криптовалюта проекта обменной сети для Интернета вещей. Уникальность IOTA также заключается в том, что участники сети не делятся на пользователей и валидаторов транзакций. Каждый узел и отправляет, и подтверждает транзакции, которые не упаковываются в блоки (что отличает токены IOTA от подавляющего большинства остальных цифровых валют). Пропускная способность сети IOTA пропорциональна числу узлов и их активности.

Buyumlar Interneti uchun mo'ljallangan almashinuv tarmog'i loyihasining kriptovalyutasi. IOTAning noyobligi tarmoq ishtirokchilari tranzaksiyalardan foydalanuvchilari va validatorlariga bo'linmasligidan iborat. Har bir uzel bloklarga joylanmaydigan tranzaksiyalarni jo'natadi hamda tasdiqlaydi (bu IOTA tokenlarini boshqa raqamli valyutalarning ko'pidan farqlaydi). IOTA tarmog'ining o'tkazish qobiliyati uzellar soniga va ularning faolligiga to'g'ri proporsional.

Буюмлар Интернети учун мўлжалланган алмашув тармоғи лойиҳасининг криптовалютаси. IOTAnинг ноёблиги тармоқ иштирокчилари транзакциялардан фойдаланувчилар ва валидаторларга бўлинмаслигидан иборат. Ҳар бир узел блокларга жойланмайдиган транзакцияларни жўнатади ҳамда тасдиқлайди (бу IOTA токенларини бошқа рақамли валюталарнинг кўпидан фарқлайди). IOTA тармоғининг ўтказиш қоби-

## С

### **Серфинг**

**uz** - serfing

серфинг

**en** - surfing

лияти узеллар сонига ва уларнинг фаоллигига пропорционал.

1. Получение доступа к ресурсам.
2. Беспорядочный несанкционированный поиск представляющей интерес информации в сети.

1. Resurslardan erkin foydalana olish.
2. Tarmoqda qiziqish uyg'otuvchi axborotni ruxsat etilmagan tarzda, tartibsiz qidirish.

1. Resurslardan erkin foydalana olish.
2. Tarmoqda qiziqish uyg'otuvchi axborotni ruxsat etilmagan tarzda, tartibsiz qidirish.

электрон хужжат  
айланиши иштирокчиси  
**en** - participants of electronic  
documents circulation

Elektron hujjatni jo'natuvchi va elektron hujjatni oluvchi.

Izoh – Elektron hujjat aylanishida axborot vositachilari ham ishtirok etishlari mumkin.

**Участник электронной  
коммерции**  
**uz** - elektron tijorat ishtirokchisi

Электрон хужжатни жўнатувчи ва электрон хужжатни олувчи.

Изоҳ – Электрон хужжат айланишида ахборот воситачилари ҳам иштирок этишлари мумкин.

Юридическое и физическое лицо, осуществляющее электронную коммерцию, а также юридические и физические лица, являющиеся поку-

## У

электрон тижорат  
иштирокчиси  
**en** - participants of electronic  
commerce

пателями соответствующих товаров (работ,  
услуг).

Elektron tijoratni amalga oshiruvchi jismoniy va  
yuridik shaxs, shuningdek, tegishli tovarlar (ishlar,  
xizmatlar) xaridorlari hisoblanadigan yuridik va  
jismoniy shaxslar.

**Учреждение в сфере  
электронных денег**  
**uz** - elektron pullar sohasidagi  
muassasa

Электрон тижоратни амалга оширувчи жисмоний  
ва юридик шахс, шунингдек, тегишли товарлар  
(ишлар, хизматлар) харидорлари ҳисобланадиган  
юридик ва жисмоний шахслар.

электрон пуллар  
соҳасидаги муассаса  
**en** - electronic money (cash)  
institution

Предприятие или любое юридическое лицо  
(иное, нежели кредитное учреждение), которое  
выпускает средства платежа в форме электрон-  
ных денег.

To'lov vositalarini elektron pullar shaklida chiqaradigan (kredit muassasasidan boshqa) korxonaga yoki har qanday yuridik shaxs.

**Учреждение кредитное**  
**uz** - kredit muassasa  
кредит муассаса  
**en** - credit institution

Тўлов воситаларини электрон пуллар шаклида  
чиқарадиган (кредит муассасасидан бошқа)  
корхона ёки ҳар қандай юридик шахс.

Предприятие, деятельность которого состоит в  
принятии депозитов или других, подлежащих  
возврату денежных средств, от неограниченного  
круга лиц и предоставлении кредитов за свой  
счет.

Faoliyati cheklanmagan doiradagi shaxslardan  
depozitlar yoki boshqa, qaytarilishi zarur bo'lgan pul  
mablag'larini qabul qilish va o'z hisobidan kreditlar  
taqdim etishdan iborat bo'lgan korxonaga.

Фаолияти чекланмаган доирадаги шахслардан  
депозитлар ёки бошқа, қайтарилиши зарур бўлган  
пул маблағларини қабул қилиш ва ўз ҳисобидан  
кредитлар тақдим этишдан иборат бўлган  
корхона.

## Ф

### **Ферма криптовалют**

**uz** - kriptovalyutalar fermasi

криптовалюталар

фермаси

**en** - cryptocurrency farm

Ферма, представляющая собой компьютерную систему, которая генерирует виртуальную валюту. Компьютерные системы решают математические задачи, в результате их решения создаются биткойны.

Virtual valyutani generatsiyalaydigan kompyuter tizimini oʻzida ifodalaydigan ferma. Kompyuter tizimlari matematik masalalarni yechishi natijasida bitkoinlar yaratiladi.

Виртуал валютани генерациялайдиган компьютер тизимини ўзида ифодалайдиган ферма. Компьютер тизимлари математик масалаларни ечиши натижасида биткойнлар яратилади.

### **Фиатные деньги**

**uz** - fiat pullar

фиат пуллар

**en** - fiat money

Обычная законная валюта любой страны, которую используют для покупки и обмена криптовалюты.

Har bir mamlakatning, kriptovalyutani sotib olish va ayirboshlash uchun foydalaniladigan oddiy qonuniy valyutasi.

Ҳар бир мамлакатнинг криптовалютани сотиб олиш ва айирбошлаш учун фойдаланиладиган оддий қонуний валютаси.

### **Финансовая инклюзивность**

**uz** - moliyaviy inklyuzivlik

молиявий инклюзивлик

**en** - financial inclusion

Термин, относящийся к финансовым продуктам и сервисам, которые призваны обеспечить более доступные банковские инструменты людям, не охваченным банковскими услугами. В финтехе это означает использование технологий, например, мобильных телефонов, чтобы предоставить более дешевые услуги тем, кто до этого времени находился за пределами внимания банков и финансовых компаний по ряду разных причин.

Bank xizmatlari bilan qamrab olinmagan odamlarni yanada ochiq bank vositalari bilan taʼminlashga qaratilgan moliya mahsulotlari va xizmatlariga taalluqli atama. Moliyaviy texnologiyalarda bu shu vaqtga qadar turli sabablarga koʻra, banklar va moliyaviy kompaniyalar eʼtiboridan chetda qolganlarga ancha arzon xizmatlarni taqdim etish uchun



## Ф

texnologiyalardan, masalan mobil telefonlardan foydalanishni anglatadi.

Банк хизматлари билан қамраб олинмаган одамларни янада очиқ банк воситалари билан таъминлашга қаратилган молия маҳсулотлари ва хизматларига тааллуқли атама. Молиявий технологияларда бу, шу вақтга қадар турли сабабларга кўра, банклар ва молиявий компаниялар эътиборидан четда қолганларга анча арзон хизматларни тақдим этиш учун технологиялардан, масалан мобил телефонлардан фойдаланишни англатади.

### **Финансовые технологии**

**uz** - moliyaviy texnologiyalar  
молиявий технологиялар  
**en** - fintech

Сектор, известный благодаря инновационным разработкам в сфере программного обеспечения и технологий в финансовой сфере. В широком понимании финтех включает в себя абсолютно все – от банкоматов до программного обеспечения для управления спот-позициями на фондовом рынке.

Moliya sohasining dasturiy ta'minot va texnologiyalar doirasidagi innovatsion ishlanmalar tufayli ma'lum bo'lgan sektor. Keng ma'noda, moliyaviy texnologiyalar fond bozorida spot-pozitsiyalarni boshqarish uchun bankomatlardan boshlab dasturiy ta'minotgacha bo'lgan hammasini o'z ichiga oladi.

Молия соҳасидаги дастурий таъминот ва технологиялар доирасидаги инновацион ишланмалар туфайли маълум бўлган сектор. Кенг маънода, молиявий технологиялар фонд бозорида спот-позицияларни бошқариш учун банкоматлардан бошлаб дастурий таъминотгача бўлган ҳаммасини ўз ичига олади.

### **Фишинг**

**uz** - fishing  
фишинг  
**en** - fishing

1. Вид Интернет-мошенничества, целью которого является получение доступа к конфиденциальным данным пользователей – логинам и паролям. Примечание – Это достигается путём проведения массовых рассылок электронных писем от имени популярных брендов, а также личных сообщений внутри различных сервисов, например, от имени банков или внутри социальных сетей.

## Ф

2. Одна из разновидностей социальной инженерии, основанная на незнании пользователями основ сетевой безопасности: в частности, многие не знают простого факта: сервисы не рассылают писем с просьбами сообщить свои учетные данные, пароль и прочее.

1. Maqsadi foydalanuvchilarning konfidensial ma'lumotlari – loginlari va parollariga kirish hisoblanadigan Internet-firibgarlik turi.

Izoh – Bunga mashhur brendlar nomidan elektron xatlarni ommaviy yuborish orqali, shuningdek, turli servislarning ichida shaxsiy xabarlar orqali erishiladi, masalan, bank nomidan yoki sotsial tarmoq ichida.

2. Sotsial injeneriyaning turli ko'rinishlaridan biri, foydalanuvchilarning tarmoq xavfsizligi asoslarini bilmasligiga asoslangan: xususan, ko'pchilik oddiy fakti bilmaydi: servislar o'zining hisob ma'lumotlari, parol yoki boshqa xabarlarni berish haqidagi xatlarni jo'natmaydi.

1. Maqsadi foydalanuvchilarning konfidensial ma'lumotlari – loginlari va parollariga kirish hisoblanadigan internet-firibgarlik turi.

Izoh – Bunga mashhur brendlar nomidan elektron xatlarни ommaviy yuborish orqali, shuningdek, turli servislarning ichida shaxsiy xabarlar orqali erishiladi, masalan, bank nomidan ёки sotsial tarmoq ichida.

2. Sotsial injeneriyaning turli ko'rinishlaridan biri, foydalanuvchilarning tarmoq xavfsizligi asoslarini bilmasligiga asoslangan: xususan, ko'pchilik oddiy fakti bilmaydi: servislar o'zining hisob ma'lumotlari, parol ёки boshqa xabarlarни berish haqidagi xatlarни jo'natmaydi.

Создание в различных криптовалютах новых блоков в блокчейне на основе подтверждения доли владения с возможностью получить вознаграждение в форме новых единиц и комиссионных сборов.

Komission yig'imglar va yangi birliklar shaklida mukofot olish imkoniyati bo'lgan holda, egalik ulushini tasdiqlash asosida turli kriptovalyutalarda

**Форжинг**  
**uz** - forjning  
форжинг  
**en** - forcing

## Ф

blokcheyndagi yangi bloklarni yaratish.

Комиссион йиғимлар ва янги бирликлар шаклида мукофот олиш имконияти бўлган ҳолда, эгалик улушини тасдиқлаш асосида турли криптовалюталарда блокчейндаги янги блокларни яратиш.

### Форк

**uz** - fork

форк

**en** - fork

Использование кодовой базы программного проекта в качестве старта для другого.

Примечание – При этом основной проект может как продолжать существование, так и прекратить его. Ответственный проект может поддерживать и обмениваться частью содержимого с основным проектом, а может и приобрести абсолютно другие свойства, перестав иметь с базовым проектом что-то общее.

Dasturiy ta'minot loyihasining kod bazasini boshqasi uchun boshlang'ich sifatida ishlatish.

Izoh – Bunda asosiy loyiha mavjud bo'lishi hamda yo'q bo'lishi mumkin. Tarmoqlangan loyiha asosiy loyiha bilan tarkibining bir qismi bilan almashishi va ta'minlashi, shuningdek, asosiy loyiha bilan biror umumiylikka ega bo'lmagan holda, mutlaqo boshqa xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Дастурий таъминот лойиҳасининг код базасини бошқаси учун бошланғич сифатида ишлатиш.

Изоҳ – Бунда асосий лойиҳа мавжуд бўлиши ҳамда йўқ бўлиши мумкин. Тармоқланган лойиҳа асосий лойиҳа билан таркибининг бир қисми билан алмашиши ва таъминлаши, шунингдек, асосий лойиҳа билан бирор умумийликка эга бўлмаган ҳолда, мутлақо бошқа хусусиятларга эга бўлиши мумкин.

### Формат данных

**электронного документа**

**uz** - elektron hujjat ma'lumotlarining formati

электрон хужжат

маълумотларининг формати

**en** - data formats of electronic documents

Обязательные стандартизированные структуры и типы информации, содержащейся в электронных документах, предназначенных для осуществления операций с ценными бумагами.

Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun elektron hujjatlarda mujassamlashgan axborotning majburiy standartlashtirilgan tuzilmalari va turlari.

Қимматли қоғозлар билан операцияларни амалга ошириш учун электрон хужжатларда мужассам-

## Ф

лашган ахборотнинг мажбурий стандартлаштирилган тузилмалари ва турлари.

### **Формат электронного документа**

**uz** - elektron hujjat formati

электрон ҳужжат формати

**en** - e-document format

Обязательные стандартизированные реквизиты электронного документа, установленные Законом «Об электронном документообороте» или соглашением участников системы.

«Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi Qonuni yoki tizim ishtirokchilarining kelishuvlari bilan o'rnatilgan elektron hujjatning majburiy standartlashtirilgan rekvizitlari.

«Электрон ҳужжат айланиши тўғрисида»ги Қонуни ёки тизим иштирокчиларининг келишувлари билан ўрнатилган электрон ҳужжатнинг мажбурий стандартлаштирилган реkvизитлари.

## Х

### **Хакатон**

**uz** - hakaton

хакатон

**en** – hackathon

Мероприятие, во время которого разработчики программного обеспечения объединяются и работают над решением какой-либо бизнес-проблемы с использованием современных технологий. Результат такого мероприятия – создание работающего прототипа мобильного приложения или веб-сервиса в сжатые сроки.

Dasturiy ta'minotni ishlab chiquvchilar biror-bir biznes-muammoni zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda hal etish ustida birlashadigan va ishlaydigan vaqt davomidagi tadbir. Bunday tadbirning natijasi qisqa muddatlarda mobil ilova yoki veb-servisning ishlaydigan prototipini yaratishdan iborat.

Дастурий таъминотни ишлаб чиқувчилар бирор-бир бизнес-муаммони замонавий технологияларни қўллаган ҳолда ҳал этиш устида бирлашадиган ва ишлайдиган вақт давомидаги тадбир. Бундай тадбирнинг натижаси қисқа муддатларда мобил илова ёки веб-сервиснинг ишлайдиган прототипини яратишдан иборат.

### **Хардфорк**

Изменение программного кода, которое меняет

## Х

**uz** - hardfork  
хардфорк  
**en** - hard fork

структуру блока или позволяет использовать ранее недопустимые блоки, т.е. изменение протокола биткоин.

Blokning tuzilishini o'zgartiradigan yoki oldindan yo'l qo'yilmaydigan bloklardan foydalanishga, ya'ni bitkoin protokolini o'zgartirishga imkon beradigan dasturiy kodni o'zgartirish.

Блокнинг тузилишини ўзгартирадиган ёки олдиндан йўл қўйилмайдиган блоклардан фойдаланишга, яъни биткоин протоколини ўзгартиришга имкон берадиган дастурий кодни ўзгартириш.

### **Хозяиствующий субъект**

**uz** - xo'jalik yurituvchi  
subyekt  
хўжалик юритувчи  
субъект  
**en** - economic subjects

Юридическое лицо или индивидуальный предприниматель без образования юридического лица, осуществляющее экономическую деятельность.

Yuridik shaxsni tashkil qilmagan holda iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

Юридик шахсни ташкил қилмаган ҳолда иқтисодий фаолиятни амалга оширувчи юридик шахс ёки якка тартибдаги тадбиркор.

### **Хэшрейт**

**uz** - xeshreyt  
хэшрейт  
**en** - hashrate

Единица измерения вычислительной мощности в сети биткоин.

Bitkoin tarmog'idagi hisoblash quvvatini o'lchash birligi.

Биткоин тармоғидаги ҳисоблаш қувватини ўлчаш бирлиги.

## Ц

### **Центр процессинговый**

**uz** - prosession markazi  
процессинг маркази  
**en** - procession center

Специализированная сервисная организация, которая обеспечивает обработку, поступающих от эквайеров или из точек обслуживания платежной системы, запросов на авторизацию и/или протоколы транзакций.

## Ц

To'lov tizimining xizmat ko'rsatish nuqtalaridan yoki ekvayrerlardan mualliflashtirishga va/yoki tranzaksiyalar protokollariga kelib tushadigan rasmiy so'rovlar qayta ishlanishini ta'minlashga ixtisoslashtirilgan xizmat ko'rsatuvchi tashkilot.

Tўлов тизимининг хизмат кўрсатиш нуқталаридан ёки эквайрерлардан муаллифлаштиришга ва/ёки транзакциялар протоколларига келиб тушадиган сўровлар қайта ишланишини таъминлашга ихтисослаштирилган хизмат кўрсатувчи ташкилот.

### **Цифровая дистрибуция**

**uz** - raqamli distributsiya

рақамли дистрибуция

**en** - digital distribution

Способ распространения цифровых продуктов без использования материального носителя, в том числе путем их загрузки (скачивания) через всемирную информационную сеть Интернет на персональный компьютер или мобильное устройство, обеспечения доступа либо подписки к онлайн-сервисам и др.

Raqamli mahsulotlarni moddiy tashuvchidan foydalanmagan holda, shu jumladan, butunjahon Internet axborot tarmog'i orqali shaxsiy kompyuterga yoki mobil qurilmaga yuklash (yuklab olish) onlayn xizmatlardan foydalanishga ruxsat berish yoki obuna bo'lish va boshqalar orqali tarqatish usuli.

Рақамли маҳсулотларни моддий ташувчидан фойдаланмаган ҳолда, шу жумладан, бутунжаҳон Интернет ахборот тармоғи орқали шахсий компьютерга ёки мобил қурилмага юклаш (юклаб олиш), онлайн хизматлардан фойдаланишга ружсат бериш ёки обуна бўлиш ва бошқалар орқали тарқатиш усули.

### **Цифровая запись**

**uz** - raqamli yozuv

рақамли ёзув

**en** - digital recording

Информация о цифровых финансовых активах, зафиксированная в реестре цифровых транзакций.

Raqamli tranzaksiyalar reyestrída qayd qilingan raqamli moliyaviy aktivlar to'g'risidagi axborot.

Рақамли транзакциялар реестрида қайд қилинган

## Ц

### **Цифровая инфраструктура**

**uz** - raqamli infratuzilma

рақамли инфратузилма

**en** - digital infrastructure

рақамли молиявий активлар тўғрисидаги ахборот.

Комплекс технологий и построенных на их основе цифровых продуктов, обеспечивающих вычислительные, телекоммуникационные и сетевые мощности и работающих на цифровой (а не аналоговой) основе.

Hisoblash, telekommunikatsiya va tarmoq quvvatlarini ta'minlaydigan va raqamli (analog bo'lmagan) asosda ishlaydigan texnologiyalar va ular asosida tuzilgan raqamli mahsulotlar kompleksi.

Ҳисоблаш, телекоммуникация ва тармоқ қувватларини таъминлайдиган ва рақамли (аналог бўлмаган) асосда ишлайдиган технологиялар ва улар асосида тузилган рақамли маҳсулотлар комплекси.

### **Цифровая медицина**

**uz** - raqamli meditsina

рақамли медицина

**en** - digital medicine

Применение в медицинской практике цифровых медицинских аппаратов.

Tibbiyot amaliyotida raqamli tibbiy apparatlarining qo'llanilishi.

Тиббиёт амалиётида рақамли тиббий аппаратларнинг қўлланиши.

### **Цифровая платформа**

**uz** - raqamli platformada

рақамли платформа

**en** - digital platform

1. Модель деятельности (в том числе бизнес деятельности) заинтересованных лиц на общей платформе для функционирования на цифровых рынках.

2. Площадка, поддерживающая комплекс автоматизированных процессов и модельное потребление цифровых продуктов (услуг) значительным количеством потребителей.

1. Raqamli bozorlarda faoliyat ko'rsatish uchun mo'ljallangan manfaatdor shaxslarning umumiy platformadagi faoliyat modeli (shu jumladan biznes faoliyati).

2. Avtomatlashtirilgan jarayonlar va ko'p sonli iste'molchilar tomonidan raqamli mahsulotlar (xizmatlar) modeli iste'molini qo'llab-quvvatlaydigan maydon.

## Ц

1. Рақамли бозорларда фаолият кўрсатиш учун мўлжалланган манфаатдор шахсларнинг умумий платформадаги фаолият модели (шу жумладан бизнес фаолияти).

2. Автоматлаштирилган жараёнлар ва кўп сонли истеъмолчилар томонидан рақамли маҳсулотлар (хизматлар)нинг модели истеъмолини қўллаб-қувватлайдиган майдон.

**Цифровая платформа Евразийского экономического союза (ЕАЭС) uz** - Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining (YOII) raqamli platformasi

Евроосиё иқтисодий иттифоқининг (ЕОИИ) рақамли платформаси **en** - EEU digital platform (Eurasian Economic Union)

Цифровая платформа, реализующая доступ заинтересованных лиц к цифровым активам ЕАЭС, государственным и сертифицированным частным цифровым услугам в рамках цифрового пространства ЕАЭС, обеспечивающая функционирование отраслевых цифровых платформ, интеграцию с цифровыми платформами других стран и интеграционных образований, построенная на основе единой архитектуры (модели) ЕАЭС.

Manfaatdor shaxslarning YOII raqamli aktivlaridan, YOII raqamli makon doirasida davlat va sertifikatlangan xususiy raqamli xizmatlardan erkin foydalanishlarini amalga oshiradigan, tarmoq raqamli platformalarining ishlashini, boshqa mamlakatlar raqamli platformalari va integratsiyalashuv tuzilmalari bilan integratsiyalashuvini ta'minlaydigan, YOII yagona arxitekturasi (modeli) asosida qurilgan raqamli platforma.

Манфаатдор шахсларнинг ЕОИИ рақамли активларидан, ЕОИИ рақамли макон доирасида давлат ва сертификацияланган хусусий рақамли хизматлардан эркин фойдаланишларини амалга оширадиган, тармоқ рақамли платформаларининг иш-лашини, бошқа мамлакатларнинг рақамли платформалари ва интеграциялашув тузилмалари билан интеграциялашувини таъминлайдиган, ЕОИИ ягона архитектураси (модели) асосида қурилган рақамли платформа.

**Цифровая технология uz** - raqamli texnologiya  
рақамли технология

1. Дискретная система, основанная на методах кодировки и передачи информации, позволяющая совершать множество разноплановых задач за



## Ц

**en** - digital technology

кратчайшие промежутки времени.

2. Интернет, мобильные телефоны и все прочие средства сбора, хранения, анализа информации и обмена ею в цифровой форме.

1. Axborotni kodlash va uzatish metodlariga asoslangan, qisqa muddat oraliq'ida turli xildagi vazifalarni amalga oshirish imkonini beradigan diskret tizim.

2. Internet, mobil telefonlar va axborotni to'plash, saqlash, tahlil qilish hamda ularni raqamli shaklda almashishning barcha boshqa vositalari.

1. Ахборотни кодлаш ва узатиш методларига асосланган, қисқа муддат оралиғида турли хилдаги вазифаларни амалга ошириш имконини берадиган дискрет тизим.

2. Интернет, мобил телефонлар ва ахборотни тўплаш, сақлаш, таҳлил қилиш ҳамда уларни рақамли шаклда алмашишнинг барча бошқа воситалари.

**Цифровая транзакция**

**uz** - raqamli tranzaksiya

рақамли транзакция

**en** - digital transaction

Действие или последовательность действий, направленных на создание, выпуск, обращение цифровых финансовых активов.

Raqamli moliyaviy aktivlarni yaratishi, chiqarish, muomalada bo'lishiga yo'naltirilgan harakat yoki harakatlar ketma-ketligi.

Рақамли молиявий активларни яратиш, чиқариш, муомалада бўлишига йўналтирилган ҳаракат ёки ҳаракатлар кетма-кетлиги.

**Цифровая трансформация**

**uz** - raqamli transformatsiya

рақамли трансформация

**en** - digital transformation

Процесс, который инициируется и происходит под действием внешних факторов, среди которых главным является положительный клиентский опыт.

Tashqi omillar ta'sirida boshlanadigan va bo'lib o'tadigan jarayon, bu tashqi omillarning asosiysi mijozning ijobiy tajribasidir.

## Ц

Ташқи омиллар таъсирида бошланадиган ва бўлиб ўтадиган жараён, бу ташқи омилларнинг асосийси мижознинг ижобий тажрибасидир.

### **Цифровая трансформация экономики**

**uz** - iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi

иқтисодиётнинг рақамли трансформацияси

**en** - digital transformation of the economy

1. Смена экономического уклада, изменение традиционных рынков, социальных отношений, государственного управления, связанная с проникновением в них цифровых технологий.

2. Принципиальное изменение основного источника добавленной стоимости и структуры экономики за счет формирования более эффективных экономических процессов, обеспеченных цифровыми инфраструктурами.

3. Переход функции лидирующего механизма развития экономики к институтам, основанным на цифровых моделях и процессах.

1. Raqamli texnologiyalarning kirib borishi bilan bogʻliq iqtisodiy tartibning almashishi, anʼanaviy bozorlar, ijtimoiy munosabatlar, davlat boshqaruvining oʻzgarishi.

2. Raqamli infratuzilmalar bilan taʼminlangan yanada samarali iqtisodiy jarayonlarni shakllantirish orqali qoʻshilgan qiymatning asosiy manbai va iqtisodiyot tuzilmasini tubdan oʻzgartirish.

3. Iqtisodiyotni rivojlantirishning yetakchi mexanizmi vazifasini raqamli modellar va jarayonlarga asoslangan institutlarga oʻtkazish.

1. Raqamli texnologiyalarнинг кириб бориши билан боғлиқ иқтисодий тартибнинг алмашиши, анъанавий бозорлар, ижтимоий муносабатлар, давлат бошқарувининг ўзгариши.

2. Raqamli infratuzilmalar билан таъминланган янада самарали иқтисодий жараёнларни шакллантириш орқали қўшилган қийматнинг асосий манбаи ва иқтисодиёт тuzилмасини тубдан ўзгартириш.

3. Иқтисодиётни ривожлантиришнинг етакчи механизми вазифасини рақамли моделлар ва жараёнларга асосланган институтларга ўтказиш.

### **Цифровое предприятие**

**uz** - raqamli korxonalar

рақамли корхона

Организация, которая использует информационные технологии в качестве конкурентного преимущества во всех сферах своей деятельности:

## Ц

*en - digital enterprise*

производстве, бизнес-процессах, маркетинге и взаимодействии с клиентами. Традиционная компания превращается в компанию с «цифровым мышлением», проходя путь цифровой трансформации. Сам продукт, предлагаемый таким предприятием рынку, тоже становится цифровым.

O‘z faoliyatining barcha sohalarida, jumladan, ishlab chiqarishda, biznes jarayonlarda, marketingda va mijozlar bilan o‘zaro hamkorlikda axborot texnologiyalaridan raqobatbardosh ustuvorlik sifatida foydalanadigan tashkilot. An’anaviy kompaniya raqamli transformatsiya yo‘lini bosib o‘tib, «raqamli fikrlaydigan kompaniya»ga aylanadi. Bunday korxonadan tomonidan bozor uchun taklif qilinadigan mahsulotning o‘zi ham raqamli mahsulotga aylanadi.

Ўз фаолиятининг барча соҳаларида, жумладан, ишлаб чиқаришда, бизнес жараёнларда, маркетингда ва мижозлар билан ўзаро ҳамкорликда ахборот технологияларидан рақобатбардош устуворлик сифатида фойдаланадиган ташкilot. Анъанавий компания рақамли трансформация йўлини босиб ўтиб, «рақамли фикрлайдиган компания»га айланади. Бундай корхона томонидан бозор учун таклиф қилинадиган маҳсулотнинг ўзи ҳам рақамли маҳсулотга айланади.

### **Цифровое пространство Евразийского**

**экономического союза**  
**uz - Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining raqamli makoni**

Евроосийё иқтисодий иттифоқининг рақамли макони

**en - digital space of the Eurasian Economic Union**

Совокупность социальных механизмов, деловых отношений и общих рынков, использующих цифровые технологии и цифровую инфраструктуру, формирующих и эксплуатирующих цифровые активы.

Raqamli texnologiyalar va raqamli infratuzilmadan foydalanadigan, raqamli aktivlarni shakllantiradigan va ekspluatatsiya qiladigan ijtimoiy mexanizmlar, amaliy ish munosabatlari va umumiy bozorlar majmui.

Рақамли технологиялар ва рақамли инфратузилмадан фойдаланадиган, рақамли активларни

## Ц

шакллантирадиган ва эксплуатация қиладиган ижтимоий механизмлар, амалий иш муносабатлари ва умумий бозорлар мажмуи.

### **Цифровой актив**

**uz** - raqamli aktiv

рақамли актив

**en** - digital asset

1. Систематизированный, индексированный контент (цифровые фотографии, анимация, видео, музыка и пр.), доступный для применения.
2. Инкапсулированная в сети (Интернет или др.) функциональность.
3. Специфическая форма собственности и ресурсов, инвестиции в которые повышают капитализацию физического актива и обеспечивают рост денежного потока.
4. Совокупность информации в цифровой форме (совокупность цифровых продуктов) о физическом или виртуальном объекте, процессе, субъекте деятельности, физическом лице, которая представляет ценность и может быть использована для извлечения добавленной стоимости.
5. Комплекс цифровых продуктов и инфраструктур, процесс использования и изменения которых приводит к формированию добавленной стоимости и новой ценности, в т.ч. выраженной в денежной форме.

1. Qo‘llash uchun ochiq bo‘lgan, tizimlashtirilgan, indeksatsiyalangan kontent (raqamli fotosuratlar, animatsiya, video, musiqa va h.k.lar.).
2. Tarmoqda (Internet yoki boshqalar) inkapsulyatsiya qilingan funktsionallik.
3. Mulkchilik va resurslarning o‘ziga xos shakli, ularga kiritiladigan investitsiyalar fizik aktivlarning kapitallashuvini oshiradi hamda pul oqimining o‘shini ta’minlaydi.
4. Qiymatga ega bo‘lgan va qo‘shilgan qiymatni chiqarish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan fizik yoki virtual obyekt, jarayon, faoliyat subyekti, jismoniy shaxs to‘g‘risidagi raqamli shakldagi axborotning majmui (raqamli mahsulotlarning majmui).
5. Raqamli mahsulotlar va infratuzilmalardan foydalanish va o‘zgartirish jarayoni qo‘shilgan qiymatni va yangi qiymatni, shu jumladan pul shaklida ifodalangan qiymatni shakllantirishga olib keladigan bun-

## Ц

day raqamli mahsulotlar va infratuzilmalar kompleksi.

1. Қўллаш учун очик бўлган, тизимлаштирилган, индексацияланган контент (рақамли фотосуратлар, анимация, видео, мусиқа ва ҳ.к.лар.).
2. Тармоқда (Интернет ёки бошқалар) инкапсуляция қилинган функционаллик.
3. Мулкчилик ва ресурсларнинг ўзига хос шакли, уларга киритиладиган инвестициялар физик активлар капиталлашувини оширади ҳамда пул оқимининг ўсишини таъминлайди.
4. Қийматга эга бўлган ва қўшимча қийматни чиқариш учун фойдаланилиши мумкин бўлган физик ёки виртуал объект, жараён, фаолият субъекти, жисмоний шахс тўғрисидаги рақамли шаклдаги ахборотнинг мажмуи (рақамли маҳсулотларнинг мажмуи).
5. Рақамли маҳсулотлар ва инфратузилмалардан фойдаланиш ва ўзгартириш жараёни қўшимча қийматни ва янги қийматни, шу жумладан пул шаклида ифодаланган қийматни шакллантиришга олиб келадиган бундай рақамли маҳсулотлар ва инфратузилмалар комплекси.

### Цифровой век

**uz** - raqamli asr

рақамли аср

**en** - digital age

Век информации, который представляет собой период в истории человечества, характеризующийся переходом от промышленного производства к информации и компьютеризации, значительно изменив то, как люди взаимодействуют с предприятиями и друг с другом.

Sanoat ishlab chiqarishidan axborot va kompyuterlashtirishga, odamlar korxonalar bilan va bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarini sezilarli darajada o'zgartirgan holda o'tishi bilan tavsiflanadigan insoniyat tarixidagi davrdan iborat axborot asri.

Саноат ишлаб чиқаришидан ахборот ва компьютерлаштиришга, одамлар корхоналар билан ва бир-бирлари билан ўзаро муносабатларини сезиларли даражада ўзгартирган ҳолда ўтиши билан

## Ц

тавсифланадиган инсоният тарихидаги даврдан иборат ахборот асри.

### **Цифровой**

#### **информационный ресурс**

**uz** - raqamli axborot resursi

рақамли ахборот ресурси

**en** - digital information resource

Переведенная в цифровой код информация в форме данных, баз данных и программно-информационных продуктов, которая обрабатывается с использованием средств вычислительной техники.

Hisoblash texnikasi vositalaridan foydalangan holda qayta ishlanadigan ma'lumotlar, ma'lumotlar bazalari va dasturiy-axborot mahsulotlari shaklidagi raqamli kodga o'tkazilgan axborot.

Ҳисоблаш техникаси воситаларидан фойдаланган ҳолда қайта ишланадиган маълумотлар, маълумотлар базалари ва дастурий-ахборот маҳсулотлари шаклидаги рақамли кодга ўтказилган ахборот.

### **Цифровой маркетинг**

**uz** - raqamli marketing

рақамли маркетинг

**en** - digital marketing

Совокупность использующих цифровые каналы методов продвижения и сбыта товаров и услуг.

Raqamli kanallardan foydalanadigan tovarlar va xizmatlarni ilgari surish va sotish metodlari majmui.

Рақамли каналлардан фойдаланадиган товарлар ва хизматларни илгари суриш ва сотиш методлари мажмуи.

### **Цифровой образ**

**uz** - raqamli obraz

рақамли образ

**en** - digital image

Совокупность характеристик субъекта или объекта реального мира, сущности в цифровой форме, однозначно характеризующая субъект или объект и его состояние.

Subyektни yoki obyektни va uning holatini bir xil tavsiflaydigan real hayot subyekt yoki obyekt, raqamli shakldagi mohiyat tavsiflari majmui.

Субъектни ёки объектни ва унинг ҳолатини бир хил тавсифлайдиган реал ҳаётдаги субъект ёки объект, рақамли шаклдаги моҳият тавсифларининг мажмуи.

### **Цифровой рынок**

**uz** - raqamli bozor

1. Совокупность экономических отношений, базирующихся на регулярных обменных опера-

## Ц

рақамли бозор  
en - digital market

циях в электронном виде между производителями товаров (услуг) и потребителями.

2. Рынок данных и неструктурированной информации, создаваемый в цифровом пространстве.

1. Tovarlar (xizmatlar)ni ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida elektron shakldagi muntazam ayirboshlash operatsiyalariga asoslanadigan iqtisodiy munosabatlarning majmui.

2. Raqamli makonda yaratiladigan ma'lumotlar va strukturalanmagan axborot bozori.

1. Товарлар (хизматлар)ни ишлаб чиқарувчилар ва истеъмолчилар ўртасида электрон шаклдаги мунтазам айирбошлаш операцияларига асосланган иқтисодий муносабатларнинг мажмуи.

2. Рақамли маконда яратиладиган маълумотлар ва структураланмаган ахборот бозори.

**Цифровой финансовый актив**

uz - raqamli moliyaviy aktiv  
рақамли молиявий актив  
en - digital financial asset

Имущество в электронной форме, созданное с использованием шифровальных (криптографических) средств. Права собственности на данное имущество удостоверяются путем внесения цифровых записей в реестр цифровых транзакций. К цифровым финансовым активам относятся криптовалюты, токены.

Shifrlash (kriptografiya) vositalaridan foydalangan holda yaratilgan elektron shakldagi mulk. Ushbu mulkka egalik huquqi raqamli yozuvlarni raqamli tranzaksiyalar reyestriga kiritish orqali tasdiqlanadi. Raqamli moliyaviy aktivlarga kriptoalyuta, token kiradi.

Шифрлаш (криптография) воситаларидан фойдаланган ҳолда яратилган электрон шаклдаги мулк. Ушбу мулкка эгаллик ҳуқуқи рақамли ёзувларни рақамли транзакциялар реестрига киритиш орқали тасдиқланади. Рақамли молиявий активларга криптовалюта, токен кирди.

**Цифровой (электронный) банкинг**

Набор услуг, в рамках которых клиент банка имеет возможность совершать все стандартные

## Ц

**uz** - raqamli (elektron) banking  
рақамли (электрон)  
банкинг  
**en** - digital banking (e-banking)

банковские операции (исключая операции с наличными) со своего персонального компьютера, подключенного к сети Интернет.

Bank mijozlari, o'zining Internet tarmog'iga ulangan shaxsiy kompyuteridan, barcha standart bank operatsiyalarini (naqd pul bilan operatsiyalarni hisobga olmagan holda) amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lgan xizmatlar to'plami.

Банк мижози, ўзининг Интернет тармоғига уланган шахсий компютеридан, барча стандарт банк операцияларини (нақд пул билан операцияларни ҳисобга олмаган ҳолда) амалга ошириш имкониятига эга бўлган хизматлар тўплами.

**Цифровой (электронный) кошелек**  
**uz** - raqamli (elektron) karmon  
рақамли (электрон)  
кармон  
**en** - digital wallet

Программно-техническое средство, позволяющее хранить информацию о цифровых записях и обеспечивающее доступ к реестру цифровых транзакций. Цифровой кошелек открывается оператором обмена цифровых финансовых активов только после прохождения процедур идентификации его владельца в соответствии с Законодательством.

Raqamli yozuvlar to'g'risidagi ma'lumotni saqlash va raqamli tranzaksiyalar reyestriga kira olishni ta'minlaydigan dasturiy-texnik vosita. Raqamli karmon raqamli moliyaviy aktivlar almashinuvi operatori tomonidan faqat Qonun hujjatlariga muvofiq egasining identifikatsiyalash protseduralaridan o'tganidan keyin ochiladi.

Рақамли ёзувлар тўғрисидаги маълумотни сақлаш ва рақамли транзакциялар реестрига kira олишни таъминлайдиган дастурий-техник восита. Рақамли кармон рақамли молиявий активлар алмашинуви оператори томонидан фақат Қонун ҳужжатларига мувофиқ эгасининг идентификациялаш процедураларидан ўтганидан кейин очилади.

**Цифровые авторские права**  
**uz** - raqamli mualliflik

Совокупность методов, обеспечивающих распространение интеллектуальной собственности



## Ц

huquqlari  
рақамли муаллифлик  
хуқуқлари  
**en** - digital copyright

только авторизованным пользователям. К таким методам относятся цифровые водяные знаки, шифрование данных и т.д.

Intellectual mulkning faqat mualliflashtirilgan foydalanuvchilarga tarqatilishini ta'minlaydigan usullar to'plami. Bunday usullarga raqamli suv belgilari, ma'lumotlarni shifrlash va h.k.lar kiradi.

Интеллектуал мулкнинг фақат муаллифлаштирилган фойдаланувчиларга тарқатилишини таъминлайдиган усуллар тўплами. Бундай усулларга рақамли сув белгилари, маълумотларни шифрлаш ва ҳ.к.лар киради.

**Цифровые данные;  
цифровая информация;  
дискретная информация**  
**uz** - raqamli ma'lumotlar;  
raqamli axborot; diskret axborot  
рақамли маълумотлар;  
рақамли ахборот; дискрет  
ахборот  
**en** - digital data; digital  
information; discrete  
information

Информация, представленная в форме, допускающей обработку отдельных элементов ее содержания. Например, цифровой текстовый документ позволяет осуществлять его побуквенную обработку.

Axborotning ayrim elementlarini qayta ishlash imkonini beradigan shaklda taqdim etilgan axborot. Masalan, raqamli matn hujjati unga harfma-harf ishlov berish imkonini beradi.

Ахборотнинг айрим элементларини қайта ишлаш имконини берадиган шаклда тақдим этилган ахборот. Масалан, рақамли матн ҳужжати унга ҳарфма-ҳарф ишлов бериш имконини беради.

**Цифровые дивиденды**  
**uz** - raqamli dividendlar  
рақамли дивидендлар  
**en** - digital dividend

Некоторая часть радиочастотного спектра в диапазонах 174–230 МГц и 470–862 МГц, которая может быть освобождена при переходе на цифровое телевидение. Такая возможность связана с тем, что для передачи одинакового количества программного контента в цифровом формате требуется в несколько раз меньшее количество частотного ресурса: в одном телеканале может передаваться до 8–9 телепрограмм. Освобождающиеся частоты могут быть использованы для организации других радиослужб, и неудивительно, что первым претендентом являются мобиль-

## Ц

ная связь и передача данных, для которых использование более низких частот с лучшими характеристиками распространения означает существенный выигрыш в стоимости инфраструктуры.

174-230 MHz va 470-862 MHz chastotalar diapazonlaridagi raqamli televideniyeга o'tishda bo'shashi mumkin bo'lgan radiochastota spektrining bir qismi. Ushbu imkoniyat raqamli formatda bir xil miqdordagi dasturiy kontentni uzatish uchun chastota resursining bir necha barobar kamroq bo'lishi kerakligi bilan bog'liq: bir telekanalda 8-9 tagacha teledasturlar uzatilishi mumkin. Bo'shayotgan chastotalar boshqa radio xizmatlarini tashkil qilish uchun ishlatilishi mumkin va bunda birinchi davogar mobil aloqa va ma'lumotlar uzatish ekanligi ajablanarli emas, ular uchun yaxshi tarqatish xususiyatlariga ega bo'lgan nisbatan past chastotalardan foydalanish uchun ma'lumotlarni uzatish infratuzilma xarajatlarida katta yutuq degan ma'noni anglatadi.

174-230 MHz va 470-862 MHz diapazonlardagi raqamli televideniyeга ўтишда бўшаши мумкин бўлган радиочастота спектрининг бир қисми. Ушбу имконият бир хил миқдордаги дастурий контентни рақамли форматда узатиш учун частота ресурсининг бир неча баробар камроқ бўлиши кераклиги билан боғлиқ: бир телеканалда 8-9 тагача теледастурлар узатилиши мумкин. Бўшаётган частоталардан бошқа радио хизматларини ташкил қилиш учун фойдаланиш мумкин ва бунда биринчи даъвогар мобил алоқа ва маълумотлар узатиш эканлиги ажабланarli эмас, улар учун яхши тарқатиш хусусиятларига эга бўлган нисбатан паст частоталардан фойдаланиш маълумотларни узатиш инфра-тузилма харажатларида катта ютуқ деган маънони англатади.

**Цифровые права человека**  
**uz** - insonning raqamli  
huquqlari

Расширение и применение универсальных прав человека к потребностям общества, основанного на информации.

## Ц

инсоннинг рақамли  
ҳуқуқлари  
**en** - digital human rights

Примечание – В настоящее время эти технологии получили развитие в качестве технологий «несмертельного оружия» и, оказавшись в руках правительств или корпораций, они легко могут быть использованы против интересов широкой публики чрезвычайно опасным образом.

Universal inson huquqlarini kengaytirish va axborotga asoslangan jamiyat ehtiyojlariga nisbatan tatbiq etish.

Izoh – Hozirgi kunda ushbu texnologiyalar «halokatga olib bormaydigan qurol» texnologiyalari sifatida rivojlandi va hukumat yoki korporatsiyalarning qo‘liga o‘tib, ulardan keng jamoatchilik manfaatlariga qarshi juda xavfli tarzda foydalanilishi mumkin bo‘ladi.

Универсал инсон ҳуқуқларини кенгайтириш ва ахборотга асосланган жамият эҳтиёжларига нисбатан татбиқ этиш.

Изоҳ – Ҳозирги кунда ушбу технологиялар «ҳалокатга олиб бормайдиган қурол» технологиялари сифатида ривожланди ва ҳукумат ёки корпорацияларнинг қўлига ўтиб, улардан кенг жамоатчилик манфаатларига қарши жуда хавfli тарзда фойдаланилиши мумкин бўлади.

## Ч

**Частное облако**  
**uz** - xususiy bulut  
хусусий булут  
**en** - private cloud

IT-инфраструктура, элементы которой расположены в рамках одной организации. Частное облако размещается исключительно на оборудовании, которым располагает компания или предприятие-создатель облака.

Elementlari bitta tashkilot ichida joylashgan IT-infratuzilma. Xususiy bulut faqat kompaniya yoki bulutni yaratuvchi korxonaga tegishli uskunalarda joylashtiriladi.

Элементлари битта ташкилот ичида жойлашган IT-инфратузилма. Хусусий булут фақат компания ёки булутни яратувчи корхонага тегишли ускуналарда жойлаштирилади.

**Частные цифровые  
финансовые активы**

Цифровые финансовые активы, эмитентом которых выступают корпорации или частные лица.

## Ч

**uz** - xususiy raqamli moliyaviy aktivlar

хусусий рақамли молиявий активлар

**en** - private DFA

Корпоратсиялар yoki xususiy shaxslar emitenti bo‘lib hisoblanadigan raqamli moliyaviy aktivlar.

Корпорациялар ёки хусусий шахслар эмитенти бўлиб ҳисобланадиган рақамли молиявий активлар.

## Ш

**Шифрование**

**uz** - shifrlash

шифрлаш

**en** – encryption

1. Основное криптографическое преобразование в криптосистемах, выполняется отправителем конфиденциальной информации. Преобразование шифрования переводит пару (открытый текст, ключ шифрования) в шифртекст.

2. Способ обработки данных с использованием специальных алгоритмов, обеспечивающих их скрытую передачу. Преобразование информации осуществляется на уровне битов или их последовательностей в отличие от криптографических методов, где единицами кодирования обычно являются смысловые слова или фразы.

1. Kriptotizimlardagi asosiy o‘zgartirish, konfidensial axborotni jo‘natuvchi tomonidan bajariladi. Shifrlashni o‘zgartirish juft (ochiq matn, shifrlash kaliti)ni shifrmatnga o‘tkazadi.

2. Ma’lumotlarni, ularning yashirin uzatilishini ta’minlovchi maxsus algoritmlardan foydalanib, qayta ishlash usuli. Axborotning o‘zgartirilishi kodlash birliklari, odatda, mazmunli so‘z yoki jumlar bo‘lgan kriptografik usullardan farqli o‘laroq, bitlar yoki ularning ketma-ketligi darajasida amalga oshiriladi.

1. Криптотизимлардаги асосий ўзгартириш, кон­фиденциал ахборотни жўнатувчи томондан ба­жарилади. Шифрлашни ўзгартириш жуфт (очик матн, шифрлаш калити)ни шифрматнга ўтказди.

2. Маълумотларни, уларнинг яширин узатили­шини таъминловчи махсус алгоритмлардан фойдаланиб, қайта ишлаш усули. Ахборотнинг ўзгартирилиши кодлаш бирликлари, одатда, мазмунли сўз ёки жумлалар бўлган криптографик

усуллардан фаркли ўлароқ, битлар ёки уларнинг кетма-кетлиги даражасида амалга оширилади.

## Э

**Эквайрер (банк-эквайрер)**  
**uz** - ekvaуrer (bank-ekvaуrer)  
эквайрер (банк-эквайрер)  
**en** - acquiring bank

Финансовая организация, которая реализует выполнение необходимых операций по обеспечению взаимодействия участников обслуживания средствами платежной системы.

To'lov tizimi vositalari bilan xizmat ko'rsatish ishtirokchilarining o'zaro hamkorligini ta'minlash bo'yicha zarur operatsiyalar bajarilishini amalga oshiradigan moliyaviy tashkilot.

Тўлов тизими воситалари билан хизмат кўрсатиш иштирокчиларининг ўзаро ҳамкорлигини таъминлаш бўйича зарур операциялар бажарилишини амалга оширадиган молиявий ташкилот.

**Экологическая система, экосистема**  
**uz** - ekologik tizim, ekotizim  
ЭКОЛОГИК ТИЗИМ, ЭКОТИЗИМ  
**en** - ecosystem

Единая корпоративная информационно управляющая платформа (среда) предприятия. Экосистема компании-изготовителя – это набор её продуктовых линеек в совокупности с соответствующими аппаратными и программными средствами разработки, отладки, тестирования, сопровождения в эксплуатации, обмена данными и др. Часто сюда включают также сторонних разработчиков и множество компаний, которые строят свои решения на базе продуктов данного изготовителя.

Korxonaning yagona korporativ-axborot boshqarish platformasi (muhi). Ishlab chiqaruvchi-kompaniyaning ekotizimi – bu tegishli ishlab chiqarish, sozlash, testdan o'tkazish, ekspluatatsiya qilish vaqtidagi kuzatishlar, ma'lumotlar almashish va b. apparat va dasturiy ishlab chiqarish vositalari bilan birgalikdagi mahsulot to'plamlarining majmui. Ko'pincha bu tarkibga ushbu ishlab chiqaruvchining mahsulotlari asosida o'z g'oyalarini yaratadigan tashqi ishlab chiquvchilar va ko'plab kompaniyalar kiritiladi.

Корхонанинг ягона корпоратив-ахборот бошқа-

риш платформаси (муҳити). Ишлаб чиқарувчи-компаниянинг экотизими – бу тегишли ишлаб чиқариш, созлаш, тестдан ўтказиш, эксплуатация қилиш вақтидаги кузатишлар, маълумотлар алмашиш ва б. аппарат ва дастурий ишлаб чиқариш воситалари билан биргаликдаги маҳсулот тўпламларининг мажмуи. Кўпинча бу таркибга ушбу ишлаб чиқарувчининг маҳсулотлари асосида ўз ғояларини яратадиган ташқи ишлаб чиқувчилар ва кўплаб компаниялар киритилади.

**Экономика, основанная на знаниях**

**uz** - bilimlarga asoslangan iqtisodiyot

билимларга асосланган иқтисодиёт

**en** - knowledge economy

Экономика, в которой большая часть валового внутреннего продукта обеспечивается деятельностью по производству, обработке, хранению и распространению информации и знаний.

Yalpi ichki mahsulotning katta qismi axborot va bilimlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va tarqatish bo'yicha faoliyat bilan ta'minlanadigan iqtisodiyot.

Ялпи ички маҳсулотнинг катта қисми ахборот ва билимларни ишлаб чиқариш, қайта ишлаш, сақлаш ва тарқатиш бўйича фаолият билан таъминланадиган иқтисодиёт.

**Экосистема цифровой экономики**

**uz** - raqamli iqtisodiyot ekotizimi

рақамли иқтисодиёт экотизими

**en** - ecosystem of digital economy

Партнерство организаций, обеспечивающее постоянное взаимодействие принадлежащих им технологических платформ, прикладных Интернет-сервисов, аналитических систем, информационных систем органов государственной власти, организаций и граждан.

Tashkilotlarga tegishli texnologik platformalar, amaliy Internet-servislar, analitik tizimlar, davlat hokimiyati organlarining axborot tizimlari, tashkilotlar va fuqarolarning doimiy hamkorligini ta'minlaydigan ushbu tashkilotlar hamkorligi.

Ташкилотларга тегишли технологик платформалар, амалий Интернет-сервислар, аналитик тизимлар, давлат ҳокимияти органларининг ахборот тизимлари, ташкилотлар ва фуқароларнинг доимий ҳамкорлигини таъминлайдиган ушбу ташки-

лотлар ҳамкорлиги.

**Экспорт цифровых  
продуктов**

**uz** - raqamli mahsulotlar  
eksporti

рақамли маҳсулотлар  
экспорти

**en** - export of digital products

Передача хозяйствующим субъектом Республики Узбекистан юридическому или физическому лицу иностранного государства исключительных прав на цифровые продукты или права пользования цифровыми продуктами либо совершение в электронной информационной среде определенного действия или осуществление определенной деятельности, не имеющей вещественного результата, независимо от места совершения действий (осуществления деятельности).

O‘zbekiston Respublikasining xo‘jalik yurituvchi subekt tomonidan xorijiy davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsiga raqamli mahsulotlar uchun mutlaq huquqlarning yoki raqamli mahsulotlardan foydalanish yoxud amalga oshirish (faoliyatni amalga oshirish) joyidan qat’i nazar yuridik yoki jismoniy shaxsning elektron axborot muhitida muayyan harakatlarni yoki moddiy natijaga ega bo‘lmagan muayyan faoliyatni amalga oshirish huquqining berilishi.

Ўзбекистон Республикасининг хўжалик юритувчи субъекти томонидан хорижий давлатнинг юридик ва жисмоний шахсига рақамли маҳсулотлар учун мутлақ ҳуқуқларнинг ёки рақамли маҳсулотлар-дан фойдаланиш ёхуд амалга ошириш (фаолиятни амалга ошириш) жойидан қатъи назар электрон ахборот муҳитида муайян ҳаракатни ёки моддий натижага эга бўлмаган муайян фаолиятни амалга ошириш ҳуқуқининг берилиши.

**Электронная банковская  
гарантия**

**uz** - elektron bank kafolati

электрон банк кафолати

**en** - electronic banking  
guarantee

Обычная гарантия, но оформленная в виде электронного документа, имеющего юридическую силу. Все коммуникации с банком и оформление такой гарантии проходят через Интернет, а документы подписываются электронной цифровой подписью, которая придает документам юридическую силу.

## Э

Yuridik kuchga ega bo'lgan, elektron hujjat ko'rinishida rasmiylashtirilgan oddiy kafolat. Bank bilan bo'ladigan barcha aloqalar va bunday kafolatni rasmiylashtirish Internet orqali amalga oshiriladi, hujjatlar esa ularga yuridik kuch beradigan elektron raqamli imzo bilan imzolanadi.

Юридик кучга эга бўлган, электрон хужжат кўринишида расмиylаштирилган оддий кафолат. Банк билан бўладиган барча алоқалар ва бундай кафолатни расмиylаштириш Интернет орқали амалга оширилади, хужжатлар эса уларга юридик куч берадиган электрон рақамли имзо билан имзоланади.

### **Электронная библиотека**

**uz** - elektron kutubxona

электрон кутубхона

**en** - digital library

Распределенная информационная система, позволяющая надежно сохранять и эффективно использовать разнородные коллекции электронных документов (текст, графика, аудио, видео и т.д.) через глобальные сети передачи данных в удобном для конечного пользователя виде.

Elektron hujjatlarning turli kolleksiyalarini (matn, grafika, audio, video va h.k.lar) oxirgi foydalanuvchiga global ma'lumotlar uzatish tarmoqlari orqali qulay ko'rinishda ishonchli saqlash va samarali foydalanish imkonini beradigan taqsimlangan axborot tizimi.

Электрон хужжатларнинг турли коллекцияларини (матн, графика, аудио, видео ва ҳ.к.лар) охирги фойдаланувчига глобал маълумотлар узатиш тармоқлари орқали қулай кўринишда ишончли сақлаш ва самарали фойдаланиш имконини берадиган тақсимланган ахборот тизими.

### **Электронная**

**государственная услуга**

**uz** - elektron davlat xizmati

электрон давлат хизмати

**en** - electronic public service

Государственная услуга, оказываемая с применением информационно-коммуникационных технологий.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilgan holda ko'rsatiladigan davlat xizmati.



## Э

### **Электронная коммерция**

**uz** - elektron tijorat

электрон тижорат

**en** - electronic commerce

Ахборот-коммуникация технологиялари қўлланилган ҳолда кўрсатиладиган давлат хизмати.

Предпринимательская деятельность по продаже товаров, выполнению работ и оказанию услуг, осуществляемая с использованием информационных систем.

Axborot tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishga doir tadbirkorlik faoliyati.

Ахборот тизимларидан фойдаланган ҳолда амалга ошириладиган, товарларни сотиш, ишларни бажариш ва хизматлар кўрсатишга доир тadbirkorlik фаолияти.

### **Электронная сделка**

**uz** - elektron bitim

электрон битим

**en** - e-transaction

Сделка, независимо от формы исполнения, в связи с которой волеизъявление сторон зафиксировано при помощи электронных средств связи.

Bajarilish shaklidan qat'i nazar, tomonlarning xohishi elektron aloqa vositalari yordamida qayd etilgan bitim.

Бажарилиш шаклидан қатъи назар, томонларнинг хоҳиши электрон алоқа воситалари ёрдамида қайд этилган битим.

### **Электронная система**

**uz** - elektron tizim

электрон тизим

**en** - electronic system

